Jadidlar TARIXI

O‘quv qo‘llanma



LUTFILLO MAMASAIDOV

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

MAMASAIDOV LUTFILLO PAYZULLO O’G’LI

JADIDLAR TARIXI

O’quv qo’llanma

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo’yicha)
ta’lim yo’nalishi uchun

“Iste’dod ziyo-press” nashriyoti

Namangan 2025

UO‘K: 821-512-133-9

KBK: 84(O‘zb)7

M-47

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o’g’li. Jadidlar tarixi. O’quv qo’llanma. «Iste’dod ziyo press» nashriyoti, – Namangan, 2025. – 102 b.

KBK: 84(O‘zb)7

O’quv qo’llanma 60220300 - Tarix yo’nalishi va boshqa turdosh mutaxassisliklarda tahsil olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan.

O’quv qo’llanmada Jadidlar tarixi fanining mazmuni va vazifalari, jadidchilik harakatining yuzaga kelishi, Rossiya imperiyasi tomonidan jadidlar faoliyatiga bo’lgan e’tibor, “Yangi usul” maktablarining tashkil etilishi, jadidlar tomonidan yaratilgan o’quv darslik va adabiyotlar, jadidlar tomonidan gazeta va jurnallarning tashkil etilishi va faoliyati, Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlarining faoliyati, Sovet hokimyati tomonidan jadidlar faoliyatining yakunlanishi va uning oqibatlari va mustaqillik yillarida jadidlarga bo’lgan munosabatlar yoritilgan.

Taqrizchilar:

tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD), dotsent
Mansurov Ulug’bek Umarovich

tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismailov Ikromjon Anvarjonovich

O‘quv qo‘llanma University of Business and science Ilmiy kengashi yig‘ilishining 1- sonli karori ("28" yanvar 2025 yil) bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-794-61-2

© Mamasaidov Lutfillo

© «Iste’dod ziyo press» nashriyoti, 2025.

SO’Z BOSHI

Milliy o’zlikni anglash, ma’naviy va madaniy hayotni ta’lim sohasi orqali rivojlantirish O’zbek davlatchilik tarixining eng muhim omillardan sanaladi. Yurtimiz tarixida ta’lim sohasiga e’tibor doimo yuqori darajada bo’lgan. Aynan Sharq renessansi davrining buyuk allomalari va ularning jahon madaniyatiga ta’siri ilm-fan va ma’rifat sohasida xizmatlari bilan bog’liq. Bu davrda tarix, til va adabiyot, fiqhshunoslik, astranomiya, tibbyot, matematika va fizika fanlarning o’qitilishi al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, al-Farg’oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqishiga sabab bo’lgan.

Shuningdek, Amir Temur va temiriylar davridan to Rossiya imperiyasi O’rta Osiyo bosib olgungacha bo’lgan vaqtda Buxoro amirligi, Xiva va Qo’qon xonliklarida hukumdorlar va ilm peshvolari tomonidan masjidlar qoshida maktablar hamda madrasalar tashkil etilib, bu dargohlardan adabiyot, tarix va fiqhshunoslik ilmida mashhur hukumdorlar hamda dunyoga mashhur ilm egalari yetishib chiqgan.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev tabiri bilan aytganda bu qutlug’ diyorda o’tmishda 400 ga yaqin madrasa, jumladan, 33 ta oliy madrasa, ya’ni, oliy o’quv yurti faoliyat yuritgani bugun ham odamni hayratga soladi[1] deya ma’lumot keltirib, O’zbekiston qadimdan ilmu-ziyo maskanlaridan biri ekanligini takidlaydilar.

XIX asr o’rtalarida kelib O’zbekiston hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilib, mamlakatni boshqarish bo’yicha turli ko’rinishdagi qonun-qoidalarni ishlab chiqilishi bahonasida aholining uzoq yillar davomida shakillangan moddiy va ma’naviy hayotiga o’z ta’sirini o’tkaza boshlagan.

Sababi bu davrda O‘rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o‘ta past, madaniy-ma’naviy hayotida islom dini peshvolarining ta’siri kuchli edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an’analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqgan.

[1] https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-abu-ali-ibn-sino-va-sharq-renessansi-mavzusida-xalqaro-ilmiy-konferensi

Shunday vaziyatda xalqning marifaatini oshirish, islom falsafasidagi xilma-xil g’oyalarga qarshi kurashish, rus imperiyasining ruslashtirish siyosatiga qarshi chiqish va milliy o’zlikni qayta tiklash maqsadida XIX asrning oxirlariga kelib o’lkada asta sekinlik bilan jadidchilik harakati shakillana boshladi.

O‘rta Osiyoda ma’rifatparvarlik harakati kishilarning ilm-fan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo‘lgan intilishining natijasi edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intilganlar. Shu asnoda ular tomonidan yangi metodlarga asoslangan va zamonaviy fanlarni o’qtishga mo’ljallangan ta’lim muassasalarining tashkil etilishi ishlariga katta e’tibor qaratilgan. Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan “Tarbiyati atfol”, “Umid”, “Nashri maorif”, “Barakat”, “G‘ayrat”, “Taraqqiy parvar” kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy, ilmiy jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyatlar gazeta va jurnallar chop etib xalqning ma’naviy ongini oshirishga va mafkuraviy salohiyatini ko‘tarishga intilgan.

Shu sababdan ham O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi hamda baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch hamda imkoniyatlarini safarbar etamiz va bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz[2]”, degan fikridan kelib chiqadigan bo‘lsak, yangi davr allomalari va millat qahramonlari sifatida Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza va Cho‘lpon va boshqa ko’plab marifatparvarlani nomi qayta tiklash hamda ularning mustaqillik yo’lida amalga oshirgan barcha sayi-harakatlari tadbiq etish, mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o’z qimmati va ahamiyatini hamon yo’qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабрь.

xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ’ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”[3].

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo’lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g’oya va dasturlari Yangi O’zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg’un va hamohangdir.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 22-dekabrdagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida nutқidan. https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/

1-mavzu: JADIDCHILIK HARAKATINING YUZAGA KELISHI

Reja:

1. Jadidchilik harakatining shakllanishi uchun shart-sharoitning yetilishi.

2. Jadidlarning Milliy istiqlol va davlatchilik g'oyalarining shakllanishi va amalga oshirilishi.

3. Rossiya mustamlaka o'lkalaridagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va Turkiston ziyolilari.

Har bir jamiyat o‘z tarixi davomida tug‘ilish, o‘sish, avj nuqtaga yetish va sekin - asta tanazzulga yuz tutish jarayonlarini boshidan kechiradi. Bu holning obyektiv sabablari ko‘p.

O‘zbek xalqining o‘tmishi, boshqa xalqlar tarixidek, turli qabila va urug‘larning bir beklikka, bekliklarning esa xonliklarga birlashishidan, bu xonliklarning muayyan tarixiy muddatda yashab, rivojlanishi, so‘ng istilo azobini ko‘rishi va nihoyat, qullik kishanlarini yanchib, o‘z mustaqilligiga erishishidan iborat bo‘ldi. Bu hayotiy haqiqat asrlar davomida turli shaklda yuz ko‘rsatdi. Ijtimoiy -siyosiy fikrning eskirishi va yangisining tug‘ilishi ham xuddi shu jarayon bilan bog‘liq.

O‘zbek davlatchiligi tarixida, nafaqat harbiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jixatdan ham qudratli saltanatning barpo etilishida Sohibqiron Amir Temurning tarixiy xizmati beqiyosdir. Shu davrdan e’tiboran o‘zbek xalqining jahon tarixidagi o‘rni aniqlanib, jamiyatning siyosiy va huquqiy asoslari shakllanib bordi. Ijtimoiy, ilmiy va badiiy tafakkur o‘zining olamshumul samarasini izchil bir shaklda bera boshladi. Bu tarix sahnasiga ko‘tarilgan buyuk shaxsning jamiyatni yangilash uchun qudratli davlat barpo etish, mamlakatni xarob etayotgan ichki kurashlarga barham berish, mayda beklik va xonliklarni birlashtirish, yangi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy g‘oyalarni hayotga tadbiq etish lozimligini tushunganligi tufayli yuz berdi.

Mo‘g‘ullar XIII asrda Xorazm shohlaridan g‘olib chiqib, turkiy xalqlar yashaydigan zaminni zabt etgan bo‘lsalar, Amir Temur 1370-yilda Chig‘atoylar hukmronligiga barham berdi. Sohibqiron Chindan to O‘rta Yer dengiziga qadar bo‘lgan hududda buyuk saltanat bunyod etishga muvaffaq bo‘ldi. Afsuski, XVIII asrga kelib, uning ayrim ko‘rinishi (Xiva, Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligi) mavjud edi, xolos. Xiva xonligi XVII asrda Amudaryodan Xurosonga qadar bo‘lgan hududni o‘z ichiga olardi. 1740-1747-yillar orasida Eron hukmdori Nodirshoh qo‘li ostida bo‘lgan xonlik mustaqillikka erishdi-yu, ammo

uzoq vaqt ichki kurashlar avjiga chiqib, bu hol chor Rossiya istilosiga qadar davom etdi.

Amudaryoning o‘ng sohilidan tortib to Xiva xonligi sarhadlariga qadar uzangan Buxoro amirligi 1752-yildan e’tiboran mang‘it sulolasining vakili bo‘lmish Muxammad Raximxon hukmronligi ostida yashadi. Uzoq vaqt bu yerda ham tinchlik qaror topmadi. Faqat Shoh Murod davrida (1785-1800) bir qadar osoyishtalik qaror topib, madrasalarda ta’lim-tarbiya berishga e’tibor ortdi. O‘sha vaqtda madrasalarda o‘ttiz mingga yaqin talaba tahsil olar edi.

Qo‘qon xonligi Amir Temurning nevarasi Umar Shayx tomonidan 1467-yilda bunyod etilib, sharqda Qashqar, g‘arbda Samarqand, janubda Badaxshon tog‘lari, shimolda esa Olmaota shahri bilan chegaradosh bo‘lgan. Har uch xonlik XIX asrga kelib, o‘zaro kelishmovchilik va ichki nizolar natijasida kuchsizlanib, parokanda va tashqi dushmanga dosh bera olmaydigan axvolga tushib qolgan edi.

Mashhur mojor olimi Arminiy Vamberi (1832-1913) 1863-yili darvesh qiyofasida Eron orqali Turkistonga kelgan. Xatarli safardan eson-omon vataniga qaytgach, o‘z taassurotlarini e’lon qiladi. Unda olimning ko‘xna hudud geografiyasi, iqtisodi, tarix, madaniyati va ijtimoiy munosabatlari borasidagi muhim kuzatishlari o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi o‘z kuzatishlarida asrlar davomida din aqidalari asosida boshqarib kelinayotgan jamiyatning tashqi olamdan ajralgan xolda, ya’ni “yopiq ijtimoiy tuzum” sifatida rivojlanayotganini ham alohida ta’kidladi. A.Vamberi ning asari tez orada dunyo axlining nazariga tushadi va bir necha tillarga tarjima qilinadi. Uning ilk tarjimasi o‘sha kezda harbiy harakatlarni boshlab yuborgan chor hukumati tomonidan amalga oshiriladi. Ma’lumotlarga qaraganda, istilochi qo‘shin qo‘mondonlariga muhim manba hisoblangan ushbu asar bilan yaqindan tanishib chiqish yuzasidan maxsus ko‘rsatma ham berilgan. Shu tariqa ilmiy kuzatishlar strategik ahamiyat kasb etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turon zamini ustidan umumiy hukmronlik o‘rnatish uchun kuchli Yevropa davlatlari o‘rtasida raqobat boshlandi. Inglizlar Afgoniston va Janubiy Turkiston bilan qiziqishlarini yashirmay, 1839-yilda Pomirgacha yetib kelishdi. Ularning Turkiston janubiy chegaralari bilan ovora bo‘lib turganidan foydalangan Rossiya shu yilning o‘zida Xivani qo’lga kiritishga harakat qiladi. Ammo general Pyerovskiy qo‘mondonligi ostidagi olti ming kishilik chor qo‘shinlari muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va Qo‘qon sari harakat boshlanadi. Qo‘qon xonligiga qarashli, Sirdaryo yaqinida qad ko‘targan Oqmasjid

qal’asi 1853-yilda zabt etilsa-da, qo‘shinlarning Turkiston ichkarisiga yopirilib kelishi vaqtin cha to‘xtaydi.

1856-yilda Parij sulhi imzolanganidan so‘ng, Rossiya harbiy harakatlardan bo‘shagan qo‘shinlarini Kavkaz va Turkistonga yo‘llaydi. 1858-yilda general Ignatyev (keyinchalik rus hukumatining Istanbuldagi elchisi) Buxoroga elchi qilib yuboriladi va o‘z faoliyatini amirga tazyiq o‘tkazish asosida tashkil etadi. 1860-yilda Yettisuvdan tajovuz boshlagan general Kolpakovskiy Qo‘qon xonligi qo‘shinlarini mag‘lub etadi. To‘qmoq va Pishpyek qal’alarini ishg’ol etib, Sharqiy Turkistonga olib boruvchi yo‘llarni o‘z nazoratigi oladi. 1863-yilda Prussiya bilan shartnoma imzolanganidan so‘ng, Rossiya Qo’qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarini davom ettirib, 1864-yilda Avliyo ota, Turkiston (Yassi) va Chimkent shaharlarini bosib oladi. Shundan keyin general Kaufman uch ming besh yuz askar bilan 1868-yilning 2-mayida Samarqandga kirib keladi. Buxoro amirligi va Qo’qon xonligi sharoit taqozosi bilan Rossiya himoyasiga o‘tadi. 1873-yil 12-avgustda Xiva xonligi ham bu “taklif”ni qabul qilishga majbur bo‘ladi. 1876-yil 19 fyevralda Qo’qon xonligi o‘rnida “Farg‘ona viloyati” paydo bo‘ladi. Bosib olingan yerlarga mamlakat ichkarisidan aholi ko‘chirilib, ko‘plab rus qishloqlari barpo etiladi. Oqibatda, Vamberi vahima bilan ta’riflagan jamiyat yangi shaklga ega bo‘lib, ayn i chog‘da rus mustamlakasiga aylanadi.

Qirq yil davom etgan bosqinchilik urushi mahalliy xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini butunlay izdan chiqardi. Bu xol nafaqat madaniy va ijtimoiy jihatdan o‘sish, balki kundalik ro‘zg‘or tebratishda mislsiz mushkulliklar tug‘dirdi.

“Chor Rossiyasining O’rta Osiyoda, shu jumladan, hozirgi O‘zbekiston hududida olib borgan siyosati, - deb yozadi yuridik fanlari doktori Jo‘raqul Toshqulov, - uzoq yillar davomida har tomonlama puxta o‘ylangan, rejalashtirilgan - o‘lkaning bitmas-tuganmas moddiy va madaniy boyliklarini shafqatsiz talash, uning mehxnat sevar xalqlarini ezish, ularning mehnati evaziga mustamlakachilarning boyishini ta’minlashni maqsad qilib qo‘ygan bosqinchilik siyosati edi. Lekin bu siyosatni amalga oshirish osonlikcha bo‘lmadi. O‘rta Osiyo xalqlari chor qo‘shinlari bosqinchilik yurishlarini boshlagan dastlabki daqiqalardan e’tiboran o‘z yurtini dushmandan himoya qilish, uning mustaqilligini saqlab qolish uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar, har bir qal’a, qishloq, har bir qarich yer uchun jon olib, jon berdilar. Shunga qaramasdan, qurollanish jihatidan ustun bo‘lgan chor qo‘shinlari, yuqorida bayon

qilganimizdek, O‘rta Osiyoning shahar va qishloqlarini birin-ketin bosib oldilar, ularning kulini ko‘kka sovurdilar, himoyachilarini va tinch aholisini shafqatsiz qirdilar. Keyingi ma’lumotlarga ko‘ra, chor qo‘shinlarining O‘rta Osiyoni bosib olishi jarayonida qo‘shin va tinch axoli orasidan jami 598 ming odam nobud bo‘lgan”.

Qayta qurish va oshkoralik, ayniqsa, mustaqillik yillarida e’lon qilingan bir qator kitob gazeta va jurnal maqolalarida mustamlakachi rus hukumati va sho‘rolar hokimiyatining o‘zbek xalqiga keltirgan jabrlari xususida asosli fikrlar bayon etildi. Zero, bunday chiqishlarning bir qismi chorizm davriga oid bo‘lgani uchun ular jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy omillarni tahlil etishga imkon yaratadi. Shunday masalalardan biri ruslashtirishdir. Ruslashtirish deganda, eng avvalo, XIX asrning 70-yillaridan boshlab Rossiyadan ko‘plab mujiklarni ko‘chirib, ularga mahalliy xalqdan sug‘oriladigan, unumdor yerlarning 55 foizini tortib olib berish, hokimiyat idoralarini o‘zga millat vakillari bilan to‘ldirish nazarda tutiladi. Bu holat ham oddiy xalqning ezilishiga olib keldi. Bozorlar ham sekin-asta rus manufaktura sanoati mollari bilan to‘lib, mayda hunarmandlar, masalan, bo‘zchilar, kosiblarning bozori kasod bo‘ldi. Ishsizlik avj oldi. Qishloq aholisi borgan sari qashshoqlashib, mardikorlik, chorikorlik, aniqrog‘i rus mujiklari qo‘lida korandalik qilishga majbur bo‘ldi.

Tarix fanlari doktori Haydarbek Bobobekovning “O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shib olinganmi?” maqolasida vaziyatni yaxshi bilgan bir rus olimining quyidagi fikrlari keltirilgan:

“O‘lkani ruslar egallagandan keyin axolining axvoli va’da qilingan yaxshi imkoniyatlar va qulayliklar, farovonliklar o‘rniga, aksincha, kundan-kunga yomonlashib va og‘irlashib bordi. Axolidan biz ko‘p narsani talab qilmoqdamiz, ulardan soliq olishda esa biz yuksaklikka ko‘tarilmoqdamiz, lekin biz xalqqa nima qildik? Biz unga tinchlik, osoyishtalik berdik, qo‘shinlar o‘rtasidagi talon-taroj urushlarga chek qo‘ydik, o‘lim jazosini muttasil kamaytirganimiz aniq, le kin biz shu bilan cheklandik. Toshkentda turli komissiyalarda chiroyli aytilgan so‘zlardan tashqari, xalq xo‘jaligi uchun biz hech narsa qilmadik”.

Ko‘chirmada keltirilgan soliqlar masalasiga oid fikrga e’tiborni qaratmoqchimiz. Afsuski, shu paytgacha nafaqat tarixchilar, balki boshqa soha tadqiqotchilari ham mustamlakachilik yillarida olingan soliqlar tufayli xalqning iqtisodiy sharoiti yanada og‘irlashgani bilan shug‘ullanishmagani bois masalaning bu muhim tarafiga e’tibor berilmagan. Holbuki, xalqning qashshoqlanishi, mardikor va

korandalikning avj olishi, bolalarning bachchaxonalarga, qizlarning esa islovotxonalarga tushishi, avvalo, ana shu nochorlikning xunuk oqibati edi. Qo‘qon xonligi xali tugatilmay turib, Rossiyaga behisob soliqlar xazina hisobidan emas, balki oddiy xalqni shilish evaziga to‘langan. Har ikki xonlik mustamlakaga aylantirilib, Buxoro amirligi esa yarim vassal maqomiga ega bo‘lgan xolda ikki xonlikdan Rossiyaning bevosita o‘zi aholini shilib, yangi soliq tizimini joriy etdi. Buxoro amirligi ham mustamlakachilarga to‘lashi lozim bo‘lgan soliqni xalqdan yig‘di.

Bunday mustamlakachilik zulmi tub aholini har tomonlama kamsitilishiga yo‘l ochgan. Birinchi o‘zbek kinorejissyori Sulaymon Xo‘jayevning “Tong oldidan” filmi, shuningdek, Abdulla Qaxxorning “Tomoshabog‘” hikoyasida Toshkent va boshqa shaharlardagi bunyod etilgan madaniyat va istirohat bog‘lariga mahalliy xalq vakillari kiritilmagani tasvirlangan. Rus bo‘lmaganlar gubernatorlikdagi bal va boshqa rasmiy marosimlarga yaqin yo‘latilmagan. Toshkent markazidagi sobiq chor tomoshabog‘ining oldida esa “Sartam i sobakam vxod zapreshayetsya” (“Sartlar va itlarga kirish taqiqlanadi”) yozuvi osig‘liq turgan .

Bir qator manbalarda chor amaldorlari cheksiz haq-huquqlarga ega ekanliklarini namoyish qilish maqsadida masjidga ham it bilan kirganligi bayon etilgan. Hatto Toshkent ko‘chalarida shu yerlik axolining milliy libosda yurishi taqiqlanib, o‘sha vaqtdagi yo‘lovchi tashish transportida ruslar bilan yonma- yon o‘tirmasligi uchun alohida o‘rindiqsiz joy ajratilgan. Shu o‘rinda tarix fanlari doktori Hamid Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” kitobiga murojaat etish o‘rinlidir. “Rus hukumati, - deb yozadi olim, - Turkiston o‘lkasini uch qismga bo‘lgan holda mustamlaka bo‘g‘uvida ushlab turardi. O‘lkani bu tarzda parchalashdan maqsad o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar va qoraqalpoqlarning birdamligiga va katta bir oilaga birlashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni ko‘zlagan xolda bosqinchilar milliy nizo urug‘larini sochib turdilar. O‘lkada rus tiliga davlat maqomi berilib, milliy tillar burchakka siqib qo‘yildi. Oqibatda rus tilini targ‘ib qilish va o‘rganish zarurati tobora kuchaydi. O‘lkada rus-tuzem maktablari ochildi. Ularga Rossiyaga sodiq kishilarni tarbiyalab yetishtirish vazifasi qo‘yildi.

Rus xukumati ruslashtirish va ulug‘ davlatchilikka asoslangan siyosat yurg’izdi. Bu haqda 1870-yilgi Rossiya xalq maorifi vazirligining ko‘rsatmasida: “Tub joy xalqlarni ruslashtirish maorifning asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim” deb ta’kidlangani ham guvohlik beradi.

Shuning uchun rus hukumati imkoni boricha milliy til va milliy madaniyatni rivojlantirishga ongli ravishda to‘sqinlik qilib, maktablar ta’minotiga mablag‘ ajratishni xayoliga ham keltirmadi».

Bosqinchilik zulmi bunday davom etishi xalqning sabr kosasini to‘ldirib yubordi. Shu bois joylarda mahalliy millat vakillarining noroziligi kuchaydi. Dastlab 1856-yili Sirdaryo viloyatida xalq ko‘tarilgan bo‘lsa, 1864-yili Yettisuvda dunganlar, 1869-yili Samarqandda tub axoli bosh ko‘tardi.

Bunday xalq g‘alayonlari aytish mumkinki, bir-biriga ulanib tursada, chor armiyasi tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilaverdi. Uning faol ish tirokchilari dorga tortildi, Sibirga surgun qilindi. “Russkiy invalid” jurnalining 1898-yilgi 127-sonida keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, birgina Andijondagi Dukchi eshon qo‘zg‘oloni bostirilgandan keyin uning qatnashchilaridan 777 kishi xibsga olinib, bor-yo‘g‘i 32 kishi oqlangan. 380 kishi o‘lim jazosiga hukm qilinib, 1 kishi umrbod qamoq jazosiga, 3 kishi esa tarbiya lageriga yuborildi. Nadomatlar bo‘lsinki, jurnal bu baxti qarolarning ma’lum bir qismi oq podsho “marxamatiga” muyassar bo‘lgani xususida yozgan. Ammo tergov jarayonida qanchadan - qancha begunohlarning kaltaklanganligi, qiynoqlar ostida o‘lganligi, rus ma’muriyatining buyrug’i va sud hukmi bilan Qutchi, Tojik va Qashqar qishloqlaridagi tub axoli ko‘chirilib, ular yashagan uylar kultepaga aylantirilgani borasida lom-mim demagan. Bundan tashqari, qo‘zg‘olonchilarga madad bergan Mingtepa va Andijon oralig’idagi 29 qishloqni yer bilan yakson qilish masalasi ham o‘rtaga qo‘yilgan. Ammo bosqinchilar “marxamat”i bilan “atigi” 700 xonadondan iborat besh qishloqning kuli ko‘kka sovurilgan. 1898-yil 12 iyun kuni Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olonchilarni dorga osish chog’i nochorlik azobini tortayotganlarni tahlikaga solish maqsadida tinch axoli jazo maydoniga majburan to‘planadi. O‘limga hukm qilinganlar yig‘ilganlarning ko‘z o‘ngida qatl qilinib, qabrlari toptaladi. Betofiq chor korchalonlari xunrezlikni bir umr yodda saqlab qolish uchun hatto yosh go‘daklarni ham o‘limga tik boqishga majbur qilishgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda yuzaga kelgan vaziyat mahalliy aholining erk va o’zodlik uchun kurashgan xalqni tashvishga solmasdan, o’ylantirmasdan qolmadi.

Bu davrlarda Turkiston aholisining 95 foizini tub mahalliy aholi vakillari tashkil etardi. Ularning ijtimoiy rivojlantirish, ozodlik va erk, o’zlarini haq-huquqlarini mustahkam himoya qilishni, ularda demokratik

tushunchalarni shakllantirishda Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq), Ahmad Donish, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy, Ubaydulla Solih Zavqiy, Avaz O'tar, kabi birinchi yo'nalishdagi ijodkorlarning hissasi beqiyosdir. Ular o'zlarining yaratgan asarlari orqali qaramlik ostida qolgan Turkiston xalqini qiyinchilikdan olib chiqishga harakat qildilar.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mahalliy xalq ziyolilari Yevropaning Turkiya, Germaniya, Eron, Rossiya kabi taraqqiy etgan mamlakatlariga tez-tez safar qilib turdilar. Sayohat davomida allomalar boshqa davlatlarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hamda ta'lim sohasidagi olib borayotga islohotlariga e'tibor qaratadilar. Bu ning natijasida o'lkaga qaytga ziyolilar keyinchalik o'zlarini jadidlar deb ataydilar. "Jadid" arabcha so'z bo'lib, yangi uslub, yangicha tafakkur degan ma'nolarni bildiradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki jaded ulamolari bu davrda diniy va dunyoviy bilim egalari edi.

Jadidlikning paydo bo'lishi va rivojlanishida G'arb va Sharq davlatlarida yuzaga kelgan demokratik va milliy-ozodlik harakatlarining ta'siri katta bo'lgan. Bulardan, Rossiyada XIX asrning oxirlaridan boshlanib, 1917-yil fevrali oyida g'alabaga erishgan sotsial-demokratik harakati, Sharq mamlakatlari ichida Hindistondagi mustamlakachilikka qarshi 1905-1908-yillar harakati, Turkiyadagi 1908-yil inqilobi, Erondagi 1905-1911-yillar konstitutsiyaviy harakatlaridir.

O'rta Osiyo hududlarida Jadidlik harakati yuzaga kelishida qrimlik ma'rifatparvar Ismoilbey Gaspirali (1851-1914)ning qarashlari va g'oyalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Gaspirali Rossiyaning ko'plab shaharlari, Vena, Istambul, Shtutgart, Myunxen kabi shaharlarda bo'lib, Fransiyaning Sorbonna universitetida o'qiydi. Rivojlanish borasida nafaqat musulmon Sharqidan, hatto Rossiyadan ham ancha ilgarilab ketgan Yevropa Gaspiralining dunyoqarashini o'zgartirishga alohida ahamiyat kasb etadi. 1881-yilda chop etilgan "Rossiya musulmonlari" kitobida Gaspiralining quyidagi g'oyaviy qarashlari imperiya ma'muriyati musulmonlarni taraqqiyotdan, ilm-fandan uzoqda tutayotganligi, musulmonlarning dini, turmush, va tilini o'zgartirish, musulmonlarning ta'lim tizimi zamon talabidan orqada qoldirish, imperiya manfaatlaridan kelib chiqib ularning turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini saqlab qolish kerakligi, aks holda, ular o'zligini yo'qotishi katta harakatlarni olib borgan.

Tabiiyki, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga qarashli musulmon hududlar bilan

yaqin a’loqalari saqlanib qoldi. U yerdan Turkistonga Boxchasaroydan “Tarjimon”, Astraxandan “Idil”, Bokudan “Taraqqiy” va “Ittifoq” gazetalari, Qozondan “Vaqt” va “Yulduz”, Tiflisdan “Mulla Nasriddin”, Orenburgdan “Sho’ro” va “Chuquch”, kabi jurnallar kelib turar edi. Ushbu junallar orqali yurtimiz ziyolilari o’lkada milliy marifaatni tarqatish, yangi maktablar tashkil etish va ularda o’qitish mexanizmlarini yaratish kabi ko’plab g’yalarni o’zlashtirganlar.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan omillarning barchasi Turkistonda jadidlik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi, albatta. Shu bilan birga, aytish joizki, Turkistonda jadidlik, ya’ni taraqqiyparvarlik harakatiga Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdurauf Fitratlar asos soldilar va bu harakatga rahbarlik qildilar. Jadidlar nafaqat milliy maorifni isloh qilish, balki XX asr boshlarida Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining kuchayishida ham muhim rol o’ynadilar.

Jadidlik harakatining Turkistondagi taniqli vakillari orasida Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo’jayev, Abdulla Avloniy, Toshpolatbek Norbo’tabekov, Karim Norbekov, To’lagan Xo’jaumarov (Tavallo), Shokirjon Rahimiy, Abdulrauf Muzaffarzoda, Muhammad Poshshaxo’jayev, Ashurali Zohiriy va boshqalar bor edi. Jadidlar XIX asr oxirlaridan boshlab o’z g’oyalarini hayotga tatbiq etish va xalq ta’limining yangi tizimini yaratishga harakat qildilar. Ular taraqqiyparvar ulamolar, mulkdorlar yordamida bir qancha “usuli jadid” -yangi usuldagi maktablarning keng tarmog’ini tashkil qildilar. Bu maktablarda diniy fanlardan tashqari geometriya, arifmetika, mantiq, ona tili, tarix, ashula, geografiya, jismoniy tarbiya o’qitilar, shuningdek, rus, arab va fors tillari o’rgatilar edi. Dastlab bu maktablarda o’qitish jarayonida tatar va ozarbayjon ma’rifatchilarining darslik hamda qo’llanmalaridan foydalanilgan bo’lsa, maorifni isloh qilish harakati rivojlanishi bilan jadidlar o’z darslik va o’quv qo’llanmalarini yozib, chop etish ishini yo’lga qo’ydilar. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy “Alifboi maktabi islomiya”, “Madhali jug’rofiya umroni”, “Kitob ul-Atfal” darsliklari, Buxoro, Xiva va Turkiston xaritalarini tuzdi. A.Shakiriy Firdavsiydan Krilovgacha bo’lgan jahon adabiyoti klassiklarining qisqa, biroq ibratli hikoyalaridan tuzilgan “Rahnomai Savat (Bolalarga nasihatlar), “Havoiji diniya” (Diniy bilimlar), “Jamul hikoyat” (Hikoyalar to’plami) kitoblarini yaratdi. Jadidchilik

harakatining namoyondalari haqida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tomonidan taqdim etilgan[4]. Turkiston jadidlarining yorqin vakillaridan biri Abdulla Avloniy yozgan “Adabiyot” va “Birinchi muallim” darsliklari 1917-yilgacha 4-5 marta qayta nashr qilindi. Jadid maktablari o’zining dastlabki davridayoq samarali ekanligini isbotlab, aholining e’tiborini qozondi va tez orada ko’payib bordi. Chunki bu maktablarda bolalar bir-ikki yilda to’la savod chiqarib, mukammal o’qish va yozishni o’zlashtirib olar edilar. Eski an’anaviy maktablarda buning uchun besh-olti yil o’qish kerak bo’lar edi. Shunga qaramay, aholini xurofotda saqlashdan manfaatdor jaholatparast ruhoniylar jadid maktablarining faoliyatiga qarshilik ko’rsatdilar. Rossiya imperiyasining mustamlakachi ma’muriyati esa vaziyatni qo’ldan chiqarmaslik uchun, 1908-yildan keyin bu maktablarni qattiq nazorat ostiga oldi.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog’liq g’oyalarni xalqqa etkazish, ularning madaniy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida o’z gazeta va jurnallarini nashr qilishga harakat qildilar. Matbuot nashrlari faqat dunyoda ro’y berayotgan voqealar haqida ma’lumot berib qolmay, ularga o’z munosabatirii ham bildirar edi. Jumladan, 1905-1907-yil voqealari, shahar dumasi va undagi Turkiston vakillari faoliyati, mahalliy aholi hayotidagi eski va zararli urf-odatlarni tanqid qilar, yosh avlodni o’qib-o’rgatish va tarbiyalash masalalariga ko’p e’tibor qaratar edi. Birinchi soni 1914-yil 1-aprelda nashrdan chiqqan “Sadoi Turkiston” gazetasi Turkiston aholisini g’aflat uyqusidan uyg’otib, asriy jaholatdan xalos etishning, madaniy-ma’rifiy uyg’onishning bosh targ’ibotchisi bo’ldi.

Jadid matbuotida tarixiy mavzular, xalqning milliy o’zligini saqlash va o’stirish, o’zbek tili masalalariga doir maqolalarga ham keng o’rin berilgan. Turkiston jadidlarining yetakchisi Mahmudxo’ja Behbudiyning “Turkiston tarixi kerak”, “Muhtaram yoshlarga murojaat”, “Til masalasi”, “Ikki emas to’rt til lozim”, “Duma va Turkiston musulmonlari” kabi maqolalarida xalq maorifi va milliy uyg’onishga doir masalalar ko’tarilib, ona tilining ahamiyati fors, arab va hamda rus tillarini o’rganish zarurligi, “Turkiston tarixi”ni yaratish payti kelgani, barcha taraqqiyparvar kuchlarni milliy uyg’onish uchun kurash, milliy davlatchilikni tiklash uchun birlashtirish lozimligi uqtiriladi. Jadidlaming taraqqiyparvar qanoti tashabbusi bilan “Nashri

[4] Azizxo`jaev A.A., A`zamxo`jayev S.S. va boshqalar. Unutilmas siymolar (Jadidchilik harakatining namoyandalari) –T. Akademiya, 1999. –B. 16.

Maorif”, “Tarbiyayi atfol”, “G‘ayrat”, “Umid”, “Taraqqiyparvar”, “Barakat” kabi dastlabki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar tuzildi va ular Turkistondagi siyosiy hayotning faollashuvi, mustamlakachilik va chorizm hukumatiga qarshi kayfiyatlaming kuchayishiga turtki berdilar.

Nazorat savollari:

1. Jadidchilik harakati yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlar?
2. Rossiya imperiyasining O’rta Osiyo hududlarida mustamlakachilik siyosati?
3. Jadid milliy xalq maorif sohasini yuzaga keltirishdagi harakatlari?
4. Jadid matbuotning yuzaga kelishi?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Jadidchilik harakati, Ismoilbey Gaspirali, gazeta, jurnal, teatr, Ahmad Donish, Muhammad Aminxo’ja Mirzaxo’ja o’g’li Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqat, Avaz O’tar, Ubaydulla Solih Zavqiy, “Vaqt”, “Yulduz”, “Idil”, “Taraqqiy”, “Ittifoq”, milliy burjua harakati, Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo’jayev, Abdulla Avloniy.

Mavzuga oid test savollari:

1. Jadid so’zi qaysi tildan olingan?

a) eroncha
b) arabcha
c) forscha
d) turkcha

2. Turkiston jadidlari faoliyatini ular ilgari surgan g’oyalaming mazmun-mohiyati, maqsadlari, xususiyatlariga ko’ra ikki bosqichga bo’linib, birinchi bosqichi qaysi yillarga to’g’ri keladi?

a) XIX asr oxiridan 1917-yilgacha
b) 1917-yil fevraldan 1929-yilgacha
c) 1905-yilda 1917-yilgacha
d) 1917-yilda 1941-yilgacha

3. Jadidlar tomonidan sevib mutola qilingan “Tarjimon” gazetasi kimning muharirligida chop etilgan.

a) Ismoil Gaspirali
b) Munavvar Qori Abdurashidxonov
c) Mahmudxo’ja Behbudiy

d) Abdulla Avloniy

4. **“Alifboi maktabi islomiya” darsligining muallifi to’g’ri keltirilgan qatorni toping?**

a) Mahmudxo’ja Behbudiy

b) Abdulla Avloniy

c) Ismoil Gaspirali

d) Munavvar Qori Abdurashidxonov

5. Jadidchilikning eng muhim manbasi gazeta va jurnallar qaysi hududda chiqarilmagan?

a) Buxoro

b) Xiva

c) Turkiston

d) Farg’ona

2-Mavzu: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIK TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Reja:

1. Jadidlarning milliy davlatchilik tashkil borasidagi g'oyalari.

2. Milliy davlatchilik tashkil etish yo'lida amalga oshirilgan ishlar.

Jadidchilikning fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo'lib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun qurashdi va u milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, uykudagi Sharqni uyg'onishga va harakatlanishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va, umuman, mustamlaka tuzumning tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti o'z zamonasining haqikiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o'z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo'ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni tadrijiy-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o'zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo'qotishning maksimal darajada samarali yo'llarini tanlay bilgan-liklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning kontseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlar kursining genetik asosi bo'lib xizmat qildi. Tarixdan yaxshi ma'lumki, deb yozadi Behbudiy, "Haq olinur, berilmaydur. Har millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm taxdid qilmasun va bizni ham boshqalarga taxdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q"[5]!

Jadidchilik o'zidagi qaysi belgilari bilan favqulodda hodisa edi? Ularning jamiyatdagi inqiroz va mutaassiblikni shu darajada aniq ko'rishlariga, diniy, huquqiy va ahloqiy normalarga amaliy yondashishiga nima yordam berdi? Birinchidan, uning noyobligiga (fenomeni), avvalo, unda g'oyatda yuqori darajadagi aql-idrokli, ham Sharq, ham Yevropa madaniyatiga xos bilimlarga ega bo'lgan ziyolilar jamlanganligi bilan belgilanadi. O'tmishga nazar solib, uni o'rganib, o'z davrini tashkil qilgan jadidlar o'z Vatanining kelajagi loyihasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo'llarini rejalashtirdilar. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta'lim olganlari, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she'riyati, qadimgi Sharq

[5] Беҳбудий М. Танланган асарлари. -Т.: "Маънавият", 2009 йил. –Б. 17.

mutafakkirlarining falsafiy asarlari ruhida tarbiyalanganlari holda, o'z bilimlarini chet el madaniyati, jumladan, ham SHarq, ham G'arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar, albatta, bu narsa ularning boshqa davlatlarning turmush tarzi qonuniyatlarini o'rganishga itilishlari, ularning eng yaxshi ziyo urug'larini o'zlarining sermahsul va qadimiy madaniyat tuprog'ida qo'llash uchun o'rganish va tushunishga urinishlari edi. Jadidlar ongida madaniyatning yuqori darajadagi yutuqlari saralandi va uyg'unlashuvi yuz berdiki, uning asosida Turkistondagi taraqqiyotning maxsus shakllari mulohaza etilishi va ishlab chiqilishi ro'y berdi.

Jadidlarning siyosiy qarashlarini tasavur etishda 1913-yilda "Turkiston ovozi" va "Golis Turkistana" gazetalarida kutarilgan quyidagi uch masala ham diqqatni jalb etadi:

1. Sibir temir yo'lidan to Afg'oniston va Erongacha bo'lgan joyda yashayotgan butun yerli xalqlar bilan ruslar orasida huquq va soliqlar sohasida tenglikni vujudga keltirish;

2. Ko'chmanchi hayot kechiruvchi musulmonlarga qishloq va shaharlardan joylar bo'lib berilganiga kadar ko'chib kelayotgan ruslarga yer bermaslik;

3. Zamonaviy ma'rifatni tarqatish[6].

Ushbu masalalarning yo'nalishi rus davlatining ulug' millatchilik siyosatiga qarshi qaratilganligi jadidlarning milliy ozodlik xarakatidagi eng axamiyatli qarashlaridir. Rus davlatining maorif va madaniy sohadagi siyosati o'zbek va boshqa tub aholini savodsizlikda va qoloqlikda saqlashga, umumjahon taraqqiyotidan mahrum etishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham xalk ommasi ma'naviy jihatdan qashshoqlashdi. Mana shunday reaktsion siyosatga qarshi o'laroq jadidlarning ma'rifiy va ma'naviy chiqishlari yuzaga keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi sharoit jadidlarning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini belgilagan edi. Bu tarixiy ahamiyatga molik g'oyalar milliy burjuaziya, ruhoniy va umuman mahalliy yuqori tabaqaning ilg'or vakillarini ham qamrab oldi. Vatanparvar jadidlarning asosiy maksadlaridan birinchisi milliy istiklol bulsa, ikkinchisi, milliy tarakkiyot bulgan. Zero, Munavvar kori, Fitrat, Cho'lpon singari erksevar jadidlarning aytganidek, "oyogida hatto oltin kishan bilan yashovchi xalk ham mute xalqdir". Shuning uchun, jadidlar avvalambor uz oldilariga mudrok xalqni uyg'otish, ular qalbiga istiqlol orzusini payvandlash vazifasini qo'ydilar.

[6] "Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash". – Toshkent 1999-yil. –B. 52.

Shunday qilib, Turkiston Muxtoriyati millatlarini o’z taqdirini o’zi belgilash masalasini demokratik yo’l bilan hal etishga bel bog’lagan xalq irodasi va ilg’or ziyolilarning ko’tarinki xatti-harakatlari zaminida vujudga keldi.

Demak, jadidchilik ongli harakat kuchlar nisbatini to’g’ri hisobga olgan holda o’zining bosh strategik maqsadi, Vatanni ozod qilish, millatni ijtimoiy g’aflat uyqusidan uyg‘otish va jamiyatni taraqqiy ettirish uchun maktab, adabiyot, ma’rifat, maorif, matbuot va madaniyatdan taktik yo’l sifatida keng foydalandi.

Jadidchilik harakatining maqsad va mohiyati uning shioridan ham ma’lum. O’z davrida millatga ma’naviy-mafkuraviy ota bo’lgan Munavvarqorining ko’rsatishicha, jadidlarning eng yaxshi ko’rgan shiori “Ozodlik, Tenglik va Adolat” bo’lgan.

Shunga qaramay jadidlar, jadidchilik ongli madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, mustamlakachilikka qarshi antifeodal va demokratik harakat bo’lgan edi.

U ijtimoiy adolat, tenglik va ozodlik uchun istiqlol bayrog’ini baland ko’tarib kurashdi. Vatan va millatning ozodligi uchun kurashda yengildi, biroq tarixda ibratli tajriba qoldirdi.

Nazorat savollari:

1. Jadidlarning milliy davlat tashkil etishdagi asosiy g’oyalari qanday?
2. Jadidlar milliy davlat tashkil etish borasida olib borilgan amaliy tadbirlar?
3. Jadidlarning xalq orasida erkinlik va milliy ozodlik g’oyalarining tarqatilishi qanday omillar bilan bog’liq?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Jadidchilik harakati, milliy davlarchilik, milliy ozodlik, “Vaqt”, “Yulduz”, “Idil”, “Taraqqiy”, “Ittifoq”, milliy burjua harakati, jaded matbuoti.

Mavzuga oid test savollari:

1. 1911-yilda Afg’oniston, Hindiston, Makkai Mukarrama, Shom, Istambul kabi xorijiy mamlakatlarga safar uyushtirgan jadidni belgilang?

a) Hamza
b) Munavvar Qori Abdurashidxonov
c) Ismoil Gaspirali

d) Abdulla Avloniy

2. “Xurriyat berilmas olinur” fikrini kim aytgan?

a) Abdulla Avloniy
b) Cholpon
c) Ismoil Gaspirali
d) Hamza

3. “Xaq olinur berilmas” fikrini kim aytgan?

a) Abdulla Avloniy
b) Hamza
c) Ismoil Gaspirali
d) Munavvar Qori Abdurashidxonov

4. 1881-yilda Turkmanistonni kim bosib olgan?

a) Stoletov
b) Skobelev
c) Golovyachov
d) Lazarev

3-Mavzu: JADID MILLIY XALQ MAORIFI

Reja:

1. **Yangi usul maktablarining tashkil topishi.**
2. **Jadidlar tomonidan maktab ta’limni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilgan ishlar.**
3. **Rus-tuzem maktablari va milliy ziyolilarimizning unga bo’lgan munosabatlari.**

Turkiston jadidlari o’zlarining dastlabki faoliyatlarini ma’rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka etaklashdek muqaddas g’oya mavjud bo’lsada, jadid ziyolilarning mavjud sharoitda unga etishning iloji yo’q edi. Unga faqat tinimsiz ma’rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan etuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu munosabat bilan ular asosiy e’tiborni mahalliy xalq bolalari ilg’or fikrli, bilimli kadrlar tayyorlashga harakat qildilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat yo falokat masalasidur”[7] - deb aytishi bejiz emas edi. Shu sababdan ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun maktab-maorif ishlarini yaxshi yo’lga qo’yishni va yosh avlod ta’lim-tarbiyasini birinchi navbatdagi masala, deb bildilar. Shu maqsad yo’lida o’tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda, yangi usul maktablari ochish uchun harakat boshladilar.

Bunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan Rossiy imperiyasi ma’murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o’zining tor dunyoqarashi va nuqtai-nazaridan baho beruvchi kishilar to’sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma’murlar nazaridan chetda qolmagan. XX asr bo’sag’asida o’lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo’lishi ham ularni g’oyatda tashvishga sola boshladi. Yangi usul maktabi dastavval Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma’rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u “usuli savtiya tadrijiya” (“rivojlanuvchi tovush usuli”) maktabi deb atalgan. Mazkur maktab - musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xat-savod o’rgatgan va yangilik g’oyalarini ilgari surgan o’quv yurti hisoblangan.

[7] I.A.Karimov**.** Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil. –B. 79.

Ismoilbek Gasprinskiy Turkiya va Fransiya universitetlarida ta’lim olgan va Jazoir, Misr, Tunis, Gretsiyada davlatlarida sayohatda bo’lib, Gasprinskiy turkiy xalqlar tarixi va adabiyotini o’rganib, G’arb bilan Sharq olamini taqqoslash imkoniyatiga ega bo’lgan. Shu asnoda yuqorida keltirilgan maktabda dastlab unda 12 bola tahsil oldi. Qirq kunda ularning savodi chiqdi. Bolalarning ota-onalari va chetdan kelgan odamlar imtihon qildilar. O’qitishda a’lo natijaga erishilganligi e’tirof etildi. Bundan ilhom olgan muallif “usuli jadida” maktablari uchun to’rt qismdan iborat “Xo’jai sibiyon” (“Bolalar muallimi”) nomli ilk darslikni yaratdi. Darslik bir qator turkistonlik ma’rifatparvarlarning ham diqqatnni tortdi. Undan andoza olib, yangicha usuldagi bir qator darsliklarni yaratdilar. Bu albatta, Ismoilbek Gasprinskiy nufuzining o’zbek ma’rifatparvarlari orasida beqiyos darajada oshib borayotganligidan dalolat edi.

XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining qanot yozishida Rossiya, Turkiya va Eron inqiloblaridan tashqari, Qrim va Volgabo’yi tatarlarining matbuoti, birinchi navbatda, Ismoilbek Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi muhim ahamiyatga molik. Matbuotning taraqqiyparvar kishilar qo’lida qudratli qurol ekanligini, Rossiya imperiyasi sezgan.

Ismoilbek Gasprinskiy “Tarjimon” ro’znomasida bir qator maqolalar bilan chiqib, millat erkini, o’zligini tiklash g’oyalarini targ’ib qildi. Bu jihatdan olganda, “Muallim”, “Mehnat va taraqqiyot” maqolalari ancha ibratli bo’lib, unda ingliz, frantsuz maorifi, iqtisodiyotidagi ayrim tomonlar talqin etiladi va ulardan ibrat olishga chaqiriladi. Albatta, ro’znomadagi hur fikrlar chor amaldorlari g’azabini keltirsada, musulmonlarning ma’lum darajada aql ko’zlarini ochdi. Uning yangi o‘qitish usullari nafaqat Qrimda, balki Tatariston, Qozog‘iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.

1893-yilda Gasprinskiy Turkistonga birinchi sayohatini amalga oshiradi va sayohat bahonasida mahalliy musulmon ziyolilari bilan tanishish hamda ular orasidan o’z maslakdoshlarini topishni; “Tarjimon”ni o’lkada keng targ’ib qilish va yangi obunachilarga ega bo’lishni; yangi usul maktabi ochishni rejalashtiradi[8].

Gasprinskiy birinchi Turkistonda keyin esa Buxoroga borib u erda yuqori martabalari amaldorlari: devonbegi va Qozi Kalon bilan

[8] https://daryo.uz/2021/03/21/ismoil-gasprinskiy-jadidchilik-harakatining-asoschisi

uchrashadi. U vaqtda Buxoroning barcha ta’lim muassasalari qozi kalon tasarrufida edi. Buni bilgan Gasprinskiy imkoniyatdan foydalangan holda qozi kalonni ta’limning yangi usuli bilan batafsil tanishtiradi va o’zining “Hojai sibyon” darsligini hadya qiladi. Qozi kalon Gasprinskiy taqdim qilgan yangi ta’lim usul juda samarali va foydaliligini ma’qullaydi. Gasprinskiy Buxoroda 4 kun bo’lgach Samarqadga yo’l oladi va tashrifi davomida yangi maktab ochishga muvaffaq bo’ladi. Maktab norasmiy tarzda ochilishiga qaramay xalq orasida tez shuhrat qozondi.

Ayni shu vaqtlarda Samarqandga etib kelgan taniqli pedagog, bokulik Majid G’anizoda (1866-1937) Gasprinskiyga hamroh bo’ladi. Safar so’ngida Majid G’anizoda Gasprinskiyning iltimosiga binoan Samarqandda 40 kun qolib yangi usul maktabida dars berish bilan bir qatorda mahalliy muallimga usuli jadid asoslaridan ham saboq beradi.

Gasprinskiyning maktab ta’limi sohasidagi faoliyati Rossiya ichki ishlar vazirligining 1900-yil 31-dekabrda Turkiston o’lkasiga yuborgan 13444-raqamli “mutlaqo maxfiy” farmoyishida yaqqol ko’zga tashlanadi. Unda hukumat gubernatorlari ogoh bo’lishga da’vat qiladi: keyingi vaqtlarda tatar adabiyoti va matbuotida 14 millionli rus musulmonlarining ko’p asrli turmush tarzini izdan chiqarish xavfiga sabab bo’luvchi ruh paydo bo’lganligi sezilmoqda. Bu ruh tatarlar hayotida katta burilishga tayyorgarlik jarayoni kechayotgani haqida taxmin qilish imkonini beradi[9].

Vazirlik e’tiboni Gasprinskiy faoliyatiga, yangi usuldagi maktablarga, uning darsligi asosida ona tilini o’qitish masalasiga qaratadi. Tatarlar, deyiladi farmoyishda, islomiylik va turkiylik zaminida taraqqiyot uchun intilmoqda. Shuning uchun politsiya departamenti bu harakatni har tomonlama o’rganib, shu sohada faoliyat ko’rsatayotgan mualliflar, ularning maqolalari, “yosh turklar" bilan aloqasi, chet-el markazlarida, ayniqsa, Turkiyada ulami kimlar rag’batlantirayotgani, kimlar tomonidan va qayerda yangi usul maktablari ochilgani, kimlar bunday maktablarda dars berayotgani, kimlar bu maktablarga rahbarlik qilayotgani kabi masalalar haqida keng ma’lumot so’ragan.

Dastlab, Xorazmda Muxammad Raximxon Soniy va Mirzaboshi Komil Xorazmiy rahnamoligida usuli jadid maktablari ochila boshladi. 1891-yilda ulug’ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq

[9] Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 21.

o’rtasida katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o’quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda geografiya, tarix, xisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohda o’quv predmeti sifatida o’qitildi. Qozondan maxsus o’qituvchi chaqirilgan edi. An’anaviy maxalliy qadim maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni xatto Muxammad Raximxon kelib ko’rdi, o’g’li Asfandiyorni shu maktabga o’qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o’quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag’ ajratdi. Bundan tashqari ushbu maktabda jadidchilik rahnomalarida Sayid Islomxo’ja, shoir va mutafakkir Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komiy Xorazmiy o’g’li), Ahmad Tabibiy va Avaz O’tar o’g’li shu maktabda rus tilini o’rganishgan.

1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo’minxo’ja Vobkendiy va G’ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan Yangi usul maktabi ochildi. O’zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo’qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o’zbeklar bu davrda bunday maktablarni “no’g’oy maktab” deb atagan[10].

1898-yili Xivada Orenburglik muallimlar Maxmud Vafo va Abduraxmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” maktabi ochildi. 1904-yil noyabr oyida Muxammad Raximxon farmoniga muvofiq Urganch shaxrida “usuli savtiya” usuliga asoslangan jadid maktabi ochiladi, Kozondan taklif etilgan pedagog Xusayn Kushaev muallimlik kiladi, o’quvchilar soni 45 nafarga etadi. Aynan shu yilda Xiva xonligida 1904-yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xo’jayli, Qo’ng’irot, To’rtko’l, Gurlan va Shovotda ham yangi usul maktabilari ochishga erishildi. Bu maktabda Xusayn Qo’shaqov bilan birgalikda Komila Qo’shaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar o’qituvchilik qildilar. 1906-yilda esa ota-onalar, marifaatparvarlarning taklifiga muvofiq Urganchda huddi shunday maktab qiz bolalar uchun ham ochiladi. Muallim etib uning rafiqasi Komila Kushayeva tayinlanadi. Ushbu maktabni Muxammad Rahimxon borib ko’radi,

[10] Қаранг: Абдурашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. –Т.: Марказий Осиёни тадқиқ қилиш француз ииститути, 2008. –Б. 41-56.

ta’lim-tarbiya ishlarining yangicha yo’lga qo’yilganligidan mamnun bo’lagan[11].

Namangan hududida 1907-yilda yangi usul maktabi tashkil etilib, bevosita mashhur o’zbek ma’rifatparvari Ishoqxon Junaydullaxo’ja o’g’li Ibrat nomi bilan bog’liq bo’ldi. To’raqo’rg’onga taklif etilgan Husayin Makaev Ibrat tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktabida mahalliy aholi bolalarini o’qita boshlaydi. Yangi usulda tashkil etilgan maktabda uning faoliyati tezda o’z samarasini berib, mahalliy aholi bolalarining savodi chiqadi. Bu hol uning obro’sini yanada oshishiga sabab bo’ladi. Isoqxon Ibrat Husayin Makaevning faoliyatiga quyidagicha baho beradi: “Qozon tarafindan bir muallim jalb etub, maktab qilib berdim. Maktabning qushodig’a (tashkil bo’lganiga) uch oy bo’lg’ani yo’q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o’n beshta odamlar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg’an bo’ldilar” deya fikr bildiradi. Husayn Makayev va Abdulrauf Shagidullin birgalikda Namanganda maktab uyushtirib, o’zbek va tatar bolalarini o’qitib, ta’lim sohasiga katta hissa qo’shadilar.

Namanganlik marifatparvarlar ta’lim berish sohasida yuqori natijalarga erishgan. Bu haqida o’sha yillarda o’qituvchilik qilib nafaqaga chiqqan Yo’ldosh Najmiddinov o’z esdaliklarida quyidagilarni yozib qoldirgan: “1910-yillarda Namanganda yangi maktab tashkil bo’ldi. Dastavval Husayn Makayev degan tatar kishi kelib, yangi usuldagi maktab ochganda, shaharda duv-duv gap tarqaydi: Makayev degan tatar kelib, yangi usulda maktab ochib, to’rt yilda o’qish va yozishni, hisobni o’rgatib, mulla qilayotganmish. O’qigan bolalardan bir so’m pul olar emish. Bolalarni urmasdan, odobli qilib o’qitarmish” deya ma’lumotlar keng yoyildi.

1911-yilga kelib o’lkada Yangi usul maktablar soni 63 taga, ular o’qiydigan bolalar 4100 nafarni tashkil etardi.

Buxoroda Usmonxo’ja Po’latxo’jayev tomonidan 1913-yilda ochgan yangi usul maktabi anchagina shuhrat topgan. Hamidxo’ja Mehriy ham Hovuzi Arbob guzarida yangi usul maktabini tashkil etgan. Poyi ostona guzarida Mullo Vafo nomli mudarris jadid maktabi ochib, rus va fors tilidan dars bergan. Xiyobon guzarida Mirza Ismoilning ukasi tomonidan kattalar uchun savod chiqarish maktabi tashkil etilib, unda ilm ixlosmandlari xat-savod, hisob va jug’rofiya fanlaridan saboq olgan.

[11] Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 43.

“Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarining “1914-yillardagi hollar va maktablar” bo’limida yozilishicha, 1914-yilga kelib Usmonxo’janing maktabida taxminan 200 nafar, Hamidxo’ja Mehriy maktabida esa 100 nafar, Mukamiliddin Maxdum maktabida 50 nafar, Xiyobon guzarida joylashgan maktabda 40 nafar, Morkush guzaridagi maktabda 150 nafar, Mulla Vafo maktabida 80 nafar o’quvchi ta’lim olgan.

XIX asr oxiridan boshlab jadidlar tomonidan maktab ta’limni rivojlantirish bo’yicha salmoqli ishlar amalga oshiriladi.

Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o’qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o’tildi, yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik karta va o’qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o’qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta’limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e’tiroflar o’sha davr matbuotida ham o’z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo’lib, 1 chi sinfda bolalarga o’qish va yozish, 2 chi sinfda tajvid, hisob, 3 chi sinfda esa ibodati islomiya, sarfi turkiy o’rgatilgan. 1900-yil may oyida Otabek qozi ishtirokida ushbu maktab o’quvchilaridan imtihon olingan[12]. O’quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekovning yozganidek: “...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma’lum va ravshan bo’ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to’g’ridur...”.

Yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o’quv rejasi, dasturi bo’lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o’quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Masalan, A. Shukuriy o’z maktabining 1 va 2 bosqich sinflari uchun o’quv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham o’qitilgan. Alifbe kitobi bilan “Alifboyi Qur’oniy” ham o’rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geometriya, arifmetika, geografiya, ayrim maktablarda 4-sinfdan rus tili ham o’qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi 2-bosqichli rus-tuzem maktabida o’tkazilgan va o’quvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan. Yangi usul maktablarida yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o’quv fanlaridan o’zbek tilida darslik, o’quv qo’llanmalari

[12] Қосимов Б. Маслакдошлар (Бехбудий, Ажэий, Фитрат). –Т.: Шарк, 1994. –Б. 73.

bo’lmagan. Muallimlar bu fanlar bo’yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo’llanmalardan foydalanishga majbur bo’lganlar.

Yangi usul maktablariga hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag’ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to’langan. Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o’tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur’on suralarini yod aytishni, o’zbek tilidan o’qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o’rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o’zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo’lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat Alifbe va o’qish kitoblarigina emas, o’zbek tilining qonunqoidalari yoritilgan “Turkcha qoida” va “imlo” kabi dastlabki o’quv qo’llanmalari yaratilgan[13].

Yangi usul maktablaridagi o’qituvchilarning ko’pchiligi madrasalarda tahsil olgan bo’lib, ba’zilari esa xuddi shunday maktablarni tamomlagan kishilar edilar. Darslar o’quv jadvali asosida, senzura ko’rigidan o’tgan darsliklar bo’yicha olib borilgan. Maktablarda o’quvchilar soni 50 tadan 145 tagacha etgan. Barcha maktablarda har oyiga o’qish uchun 50 tiyindan 1 so’m 50 tiyingacha haq olingan. Kambag’al oilalarning bolalari esa ba’zan to’lovdan ozod etilganlar.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e’tibor qaratilgan edi:

- sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;
- marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;
- 1 muallimda 3-4 sinf bo’lishi;
- dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so’ng 10 daqiqa tanaffus;
- juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta’til bo’lishi;
- dars zerikarli bo’lmasligi, bolalarni urish, so’kish mumkin emas.

Buxoroda Latif Xo’ja (Latif Xo’jayev) tomonidan ham Gavkushon mahallasida yangi maktab ochilgan. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo’lib, sinfda 3 ta globus, kitoblar, partalar, doska, o’quvchilarga beriladigan daftarlar bo’lgan. Bitta sinfda boshlang’ich ta’lim oluvchilar, ikkinchisida esa olti oy ta’lim olganlar o’qitilgan. Darslarni Usmonxo’ja va Mulla G’ulom Qodirali olib borgan. Maktablarga asosan ularning tashkilotchilari, ayrim hollarda boy-badavlat kishilar homiylik qilgan. Bundan tashqari,

[13] Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 57.

ota-onalar tomonidan beriladigan o’qish puli hisobidan ham maktablar ta’minoti yo’lga qo’yilgan. Masalan, Mirzo Abdulvohid va Ayniy tashkil etgan jadid maktabida o’qish puli oyiga 3 so’mni tashkil etgan. Eski maktabda 6-10 yil o’qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o’qitilgan. Sadriddin Ayniy ta’kidlaganidek, ushbu maktablar “ni (yarim) isloh maktablari” edi.

Munavvar Qori maktabida 1915-yilda 150 ta o’quvchi bo’lgan. Shulardan 30-35 foizi kambag’allaming bolasi bo’lib, bepul o’qitilgan. Ular o’quv darsliklari va qurollari bilan bepul ta’minlangan. Qolganlari esa, o’qish uchun har oyda baholi-qudrat 50 tiyindan to bir yarim so’mgacha pul to’lagan. Ba’zi badavlat otalar 2 so’mdan ham berib to’rgan. Bir kunda 50 minutdan uch dars o’qitilgan. O’n minutdan bir saotgacha kichik va katta tanaffuslar joriy etilgan. Munavvar Qorining qo’lida ta’lim olgan yoshlar orasidan Hamza, Qayum Ramazon, Musa Toshmuhammad o’g’li Oybek, Mannon Uyg’ur kabi iste’dodli ijodkorlar etishib chiqishgan.

Munavvar Qori ham ayni paytda haftada o’zining 25 soatlik programmasini tavsiya qilgan. Shu soatlar asosida o’zi ham maktabda darslar o’tgan. Munavvar Qorining maktab uchun va musulmonlar uchun qilgan yana katta bir xizmati shundan iborat-ki, u shariatga doir manbalar bilan o’quvchilami o’z tilida o’qishini ta’minladi.

Amerikalik olim Edvard Ollvortning ma’lumotiga ko’ra, Munavvar Qori maktabidagi o’quvchilar o’qish va axloq asoslari darslarini yozib olish uchun haftada kushimcha 9 soat shug’ullangan. Shu 9 soat dan 4 soat Munavvar Qorining «Ikkinchi o’qituvchi» kitobiga bagishlangan. 1 soati So’fi Olloyor she’riyatiga ajratilgan. Darslar turk va fors tillarida olib borilgan. O’quvchilar 2 soat arifmetika, 2 soat geografiya, 1 soat tarix, jami 25 soat haftalik o’qigan. Yuqorida qayd etilgan Munavvar Qorining namuna maktabida Oybekning tahsil olganini Edvard Ollvort ham yozib o’tadi.

Yuqorida keltirilgan jadid maktablar asosiy qismi boshlang’ich bilim berish bilan shug’ullangan va ularda bilim berish o’zlarining ilmiy metodik imkoniyatlari doirasida tashkil etilgan. 1908-yildan boshlab jadidlar o’lkada o’rta ta’lim tizimiga asos solib, bu maktablar “Rushdiya” arabcha “rushd” so’zidan olingan bo’lib, “yetuklik”, “mukammal” ma’nolarini bildirgan.

Bunday maktablarni birinchilardan bo’lib Munavvarqori Abdurashidxonov tashkil etgan. Munavvarqori Shayxontohur mahallasida tashkil etgan “usuli jaded” maktabi qoshida birinchi ikki

yillik rushdiya maktabi ochadi va Abdulla Avloniyni xam unda ishlashga jalb qiladi, kuproq darsliklar yozishga davat etadi. Bu maktab “Namuna maktabi” nomi bilan katta shuhrat qozondi. Rushdiya maktabining asosiy maqsadi, birinchidan, Turkiston o’lkasida rivojlanib, faoliyat doirasi kengayib borayotgan usuli jadid maktablari uchun zamonaviy o’qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirish bo’lsa, ikkinchidan, iqtidorli, ilmga chanqoq yoshlarni taraqqiy etgan chet el oliy o’quv yurtlariga o’qishga yuborish edi.

Shu bilan birga, rushdiy sinfini bitirib chiqqanlar mahalla masjidlarida imom, savdogar boylarning qo’lida ish yurituvchi bo’lib ishlash hamda xorijda o’qish malaka-qobiliyatiga ega bo’ldilar. Buning uchun esa yoshlarning qiziqishiga ko’ra tabiiy fanlar, chet tillari (Evropa tillari)dan talab darajasida ma’lumotga ega bo’lishlari kerak edi. Rushdiya maktablarida, ayniqsa, tabiiy fanlarni o’qitish og’ir kechdi. Chunki matematika, fizika, kimyo, biologiya, ma’danshunoslik kabi fanlardan o’zbek tilida o’qituvchilar, darslik va o’quv qo’llanmalari yo’k darajada edi. Asosan, bu maktablarda o’quvchilar Qozon, Ufa, Orenburg shaharlarida nashr etilgan darslik va o’quv kitoblari asosida o’qitilar edi. Turkiyada chop etilgan darsliklardan o’qituvchilar yashirin ravishda foydalanardilar. Chunki general-gubernatorlikning 1909-yil farmoyishi to’rtinchi moddasida “Maxalliy maktablarda faqat Rossiya senzurasi ruxsati bilan nashr etilgan kitoblargina o’qitiladi”, degan maxsus tadbiq mavjud edi. Shu munosabat bilan jadid maktablari va ularda o’qitiladigan kitoblar qat’iy nazorat ostiga olingan edi.

Gubenatorlik ma’murlari huddi Gasprinskiy kabi Turkiston o’lkasidagi mahalliy ziyolilar faoliyatini, o’lkada kechayotgan madaniy, ma’rifiy, siyosiy ahvolni o’ganishni Nikolay Ostroumov zimmasiga yuklaydi. Chunki u o’lkada 1879-yildan buyon faoliyat yuritayotgan edi va Turkiston haqida juda ko’p ma’lumotlarni to’plashga ham ulgurgan edi. Ushbu farmoyishga binoan u “siyosiy jihatdan ishonchsiz” deb hisoblagan, jadid maktablarini targ’ib-tashviq qiluvchi maqolalar yozgan, yangi maktablar ochgan va ularda muallimlik, mudirlik qilgan Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy-Ajziy, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori va boshqalar haqida ichki ishlar vazirligiga ma’lumotlar yuborib turgan.

Vazirlikning yuqoridagi farmoyishi munosabati bilan Olmaota (Verniy) shahrida o’lka rus va rus-tuzem maktablari muallimlarining katta yig’ini bo’lib o’tdi. Bu haqda Mo’minjon Muhammadjonov quyidagilami yozadi: “Shul chog’da Tatariston, Ozarbayjon turklari

bizdan burun ko’z ochib, boylarining himmati bilan yangi maktablar, yangi o’rta, yuqori (oliy) madrasalar solib, ming-ming xalq bolalarini ko’zlarin Ovrupo bilimlari bilan ochmoqda edilar deya ma’lumot keltiradi.

Amerikalik tarixchi Edvard Ollvortning bildirishicha, Buxoro va Turkistonda jadid ziyolilari tomonidan ochilgan “Yangi usul” (zamonaviy) maktablari Chor Rossiyasi hukumatining o’lkadagi vakillari va musulmon qadimchilarining hukmron doira egalarini qo’rqitadi. 1910-1911-o’quv yilida Turkistondagi chor hukumati 50 dan ortiq “Yangi usul” maktablarini asossiz yopishlaridan ham mustamlakachilarning tashvishini yaqqol ko’rish mumkin.

Jadidlar yangi usul maktablarida o’quvchilarga faqat chet-eldan keltirilgan o’quv adabiyotlaridan tashqari o’zlari tomonidan ham o’quv qo’llanma va darsliklar chop etilgan. Bulardan Munavvarqori Abdurashidxonov “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912), “Er yuzi” (1916-1917), to’rt qismdan iborat “O’zbekcha til saboqlari” (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga) darsliklar muhim hisoblangan[14].

Maxmudxo’ja Behbudiy (1875-1919). Uning tashabbusi bilan Samarqanda yangi usul maktablari ochildi. Adib bu maktablar uchun 1904-1909-yillarda “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug’rofiyai umroniy”, “Risolai jug’rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Muxtasar tarixi islom” kabi darslik va o’quv qo’llanmalar mavjud bo’lgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934) ham jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo’lib tanildi. U o’zining zamondosh jadidlari, izdoshlari kabi yangi usul maktablari ochib, ularga o’zi mudarrislik qildi va darsliklar yozdi. Uning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darslik, “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” to’plamlari, ayniqsa, yuqori sinf o’quvchilariga darslik sifatida yozilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari (1913-yil).

Abdurauf Fitrat tomonidan 1909-yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asarida Buxoro amirligi idorasiga ma’lum islohot – o’zgarish kiritish g’oyasi va “Usuli jadid” deb nomlangan yangi maorif tizimining asoslarini ilgari surdi. Fitrat butun vujudi, otash va jo’shqin

[14] Ахмедов С. Йулбошчи. Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Т.: “Маънавият”, 2003. –Б. 18.

yuragi bilan, ijodi va faoliyati bilan mamlakat yoshlarini rivojlangan yangi dunyo tomon safarbar etadi.

Fitrat o'zining publitsistik maqolasida "Ittifoq etaylik" deya ochiqdan-ochiq chaqiriq sifatida namoyon etadi. Unga ko'ra "Oy Turkiston musulmonlari! Tangru uchun, payg'ambar uchun, din uchun, millat uchun keeling birlashylik, oramizdagi shahsiy tartishmalar va sinfiy ayriliqqa ko'z yumaylik deya" barchani birlashtirish orzusida o'z harakatlarini amalga oshiradi[15].

Yangi usul maktablariga nisbatan xalqning ishonchi ortib borishi sababi shuki, jadid mutafakkirlarining fors, arab, ozarbayjon, rus va tatar tillaridagi "Turkiston viloyatining gazetasi", "Osiyo", "Oyna", "Sadoi Turkiston", "Shuhrat", "Xurshid", "Taraqqiy", "Hurriyat" kabi gazeta hamda jurnallarda ozodlik, tinchlik va hurfikrlilik kabi mavzulardagi maqolalari xalq orasida tez tarqala boshladi. Shuningdek, jadidlar maktablarida ta'lim berishda yangicha metod va usullarini qo'llay bilishi xalq orasida jadid maktablarining mavqeyi oshishiga olib keldi.

Shuningdek, usuli jadid maktabdorlari har qanday to'siqlar, ta'qib na tazyiqlardan cho'chimadilar, ular o'z faoliyatlari doirasini kengaytirib bordilar Toshkent, Samarqand, Fargona vodiysi shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutafakkirlar bilan aloqa bog'ladilar, Qrim, Turkiyaga talabalar yuborish, o'z saflarini o'sib kelayotgan bilimli yoshlar hisobiga mustahkamlashga kirishdilar. Buxoroning ilgor kuchlarini birlashtirish zarzf, buning uchun jamiyat kerak edi. 1909-yilda Buxoro jadidlari - Axmadjon Xamdiy, Abdulvoxid Munzim, Mexriy, Sadriddin Ayniy, Xoja Rofe, Mukammal Burxon "Tarbiyai atfol" (Bolalar tarbiyasi) nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Bu jamiyatning sa'y-xarakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma'muriyatiga ilg'or yoshlardan kiritish va shu yo'l bilan davlat siyosiy tuzumida o'zgarishlar yasash ko'zda tutilgan edi. Jamiyatning birlamchi masalasi Buxoro o'quv muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan bo'lsada, oliy o'quv yurti xisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmli, malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning uchun "Tarbiyai atfol" jamiyati iqtidorli yoshlarni Orenburg, Ufa, Qozon, Bogchasaroy, Istanbul kabi shaharlarga o'qishga yuborishni birinchi vazifa sifatida

[15] Ro'zimova F.M. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jadidchilik harakati hamda "Yosh Xivaliklar" ning ma'naviy va ma'rifiy qarashlari. – Urganch. 2023. –B. 36.

belgiladi. Buning uchun mablag’ kerak edi. Xalq istiqboli, ma’rifati uchun jon kuydiruvchi mulkdorlar ham, iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari ham topildi. Jamiyatning katta sa’y-xarakati natijasida uning dastlabki yilidayoq bir guruh, yoshlar Istanbulga o’qishga yuborildi. Sadriddin Ayniy bu haqida quyidagilarni yozadi: “Ikmoli taxsil uchun Usmonxo’ja Po’latxo’ja o’g’li (1878-1968), uning birodarlari Atoxo’ja (1894-1938), Mazxar Maxzum Burxon Mahzum o’g’li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istambulga safar kildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste’dodlisi va eng fozili edi” .

Turkiyaga o’qishga kelgan yoshlar Istanbulda Abdurauf Fitrat boshchiligida “Tarbiyai atfol” jamiyatining “Buxoro ta’mimi maorif jamiyati” nomi bilan sho’basini ochdilar, sho’baning asosiy vazifasi Buxoro va Turkistondan Turkiyaga o’qishga kelgan yoshlarga ham iqtisodiy, xam ma’naviy yordam ko’rsatish edi. 1912-yilga kelib, Istanbul o’quv yurtlarida taxsil olayotgan Buxorolik va Turkistonlik talabalar soni 30 ga etdi. 1913-yilning baxorida Istanbulda o’qiyotgan bir guruh yoshlar Usmonxo’ja Pulatxo’ja o’g’li, Atoxo’ja, Fitrat, Xomidxo’ja vatanlariga qaytib keldilar[16]. Ular xam Buxoroda “usuli jadid” maktabi ochib ishga kirishdilar. Ularning sa’y-xarakati bilan “Ma’rifat kutubxonasi” ochildi. Bu kutubxonaning asosiy maksadi “usuli savtiya” maktablari kitoblar, darsliklar bilan ta’minlash edi.

1918-yilgacha O’zbekiston hududida 104 Yangi usul maktablari bo’lib, ularda 10343 bola o’qigan. Yangi usul maktablari 1918-1919-o’quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Shunisi muhimki, yuqoridagi ma’lumotlardan farqli o’laroq XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi maktablarning faoliyati o’zgacha bo’lib, u davrdagi bilim o’choqlari bugungisidan farqli ravishda maxsus davlat dasturi va yagona tizimga birlashtirilmagan edi. Ular hukumat vakillari, jadidlar, ziyolilar va diniy ulamolarning bu boradagi qarama-qarshi fikrlari doirasida tuzilgan edi. Shundan kelib chiqqan holda, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi maktablarni quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Eski usuldagi maktablar.
2. Yangi usul (jadid) maktablari.
3. Rus-tuzem maktablari.

Bevosita yuqoridagi 3 guruh maktablar faoliyatiga ta’rif beradigan bo’lsak, “Eski usul” maktablari o’zida o’rta asrlar qarashlarini aks etgan

[16] Қосимов Б. Маслакдошлар (Бехбудий, Ажэий, Фитрат). –Т.: Шарк, 1994. –Б. 30.

hamda, boshqa maktablardan farqli o’laroq asosan diniy mazmundagi bilimlarni bergan.

Yangi usul maktablari esa ta’lim jarayonlarida diniy va dunyoviy fanlar o’rgatilishi bilan farqlangan.

Rus-tuzem maktablari Rossiya imperiyasi O’rta Osiyoni egallagandan keyin o’lkaga ko’chib kelgan rus oilalari farzandlariga bilim berish va mahalliy millat orasida rus madaniyatni yoyish va mustamlaka ma’muriyatiga foydali kadrlarni yetishtirib chiqarish maqsadida tashkil etilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o’lkasida ruslashtirish siyosatining avj olishi o’lkadagi xalq ta’limi tizimiga ham o’z ta’sirini o’tkazadi.

O’rta asr musulmon maktablarini isloh qilishdan bosh tortgan chorizm ruslar o’rnashgan yerlarda rus maktablarini ochish va ularda mahalliy aholi farzandlarini o’qitish orqali Turkiston maorif sohasini o’z siyosatining quroli qilib olishga harakat qildi. Chunki, 1866-yilda Toshkentga ko’chib kelgan ruslarning bolalarini o’qitish uchun dastlabki rus maktabi ochildi. Mustamlakachilar rus bolalari bilan birga o’qish uchun mahalliy aholi bolalarini ham qabul qilar edilar. Turkistondagi bunday maktablar haqida hali musulmon tabaqalari orasida uncha tushuncha bo’lmasada, bu siyosat darajasidagi maxsus topshiriq edi. Bu orqali keying yillarda o’lkamiz hududidagi aholini ruslashtirish ishlarini jadallashtirishga va milliy o’zlikni asta-sekinlik bilan yo’qotishga intilish kuchaytirildi.

Turkistonda dastlabki rus o’quv yurtlari 70-yillarda ochila boshladi: 1876-yili Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, Verniyda (hozirgi Olmaotada) ham shunday gimnaziyalar, 1879-yilda o’qituvchilar seminariyasi ochildi.

Chorizm bosqinchilik siyosatini yuritar ekan, faqat so’zda musulmon o’quv yurtlarining ishiga aralashmaslik haqida gapiradi, aslida esa diniy maktabdagi bolalar sonini kamayatirishga bel bog’ladi. O’lkada rus-tuzem maktablari ochildi va yana qator tadbirlar yordamida musulmon maktablarining ta’siri doirasini kamaytirishga erishildi. Chor hukumatning diniy maktab va madrasalardagi o’quvchilar sonini qisqartirishga qaratilgan ruslashtirish siyosati qanchalik kuchli bo’lmasin, o’lka ma’naviy hayotida madrasalarning obro’si pasaymadi.

Rus-tuzem maktablarini tashkil etish dastlab Turkiston generalgubernatori K.P. fon Kaufman keyinchalik uning izdoshi generalleytenant N.O. Rozenbax davom ettirib Rus-tuzem maktablarim. tarmog‘ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Birinchi rustuzem maktabi

1884-yil 19-dekabrda Toshkentda ochilgan. Unda 41 bola o‘qigan. 1891-yil Xivada, 1894-yil Buxoroda ham ochilgan. Ularning soni XIX asr oxirida 100 dan oshgan. Rus-tuzem maktablarida ta’lim muddati 4 yil bo‘lgan. Rus-tuzem maktablari ruscha va mahalliy sinflarga bo‘lingan. Rus tili, o‘qish, yozish, hisob, geometriya, tarix, boshlang‘ich o‘zbek tili, arab tili va islom dini asoslari o‘qitilgan. Rus tili, hisob, yozuv, geometriya, tarix darslarini rus o‘qituvchisi, o‘zbek tili, arab tili, islom dini asoslarini o‘zbek muallimi o‘qitgan. Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), S.M.Gramenitskiyning 3 qismdan iborat o‘qish kitoblari rus-tuzem maktablari o‘quvchilarining asosiy darsliklari bo‘lgan. Ayrim rus-tuzem maktablari qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil qilingan. Keyinchalik 2 yillik va ayollar uchun ham rus-tuzem maktablari ochilgan. Rus-tuzem maktablari mahalliy aholining bir qismiga o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan madaniyat yutuqlaridan baxramand bo‘lish imkonini yaratgan.

Tarixchi E. Mirzaaliyevning “Namangan shahar xalq maorifi taraqqiyoti tarixidan” deb nomlangan risolasida rus-tuzem maktablarining tashkil qilinishiga oid bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Ya’ni, 1904-yilda Namanganda rus-tuzem maktabi ochilib, unga ayrim o’zbek bolalari kirib o’qiydi. Namanganda bunday maktablar ochilishi, idora ishlarini yaxshi yo’lga qo’yish, rus kishilarining mahalliy boylar va amaldorlar bilan bo’lgan savdo muomalalari ishini osonlashtirish maqsadida ochilgan deb ma’lumot beriladi.

Rus-tuzem maktablari o’sha zamon talablariga javob bergan maktablar bo’lib tanilgan. Mahalliy xalq bolalari o’qitiladigan sinflar uchun yangi darsliklar tutila boshladi: mahalliy aholi bolalari uchun nashr qilingan o’qish kitoblariga M. A. Krilov, A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, N. A. Nekrasov, L. N. Tolstoy, K. D. Ushinskiy asarlaridan namunalar (ertaklar, masallar va hokazolar) kiritilgan.

Nazorat savollari:

1. O’lkada jadidlarning maktablariga qarshi qanday maktablar ochilgan?
2. Jadidlar maktablarining o’ziga hos jihatlari nimalardan iborat?
3. Jadidlarning xalq orasida ta’limni rivojlantirish bilan bog’liq qanday chora-tadbirlarni amalga oshirgan?

4. Rus-tuzem va “Yangi usul” maktablarining farqi va afzallik taraflari qanday?

5. 1908-yildan boshlab jadidlar o’lkada qanday maktab tizimiga asos solganlar?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Jadidchilik harakati, Xo’jai sibiyon, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz”, “Idil”, “Taraqqiy”, “Ittifoq”, “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyiji diniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya”, “Risolai asbobi savod”, “Risolai jug’rofiyai umroniy”, “Risolai jug’rofiyai Rusiy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Muxtasar tarixi islom”

Mavzuga oid test savollari:

1. XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining qanot yozishida qaysi davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar sabab bo’lgan?

a) Rossiya, Turkiya va Eron

b) Turkiya, Eron va Pokiston

c) Rossiya, Turkiya va Angliya

d) Hindiston, Turkiya va Eron

2. Gasprinskiy Turkistonga birinchi sayohatini nechanchi yilda amalga oshirigan?

a) 1893-yilda

b) 1895-yilda

c) 1906-yilda

d) 1917-yilda

3. 1891-yilda Urganchada tashkil etilgan “Yangi usul” maktabi kimning nomi bilan bog’liq?

a) Avaz O’tar

b) Asfandiyorxon

c) Muxammad Raximxon Soniy

d) Komil Xorazmiy

4. Amerikalik olim Edvard Ollvortning ma’lumotiga ko’ra …… maktabidagi o’quvchilar o’qish va axloq asoslari darslarini yozib olish uchun haftada kushimcha 9 soat shug’ullangan.

a) Mahmudxo’ja Behbudiy

b) So’fi Olloyor

c) Munavvar Qori

d) Abdulla Avloniy

5. 1909-yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asari muallifi to’g’ri keltirilgan qatorni toping?

a) Abdulla Qodiriy
b) Abdurauf Fitrat
c) Cho’lpon
d) Munavvar Qori

6. Yangi usul maktablari qaysi o’quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

a) 1918-1919-o’quv yilidan
b) 1917-1918-o’quv yilidan
c) 1919-1920-o’quv yilidan
d) 1921-1922-o’quv yilidan

4-Mavzu: JADID MILLIY MATBUOTI

Reja:

1. **Milliy jadid matbuot tizimining yuzaga kelishi tarixi.**
2. **Jadid tomonidan gazeta va junallar tashkil etilishi.**
3. **Jadid matbuotida yoritilgan ijtimoiy-siyosiy masalalar.**

Ta’kidlash joizki, matbuotning milliy uyg’onishga da’vat minbariga aylanishning ham o’z tarixiy taraqqiyot yo’li bor. Turkiston matbuoti tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, mustamlakachilik davrida mustabid sho’ro tuzumi mafkurachilari tomonidan jadidlar faoliyati millatchilik g’oyasini ilgari surgan deb qoralab kelingan. Ular tomonidan tashkil etilgan gazeta va junallar doimiy holatda nazoratda bo’lib, erkinlik, aholini mustaqillik, milliy demokratik davlat tashkil qilish kabi, ta’lim olish, ezgu g’oyalar bilan yozigan maqolalar va asarlar rus hukumati tomonidan doimiy ravish taziq ostiga olingan.

Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o’zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish naqadar muhim bo’lsa, milliy matubot tashkili va taraqqiyoti ham shu darajada ahamiyatli edi. Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so’zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta’siri kuchli bo’lgan. Vaqtli matbuot odamlarning kundalik hayotiga faol aralashmog’i va olamdan xabardor bo’lmog’i uchun zaruratga aylandi. Doshlab gazetalar oyda bir bora bazo’r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma’lumotlar ma’naviy ehtiyoj tusini oldi.

Taraqqiyparvarlar xalq ommasini milliy urf-odatlarni yo’lga qo’yish borasida ham ma’rifatli bo’lishga chorlaganlar. Kundalik turmushimizda to’y-tomosha, ma’raka va yig’inlar alohida o’rin tutadi. Bularsiz kishilar turmushini tasavvur etish qiyin bo’lgan. Lekin asosiy masala ushbu marosimlarning qay yo’sinda o’tkazilishiga bog’liqdir. Millatimiz ichidan yetishib chiqqan taraqqiyparvarlar avvalo xalqni ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirishni maqsad qilib olgan. Albatta ma’naviy taraqqiyot iqtisodiy taraqqiyot poydevori ustiga quriladi. Keng ijtimoiy - milliy islohatlarni amalga oshirish uchun sarmoya kerak bo’lgan. Sarmoyani tashkil etishning birdan bir yo’li maishiy hayotdagi isrofgarchiliklarga barham berish orqali bo’lar edi. Shu bois jadidlar o’z maqolalari orqali hashamdor to’ylar, serharajat va sermashaqqat azadorlik marosimlari, to’y va azalarni riyokorlik, dabdababozlik bilan o’tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqdilar. Milliy ziyolilar kundalik

turmushga e’tibor qaratib, xususan, milliy to’ylar va ularning o’tkazilishiga doir qimmatli fikrlar yoritib berishgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlar o’zaro jadidlarning ikki asosiy maqsadlrini ro’yobga chiqaradi: birinchisi, xalqimizni dunyoning ma’rifatli millatlari darajasiga ko’tarish; ikkinchisi, Turkistonda demokratik davlat qurish. Ularning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarida bu ikki masala bir-biri bilan uzviy bog’lanib ketgan. Chunki millat bilimli bo’lishi uchun o’z yo’li bilan o’zgalarga tobe bo’lmay rivojlanishi lozim. Buning uchun esa xalqimiz eng avvalo ilm-ma’rifatli puxta egallashi kerak bo’lgan.

Bu masqasadlar yo’lida Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon va boshqa ko’plab jadid nomoyondalari o’z davrining buyuk daholardir. Ularning matbuot haqidagi qarashlarida hozirgi davr ta’lim-tarbiya sohasidagi qator muammolar o’z aksini topgan.

Millatning o’zligini ko’rsatadigan xususiyatlardan biri til va maorifdir. Bu ikkisi bo’lmasa, millat mustaqil bo’la olmaydi. Buni ziyraklik bilan anglagan Abdulla Avloniy shunday yozadi: “Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur. Hayhot! Biz Turkistonliklar milliy tilni saqlamoq bir tarafda tursin, kundan-kun unutmak va yo’qotmakdadurmiz”.

Taraqqiyparvarlarimiz targ’ib etgan g’oyalar bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ular xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatini yuksaltirish, xalqning o’z bilimiga, imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunishardi. Tabiiyki, har bir millat taraqqiy topmog’i uchun jahon ilm fan yangiliklaridan, umuminsoniy g’oyalardan foydalanmog’i kerak. Lekin, muhim bir shart bilan. Bu fikr va g’oyalar millatning qalbi va ongidan o’tmog’i, “milliylashmog’i” lozim. Jadidlar millat taraqqiyotinigina emas, yashash, hatto uni saqlab qolish kafolatini ham milliylikda ko’radilar.

Yutimizda milliy matbuot tizimining shakllanishi o’z davriga xos ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog’liq hisoblanadi. Dastavval jadidlarimiz tomonidan maorif sohasiga katta urug’u berilib, bu orqali yoshlarga zamonaviy ta’lim va tarbiya berishning ijtimoiy hususiyatlari tashkil etilgan bo’lsa, buning uchun ular o’qitishning yangicha metodlariga asoslangan o’quv darsliklari va adabiyotlar chiqara boshladilar. Ushbu o’quv adabiyotlar o’quvchilarga ilmiy va aqliy

rivojlanishiga ko’mak va dunyoqarashni boytishga, atrofda bo’layotgan voqea-hodisalarni tushunishga imkon yaratgan.

Endilikda jadidlar yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda, xalqni ma’rifatli qilishda hamda Rassiya imperiyasi tomonidan aholini milliy, diniy va etnik nuqtaiy nazardan kamsitish borasida amalga oshirilayotgan hati-harakatlarni yoritib berishning yangicha yo’li o’lkada huddi Yevropa va Osiyo davlatlarida bo’lganidek gazeta va junallar tashkil etish edi.

XX asr boshlari jahon tarixiga e’tibor qaratsak dunyo xalqlarida orasida ijtimoiy-siyosiy rangbarangliklarni ko’rishimiz mumkin. Hatto bu davrda Rossiya imperiyasi tashqi siyosatdagi muvofaqiyatsizligi va 1905-yilda Rossiya Yaponiya bilan bo’lgan urushda mag’lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj oldi va imperator barcha siyosiy kuch va guruhlarga erkinlik beruvchi manifest e’lon qilishga majbur bo’ldi. Manifestning asosiy nuqtalaridan biri so’z erkinligini joriy etilgan. Bu imkoniyatdan foydalangan turli xalqlar va jadidlarimiz asta-sekinlik bilan o’z matbuotlariga asos soldi[17].

O’lkamizga jadidlar tomonidan gazeta va junallar tashkil etilgunga qadar ham bu hududlarda birinchi 1870-yilda rus istilochilari tomonidan nashr etilgan mahalliy tildagi ilk bosma gazeta hisoblangan. Turkiston general-gubernatorligining nashri. “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining o’zbekcha varianti. Dastlab shu gazetaga ilova tariqasida chiqarilgan.

“Turkiston viloyati gazetasiga birinchi 1871-1883-yillarda general-gubernator tarjimoni Shohimardon Ibrohimov, 1883-yil boshlarida Muhammadhasan Chanishev, 1883-yil o’rtalaridan 1917-yilga qadar N.P.Ostroumov muharrirlik qilgan. Sahifalarida chor Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati targ’ib qilingan, mahalliy aholini Rossiya imperatori va uning Turkistondagi amaldorlari va hukumdorlarning farmonlarini so’zsiz bajarishga targ’ib qilingan. Gazetada davlatda amalga oshirilayotgan ishlardan tashqari, qishloq xo’jaligining muhim tarmog’lari paxtachilik va ipakchilik haqida hamda ilm-fanga oid ma’lumotlar e’lon qilingan.

Bundan tashqari gazetada jadid olimlari Furqat va Muqimiyning ma’rifatga undovchi she’rlari va hajviy asarlari bosilgan. Shuningdek, rus yozuvchilari I.A.Krilov, A.S. Pushkin, N.V.Gogol, I.S. Turgenev, L. N.Tolstoy asarlaridan ilk tarjimalar bosilgan. Lekin “Turkiston

[17] Фитрат А. Танланган асарлар, 3-жилд. –Т.: Маънавият, 2003. –Б. 221.

viloyatining gazetasi” musulmonlar hayotida muhim rol o’ynaganiga qaramay, o’ta konservativ va jadidchilikning har qanday ko’rinishiga “dushmanlik” ko’zi bilan qarar edi. Shu sababdan ham tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, ruslar tarafidan tahrir qilingan “Turkiston viloyatining gazeti”ni haqiqiy “musulmoncha” gazeta, deb hisoblashdan yiroqda bo’lganlar.

XX asr boshlarida Turkistonda “Turkiston viloyatining gazetasi”dan tashqari ziyolilar orasida Usmonli Turkiyasi, Eron, Hindiston, Misr va ayrim Yevropa mamlakatlarida nashr qilingan gazetalar keng tarqalgan. Bu holatga bir tarafdan rus va mahalliy hukumatlar tarafidan joriy qilingan pochta tizimi imkon yaratgan bo’lsa, boshqa tarafdan minglab Hajdan qaytayotganlar, savdogarlar va boshqa toifalarning turli mamlakatlardagi nashrlarni olib kelganligidir. Rus byurokratik apparati uchun senzura o’zgarmas qonuniyat bo’lishiga qaramay, mintaqaga olib kirilayotgan barcha nashrlar uchun to’liq to’sqinlik qilishdan ojiz edi[18].

XIX asrning so’nggi yillari va XX asrning boshlarida o’lkamisda “Turkiston viloyatining gazetasi”dan tashqari 1883-yilga Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan nashrga chiqarilgan “Tarjimon” gazetasi ham jadidlar orasida mashhur bo’lgan. Aynan “Tarjimon” gazetasini faoliyatini yoritish va obunachilarni ko’paytirish maqsadida Ismoilbek Gasprinskiy dastlab 1893-yilda Turkiston, Buxoro va Xiva hudulariga sayohat qilib ko’plab obunachilarga ega bo’lgan bo’lsa ikkinchi marotaba 1908-yilda aniq rejalashtirilgan maqsadlar asosida sayohatni amalga oshirigan bu sayohatlar orqali “Tarjimon” gazetasi faoliyatini yoritish va o’lkada Taraqqiyparvarlarimizga “Yangi usul” maktablarini ochishga ko’maklashish bo’lgan. “Tarjimon” gazetasining Turkistonda 200 dan ortiq obunachisi bo’lgan.

Ismoilbek Gasprinskiy va “Tarjimon”ning ilg’or qarashlari, jadidona ruhiyatli fikrlari barchaning yuragidan birdek o’rin olgan. Jadidshunos olim, professor Begali Qosimov “Tarjimon haqida o’rinli ta’kidlaganidek, “uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar”; Gasprinskiyga ergashar va “Tarjimon”ni e’zozlar edilar. “Tarjimon” gazetasi jadidlarimiz tomonida sevib o’qilgan va o’zlari tomonidan yuborilgan turli masalalarga oid maqolalari gazetada chop etilgan.

[18] https://2020/06/27/tarjimondan-sadoyi-fargonagacha-turkistonda-mustaqil-milliy-matbuotning-shakllanish-tarixidan

Turkistonlik jadidlar “Tarjimon”dan bir necha yil tinimsiz saboq oldi. So’ngra, 1906-yil 27-iyunda Ismoil Obidov muharrirligida birinchi o’zbek gazetasi “Taraqqiy” nashrdan chiqdi.

Turkistondagi bu yangilikni ham birinchi bo’lib “Tarjimon” tabrikladi. “Turkistonning bunday taraqqiyparvar bir gazetaga ko’pdan beri ehtiyoji bor edi”, deb yozdi. Biroq “jadidlarning eng suyukli va to’ng’ich gazetasi”ning umri qisqa bo’ldi. Ya’ni, gazeta nojoiz materiallarni chop etganlik aybi bilan 19 ta soni chiqqandan keyin sud tomonidan yopib qo’yildi. Gazetaning bir yillik obuna bahosi 5 so’m bo’lgan, bir donasi 50 tiyindan sotilgan. Gazeta to’rt sahifada chop etilib, unda e’lonlar ham bosilgan.

Shundan keyin Munavvar Qori tomonidan 1906-yilda “**Xurshid” gazetasi chiqarildi.** Bu gazeta ham “Taraqqiy” yo’nalishining davomchisi bo’lgan. Lekin Munavvarqori Obidiydan farqli o’laroq o’z maqolalarida Rossiya va qo’shni davlatlarda sodir bo’layotgan siyosiy voqealarni yoritishga ko’proq urg’u berdi. “Xurshid”ning gazetasida yoritilayotgan maqolalar yo’nalishi Gasprinskiyning siyosiy qarashlariga mos tushgan.

Gasprinskiy “Xurshid”ni “sof milliy” gazeta deb hisobladi va uning “Turkiston viloyatining gazeti”dan o’ta farq qiladigan “tili” bilan faxrlandi. Shu o’rinda Gasprinskiy Turkiston gazetalarining “tili”ni boshqalarga o’rnak sifatida ko’rsatish uchun “Xurshid” gazetasining birinchi sonidagi asosiy maqolani “Tarjimon”da qayta nashr qildi. “Xurshid” gazetasi yopilguniga qadar “Tarjimon” undan tahririyat nuqtayi nazariga mos keladigan ko’plab xabar va maqolalarni qayta nashr qilib bordi. Munavvarqorining gazetasi 1906-yil 13-noyabrga qadar “yashadi” va 10-sonidan so’ng hukumat uni “aksilhukumat yo’nalish”dagi nashr aybi bilan yopib qo’ydi[19].

1907-yil 2-dekabrdan o’lkamizda “**Shuhrat”** gazetasi chiqarila boshlagan. Gazetaga rasmiy muharrir Abdulla Avloniy deb yozilsada, ammo amalda unga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan. Gazeta haftada ikki marotaba chiqarilgan va unda chor hukumatiga qarshi qarshi maqolalar chop etilgan. Zamona talabiga javob beradigan kadrlar tayyorlash kerakligini targ‘ib qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tursunxo‘ja Homidxo‘ja o‘g‘li va Shoir Miskin Toshkandiylar gazetaning asosiy mualliflari sanalgan.

[19] https://2020/06/27/tarjimondan-sadoyi-fargonagacha-turkistonda-mustaqil-milliy-matbuotning-shakllanish-tarixidan

Shu yilda Saidkarimboy Saidazimboyev tarafidan **“Tujjor”** gazetasi nashr etila boshladi. Bu gazeta boshqa nashrlardan farqli o’laroq o’zini hukumatga qarshi bo’lmagan va Rossiya davlatchiligi tarafdori hamda dinga zarar keltirmaydigan gazeta deb e’lon qildi. Bunday dasturga ega bo’lgan “Tujjor” o’quvchilar orasida u qadar shuhrat topmadi va 36-sonidan so’ng obunachi yo’qligi sabab “o’z ajali bilan vafot etdi”. 1908-yil may oyida “Tujjor”ning yopilishi bilan Turkistonda milliy mustaqil matbuot faoliyati tugatildi. Bu ishda, ayniqsa, Chor hukumati jonbozlik ko’rsatdi.

1912-yilda 11-mart kuni Buxoro amirligi hududida Mirjalol Yusufzoda muharrirligi ostida **“Buxoroi sharif”** nashr qilingan. Sadriddin Ayniy “Buxoroi sharif” gazetasi haqida: “...birinchi sonidan boshlab o’qug’uvchilarning diqqatini o’ziga jalb qildi. Mirzo Jalol birinchi qalam egalaridan bo’lib, buning ustiga, ulumi islomiyaning usul va farvi’dan yaxshig’ina xabardor bir zot edi. Shuning uchun uning maqolalari umumga ta’sir qilar, zotan mustaid bo’lg’on Buxoro aholisi o’z tilida yozulg’on bu adabiy va sodda bandlarni seva-seva o’qur edi…”, deb yozadi. Gazetalarning targ’ibotchilik faoliyatini munosib e’tirof etib, xalqning ongiga ijobiy ta’sir etganini ta’kidlaydi: “O’quvchilarning dumog’larida boshqa bir fikr, boshqa bir o’ylov paydo bo’la berdi. Yoshlar boshig’a adabiyot, qalam va o’qumoq fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o’qutmoq xayollari keldi. Bu ta’sirdan madrasalar ham quruq qolmadi. Madrasa shogirdlari dars islohni so’ray boshladilar... Hatto shogirdlarning royiat va talablarini ko’rib ba’zi mudarrislar (uddasidan chiqa olmasalar ham) o’zlaricha darslarini isloh qila boshladilar...”.

“Buxoroi sharif” gazetasining birinchi soni 1912-yil 11-mart kuni nashr qilinib, oradan to’rt oy o’tgach, ya’ni 1912-yil 11-iyuldan uning ilovasi **“Turon”** gazetasi chop etila boshlaydi. Shunday qilib, haftada to’rt marta fors tilida “Buxoroi sharif”, ikki marta o’zbek tilida “Turon” gazetasi chiqa boshlaydi.

“Buxoroi sharif” va uning ilovasi “Turon” gazetalari siyosiy masalalardan iloji boricha chetda turganlar. Bu haqda Sadriddin Ayniy “...muharrirlar nihoyat darajada ehtiyotda bo’lib, Rus siyosatiga tegaturg’on biron narsa yozmas edilar. Bularning tutqon maslaklari qisqacha fikrni yoritish va o’qug’uvchilarning qo’lig’a bir chirog’ bermak edi. Bundan u yog’ini u chirog’ yorug’i bilan o’qug’uvchining o’ziga havola qiling’on edi. Shuning uchun yolg’uz ijtimoiy nuqsonimizdan, iqtisod va ziroatdan, ilm va maorifdan, madrasa va

maktablarimizning ahvoli, falokat ishtimolidan va bularning isloh yo'llaridan bahs qilar edi", deb ta'kidlaydi. Shunday bo'lsada, Rossiya imperiyasining Buxorodagi siyosiy agenti topshirig'iga binoan ushbu gazeta faoliyati 1913-yil 3-yanvarda to'xtatiladi. Ushbu ikki gazeta umumiy shaklda 2 600 obunachiga ("Buxoroi Sharif" – 800, "Turon" – 1 800) ega edi.

"Buxoroyi sharif" gazetasi tarjimachilik sohasida katta yutuqlarga erishgan. Ro'znomada Lev Tolstoyning "Bir-biringizni seving", "Ilyos", "Xitoy malikasi va Si Lin Chi", "Ikki savdogar", "Kavkaz asiri", "Mehnatkash Emelyan va bo'sh baraban" kabi asarlari bosilib chiqqan.

1913-yil aprel oyida Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tarafidan Ziyo Said ta'rifiga ko'ra, samarqandlik jadidlarning to'ng'ichi bo'lgan **"Samarqand"** gazetasi ta'sis qilindi. Behbudiy gazetani o'z mablag'idan chiqardi va ko'p o'tmasdan so'ng moliyaviy qiyinchilik sabab uni to'xtatishga majbur bo'ldi. Gazeta 45-sonidan boshqa chiqmadi.

Gasprinskiy "Samarqand" gazetasining tugatilishi haqidagi xabarni berar ekan, bundan juda hafa ekanini yozgan edi. "Behbudiy, – yozadi u, – gazeta nashrini juda kuchli g'ayrat bilan boshlagan edi, ammo turkistonliklar orasida o'z tillaridagi gazeta uchun ming obunachi topilmadi". To'lagan Xo'jamyorov (Tavallo) "Samarqand" gazetasi yopilgan kunni esa "milliy motam kuni" deb e'lon qilingan.

1913-yil 20-avgustdan boshlab Samarqandda, Behbudiy tahriri ostida chiqa boshlagan **"Oyina"** jurnali, Ziyo Said ta'kidicha, turkistonlik jadidlarning "eng sevimli nashri"ga aylandi. "Oyina" nafaqat Turkistonda, balki Kavkazda, ichki Rossiyada, Eronda, Afg'onistonda, Hindistonda va Turkiyada ham tarqaldi. Ayni shu davrda bu jurnal turkistonlik taraqqiyparvarlarning o'ziga xos tashrif qog'oziga aylanib qoldi. Gasprinskiy jurnalning birinchi soniga ta'rif berar ekan, shunday yozadi: "Oyina" dasturi juda dolzarb; turkistonliklarning kundalik hayotlaridagi barcha muammolarni yoritishga qaratilgan". U maqolasining so'ngida turkistonliklarga o'z ona tillaridagi nashrni quvvatlashga va "Oyina"ga obuna bo'lishga chaqiradi.

1915-yil 15-iyunda "Oyina"ning 68-soni chiqishi bilan jurnal o'z faoliyatini to'xtatdi. Fitratning yozishicha, "Oyina" o'ziga o'xshash boshqa jurnallar kabi o'quvchilarini "xursand qila olmadi"; uning maqolalari jurnal o'quvchilariga yoqmay qoldi. Lekin Fitrat ta'kidlashicha, bu ishni to'g'irlash mumkin edi. Buning uchun barcha turkistonliklar jurnalning dasturini mukammallashtirishda ishtirok

etishlari kerak edi. O’z navbatida, Behbudiy qo’yilgan “ayblov”larga javoban o’zini “oqlash” maqsadida “Oyina”da o’quvchilarning jurnal tili va dasturi haqidagi turli maktublarini e’lon qilinganligi keltiriladi.

XX asr boshlariga kelib, Hindiston va Turkiston taraqqiyparvarlarining davriy matbuot sohasidagi hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan. Hind ziyolilari “Oyina” jurnalini, Turkiston jadidlari esa Hindistonda fors tilida chiqadigan gazeta va jurnallarni o‘qiy boshladilar[20].

Gazeta va jurnallar chop etish masalasi Farg’ona va Toshkent hududlarida ham jadallik bilan amalga oshirilgan. Ya’ni, 1914-yilda aprelda Obidjon Mahmudov muharrirligida ikki egizak **“Sadoyi Turkiston**” va **“Sadoyi Farg’ona”** gazetalari chop etila boshlagan. Toshkentda chiqa boshlagan “Sadoyi Turkiston” toshkentlik taraqqiyparvarlarning tayanchiga aylandi. Gazeta o’zini “Ona Turkiston ovozining” tarjimoni, deb e’lon qildi. “Sadoyi Turkiston” birinchi sonidayoq o’z o’quvchilariga “Vatan so’zlarini turk o’g’illariga turk tilida” yetkazishini bildirdi va bu yo’nalishi bilan Gasprinskiy yo’lidan borishini tasdiqlagan.

Farg’onada Obidjon Mahmudov muharrirligida chiqa boshlagan “Sadoyi Farg’ona” gazetasi xalq orasida biroz ommalashib ulgurgandan so’ng muharrir gazetaning “Exo Fergani” nomida ruscha shaklini nashr etish uchun hukumatdan ruxsat oldi. “Tarjimon” bergan xabarga ko’ra, tahririyat gazeta chiqarish uchun ruxsat olishi bilan ruscha harflarga buyurtma bergan va harflar kelishi bilan gazeta o’z faoliyatini boshlaydi[21]. Lekin bizga noma’lum sabablarga ko’ra “Sadoyi Farg’ona”ning ruscha shakli nashr qilinmadi. “Sadoyi Farg’ona”ning o’zi esa 123-sonidan so’ng yana moliyaviy sabablarga ko’ra faoliyatini to’xtatishga majbur bo’ldi.

Toshkent gazetasining taqdiri o’zidan oldingi gazetalar kabi ayanchli bo’ldi. “Sadoyi Turkiston” 66-sonidan so’ng nashrdan to’xtadi. Asosiy sabab – mablag’ yo’qligi. Toshkentlik taraqqiyparvarlar gazetaning moliyaviy ahvolini turli yo’l va usullar bilan qo’llab-quvvatlashga harakat qilmasin uning uddasidan chiqa olmagan[22].

Umuman olganda jadidlarimiz tomonidan tahlikali vaziyatda gazeta va jurnallar chop etish ishlari qiyin bo’lsada, ular bu ishlarni uddasidan chiqaolganlar.

---

[20] Mo’ydinova D.J. Turkiston va Sharq mamlakatlari taraqqiyparvarlarining o‘zaro aloqalari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragi). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023. -21.

[21] Abdirashidov Z. Tarjimon (1883 – 1917) gazetasidagi turkiston materiallarining izohli bibliografiyasi. –B. 41.

[22] Tashkanda teatru va adabiyot kechasi // Tarjimon. 1914. №188.

1917-yilgi fevral o’zgarishi, Turkiston Muxtoriyati, oktabr inqilobi kabi voqea-hodisalar munosabati bilan **“Najot”, “Turon”, “Kengash”, “Ulug’ Turkiston”, “Yurt’, “Hurriyat”** kabi nashrlar maydonga kelgan.

Ushbu gazetalarda ozodlik va hurriyatdan, tenglik va adolatdan so’z ochgan. Muhit girdobi va ziddiyalari bois ularning ayrimlari tezda orada o’z faoliyatlarini yakunlaganlar.

XX asr boshlariga kelib yuqorida keltirilganidek jadidlarimiz tomonidan tashkil etilgan nashrlar o’z davrida katta yutuqga erisha oldi. Jadidlar xalqni ma’rifatli qilishda gazeta va junallarning ahamiyati yuqori darajada bo’ldi. Ya’ni xalq orasida isrofga qarshi kurashish, islom didninig asl mohiyatini xalqona usulda tushuntirish hamda aholi ongida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g’oyalar keng yoyilgan.

Jadidlar tomonidan ta’lim olishga oid matbuot orqali masalalar keltiriladi. Masalan, Turkiston jadidlarining atoqli namoyondasi Munavvarqori “Taraqqiy” gazetasining 1-, 2- sonlarida “Bizni jaxolat - jaxli murakkab” sarlavhali maqolasida maktab va madrasalarda o’qitish masalasini yangilash tashabbusi bilan chiqishi bu jihatdan ma’lum darajada jasorat namunasi edi. Muallif birinchi marta maktab va madrasalardagi muammolarni to’la va aniq bayon etdi.

U maktablarda berilayotgan ta’lim va tarbiyani taxlil etarkan, o’qituvchining shaxsi, qanday fanlar o’qitilishi, ularni qaysi uslub (metod) asosida o’qitish kabi zamona kuytayotgan muhim masalalarga e’tirbor qaratadi. Eng avvalo, u farzandlarini madrasalar va maktabda o’qitish uchun imkoni boricha harakat qiladigan ota-onalar mavjudligini maqolasida yoritib o’tadi.

Mahmudxo’ja Behbudiy esa “Tujjor” gazetasi, 1907-yil, 29-oktyabrdagi sonida “Ta’limni istiqbol” sarlavhali maqolasida esa Turkiston uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash yo’li ko’rsatilgan. Hozirgi madrasalarda, - deb yozadi u, - sarfi va naxvi arabiy o’qug’on rushid talabalardan Turkiston va Buxoroni har bir shahridan aqal martaba to’rt nafardan Misr ul-Qoxira taxsili ilmi diniy va falsafiy zamoniy va adabiyoti arabiy uchun yubormok kerak. Va bular Misrda uch yil muddat tahsili ilmga mashg’ul bo’lub, so’ngra Vatanimizga kelib ilmi kalom, tafsir, hadis, adabiyoti arabiyya va aqliyoti zamoniya ta’limiga qushish qilsinlar” deya fkirlarini keltirib o’tgan.

Shuningdek, Bexbudiy maorif tizimini isloh qilishda nazariotchi sifatida fikr, g’oya beribgina qolmagan. U o’zi publisistik asarlarida

targ’ib etgan tartib va usul asosida ta’lim tizimini amaliy jihatdan shakllantirish va qaror toptirishga ham katta xissa qo’shgan. Uning “Maktablarga ruxsat olmok tariqasi” sarlavhali maqolasida yangi usul maktablari ochmoq uchun qanday xujjatlar tayyorlash kerakligi haqida mufassal so’z yuritadi. Bu bilan u maktablar ochish niyatida bo’lganlarga maslahatlari bilan yaqindan yordam berishga jazm etgan.

Yana shunday ta’limga oid maqolalar 1914-1915-yillarda chiqqan “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg’ona” gazetalari ham jadidlarning sevimli gazetalari bulib, ularning g’oyalarini targib etishda chinakam minbar vazifasini o’tagan. “Sadoi Turkiston” mahalliy xalq bolalari o’qiydigan maktablarning tadrijan zamonaviy tusga kirishi uchun izchillik bilan yo’l tutdi. Muallifining imzosi qo’yilmagan “Imtixon mas’alasi” sarlavhali maqolada eski maktab va madrasalarda imtihon umuman o’tkazilmasligi, usuli jadida maktablarida so’nggi bir necha yil ichida imtihonlar o’tkazilishi tartibga kirgani, rus-tuzem maktablarida esa rus tilida o’qitiladigan predmetlardan imtihonlar o’tkazilib, ularda gubernatordan tortib, amaldor va maxalliy boylargacha hozir bo’lishlari yoziladi. Lekin bunday maktablarda musulmonchilik asoslaridan hamda o’zbek tilida o’qitiladigan fanlardan imtihon o’tkazilmasligidan muallif taajjublanadi. “Bir tarafdan, rus-tuzem maktablarda musulmon muallimlarning ozligi, ikkinchi tarafdan, musulmonchadan durust imtixon olmagonligi bu maktablarda musulmonchaning yildan-yil zaiflanib, oxirda yo’q bulmogiga sabab bulmasmi?” deya savol tashlaydi u. Tabiiyki, bu savol mustabid hokimiyat mutasaddilariga berilgan savoldir. Talaygina maqolalarda maktablarda fanlarni o’qitish usuli yuzasidan qo’llanmalar tayyorlash masalasi, Tataristonda yuzaga kelgan usuli savtiya maktablarining tajribasidan turkistonliklar yetarli darajada o’rganishlari lozimligi, xozir Turkistonda aqalli bironta bo’lsin, zamonaviy talablarga javob beradigan Madrasa yo’qligi haqida yozilgan.

“Sadoi Turkiston” gazetasi 1915-yil 5-maydagi sonida bolalarning tarbiyasi masalasiga e’tibor qaratgan. Unda Xolid Saidning “Jim o’tir, jovonmarg, gapirma, xaromi!” sarlavhali maqolasi bola endi tilga kirib, atrofida bo’layotgan voqealarga munosabat bildira boshlaydi, u kattalar davrasida gapga ko’shilsa, uni darhol “Jim o’tur...!” deya jerkib beriladi. Bu hodisa bir necha bor takrorlangach, bolada jur’atsizlik paydo qiladi deb yozadi deya fkir bilrilgan.

Jadidlar ta’lim sohasidan tashqari gazetalarda jamiyat hayotiga oid ijtimoiy masalalarni ham yoritilshga harakat qilganlar. XX asrning matbuotida “Og’izda emas, amalda bo’lsin!” kabi g’oya asosida

maqolalar bosilgan bo’lib unga ko’ra, “Sadoyi Farg’ona” ning 1914-yilgi 2-maydagi sonida “Hatna to’yi” maqolasi berilgan. Maqola jarayonida muallif o’z davri to’ylaridan shikoyat qiladi. Maqolada hatna to’ylaridagi ortiqcha sarfu-harajatlardan kuyungan holda, bu to’ylarimiz hayr-ehson va savoblar umidida o’tkaziladi, lekin hayr-sahovat avvalom bor muhtojlarga ko’rsatilishi kerak, deyiladi. Muallif ba’zi kishilarning o’z moddiy imkoniyatlarini hisobga olmay manmanlikka berilib to’y o’tkazib, so’ngra qarzga botib, nochor ahvolga tushib qolganliklari, tomosha va uloq o’yinlari uchun qancha mablag’ sarflab va qancha kishilarni ishdan qo’yayotganliklari haqida ham salbiy fikrlar bildiradi: “...Agar shul hatna to’ylarimizdan maqsad: oxirotda foydasi tegadurg’on savoblik bo’ladurg’on bo’lsa: bu tariqa hayr-ehson qilmoqni oxirotg’a foydasi bormu va savoblik bo’lurmu?”.

Shu bilan birga ushu gazetaning gazetaning 1914-yil 30-dekabr sonida yana to’y haqida fikrlar bildiriladi. Kuz kelib dehqonlar hosilni yig’ishtirib olgach, dabdabalar bilan boshlanadigan to’y marosimlari, ulardagi uloq o’yinlari, isrofgarchiliklar, to’y qiluvchilarning chor-nochor holda bo’lsa ham tomoshalar berishi qattiq tanqid ostiga olinadi. Atoqli adibimiz Cho’lpon o’zining “Sadoyi Farg’ona”dagi maqolalarining birida to’ylardagi isrofgarchilik ilgari bo’lmagani, bu holat so’nggi yillarning mahsuli ekanligini bayon etgan edi: “Avvallari qandog’ yaxshi bo’lsa, so’nggi kunlarda va so’nggi yillarda kundan-kun orqaga qarab qadam qo’ymoqdadur, ul vaqtlarda bundog’ behuda isroflik to’ylar ham bo’lmas edi” deya izoh berdilar.

Farg’onaning mashhur jadidlaridan Is’hoqxon Junaydullaxonxo’ja o’g’li Ibrat o’zining maqolalarida to’ylardagi isrofgarchiliklar, ortiqcha sarf-surflar, yoshlarning ilm olishdan ko’ra ko’pkari, ya’ni uloq chopishga bo’lgan ishqibozliklari haqida o’z mulohazalarini bildiradi. U o’zining “Turkiston viloyatining gazeti”dagi maqolalarining birida bu xususidagi fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: “Hali ham biz qadimgi, eski aqidamizda ma’lumlarki, siqilub o’z dinimizga harakat qilmay, aqcha topsak xoyu-havas ovloq to’ylarga o’n ming so’m behuda isrof uchun. Qaysi ulamo bularga fatvo bergan halol deb. Halol desa bundan zarur halollar bor, ular qolibdur. Hech kimda xalqqa nasihat yo’q, bo’lsa ham quloqqa olmaydilar. Yigitlar esa kuvkari ila yuradurlar”.

“Buxoroi sharif” gazetasi XX asr boshlarida Buxoro amirligida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida ma’lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi. Gazetasida amirlik aholisining diniy va oilaviy marosimlari, bayramlari xususida ham maqolalar nashr

qilib borilgan. Jumladan, Sadriddin Ayniyning “Buxoroda Navro’z sayli” maqolasida Buxoro amiri Said Olimxonning ommaviy tadbirlarni o’tkazish bo’yicha amalga oshirgan islohotlari oydinlashadi. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro amiri Abdulahadxon davrida Navro’z sayli shahar tashqarisidagi Shirbudin chorbog’i va Sitorai Mohi Xossa saroyi atrofida 3 kun mobaynida o’tkazilgan. Bu esa odamlarning vaqti va pulining isrof bo’lishiga olib kelgan. Amir Olimxon hokimiyat tepasiga kelgach, isrofli marosimlar, jumladan, bayramlarni cheklash bo’yicha ham maxsus farmon chiqargan. Unga ko’ra, Navro’z bayrami bir kun davomida Buxoro shahri registonida tashkil qilingan. Sadriddin Ayniy Amir Said Olimxonning ushbu farmonini qo’llab-quvvatlaydi va “Ravshanki, janobi oliyning bu amri farmonlari fuqaroning manfaatlari uchun bo’lib, u kishining raiyatnavozliklarining belgisidir. Agar shahar tashqarisida sayr bo’lganda, fuqaroning qancha mol va vaqti isrofu talofat bo’lgan bo’lur edi. Qancha kishilarga foytun xarji to’lashiga, obu taom pulini berishiga to’g’ri kelar edi. Tijoratchilar va ayrim tabaqa bir necha kun oldin kelib, sayrning chodirlarini va boshqa zaruriy jihozlarini tayyorlashlari lozim bo’lar edi. Shahar tashqarisida bo’ladigan bo’lsa, aholining tartib-intizomini nazorat qilish mumkin emas edi. Bu esa, ayrim isrofliklarga sabab bo’lardi. Shuningdek qanchalab tumanlar va qishloqlardan dehqonlar tomoshaga kelib, ayni bahor paytida dala ishlaridan qolib ketar edilar”, deb fikrini yakunlaydi.

Shuningdek “Buxoroyi sharif” gazetasidagi yana bir maqolada Turkistonning nufuzi haqida ma’lumot beriladi. Maqolada yozilishicha, Buxoro amirligi 26 beklikdan iborat bo’lgan, uni amir tomonidan tayinlangan beklar boshqargan. Maqolada Turkiston mintaqasi nufuzi haqida ham ma’lumotlar berilgan bo’lib, Turkistonning umumiy aholisi 12 million bo’lib, shundan Turkiston general-gubernatorligida 7 million, Buxoro amirligida 3 million, Xiva xonligida 2 million bo’lgani qayd qilingan. Turkiston aholisi millatiga ko’ra, o’zbek, turkman, qirg’iz, qozoqlardan iborat bo’lib, chig’atoy turkiysida gaplashgan. Bundan tashqari, mintaqada 2 million tojiklar ham bo’lib, ular forsiy va turkiy tilda so’zlashganlar. Maqola muallifi shu vaqtgacha, bu millatlarning o’z gazetasi bo’lmaganligini aytib, “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining nashri yo’lga qo’yilganini mamnuniyat bilan tilga oladi

XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy muammolar jadid matbuotida keng o’rin oladi. Jumladan, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Ulug’ Turkiston”, “Turon”, “Xurshid” singari gazetalarda e’lon qilingan hajviy va publitsistik asarlarda o’sha davr boyonlarining

qoloqligi, chor ma’muriyatining to’rachiligi, paranjining yangi zamonga mos kelmayotgani, talabalarga 5 so’m iona (ehson) qilish o’rniga, besh yuzlab so’mni restoranlarda foxishalarga sochayotgan ahloqsiz sarmoyadorlar qattiq tanqid ostiga olinadi[23]. Maxmudxo’ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Hamza, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jaev, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulxamid Cho’lpon kabilar chiqishlarida mazkur muammolarni dadil ko’tarib chiqdilar va yuqoridagi nashrlarda o’z publitsistikasi bilan ham faol ishtirok etganlar.

Nazorat savollari:

1. O’lkada nashir etilgan dastlabki gazeta qaysi?
2. Jadidlar matbuotining o’ziga hos jihatlari qaysilar?
3. Jadidlarning xalq madbuotini yuzaga keltirishda sabab bo’lgan omillar?
4. Qaysi hududda gazeta va jurnallar chop etilmagan?
5. 1905-yildan imperiyada yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jadid matbuotiga tasiri qanday?
6. Farg’ona vodiysida qanday nomdagi gazeta-jurnallar chop etilgan?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Jadidchilik harakati, milliy uyg’onish, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Yulduz”, “Idil”, “Taraqqiy”, “Ittifoq”, “Turkestanskiye vedomosti” “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “Oyina”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg’ona”.

Mavzuga oid test savollari:

1. “Milliy tilni yo’qotmak millatning ruhini yo’qotmakdur…?

a) Munavvar Qori
b) So’fi Olloyor
c) Mahmudxo’ja Behbudiy
d) Abdulla Avloniy

2. Jadidlar……. gazeti haqiqiy “musulmoncha” gazeta, deb hisoblashdan yiroqda bo’lganlar?

a) “Turkiston viloyatining”
b) “Turkiston ovozi”
c) “Turkestanskiye vedomosti”

[23] Norqulovna N. Jadid matbuotining milliy matbuot sifatida shakllanishi. “Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari”, 2021. –B. 224.

d) “Turkiston”

3. Lev Tolstoyning “Bir-biringizni seving“, “Ilyos”, “Xitoy malikasi va Si Lin Chi”, “Ikki savdogar”, “Kavkaz asiri”, “Mehnatkash Emelyan kabi asarlar o’lkadagi qaysi gazetada bosib chiqarilgan?

a) “Buxoroyi sharif”

b) “Turon”

c) “Samarqand”

d) “Oyina”

4. Farg’onada Obidjon Mahmudov muharrirligida chiqarilgan gazeta qaysi?

a) “Sadoyi Farg’ona”

b) “Turon”

c) “Samarqand”

d) “Oyina”

5. 1909-yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asari muallifi to’g’ri keltirilgan qatorni toping?

a) Munavvar Qori

b) Abdurauf Fitrat

c) Cho’lpon

d) Abdulla Avloniy

6. 1917-yilgi fevral o’zgarishi, Turkiston Muxtoriyati, oktabr inqilobi kabi voqea-hodisalar munosabati bilan qanday nashrlar maydonga kelgan?

a) “Najot”, “Turon”, “Kengash”

b) “Yurt’, “Hurriyat”, “Oyina”

c) “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”

d) “Turon”, “Kengash”, “Shuhrat”

5-Mavzu: JADIDCHILIK HARAKATIDA TARIX, TARIX TA‘LIMI VA FALSAFASI MASALASI

Reja:

1. Jadidlarning tarix masalasiga oid qarashlari.
2. Jadidlar tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar va ularning tasnifi.
3. Jadidlar asarlarida yoritilgan diniy-falsaviy masalalar.

Taraqqiyparvar Abdurauf Fitrat takidlaganidek, “Tarix millatlarning o’tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o’rganaturg’on ilmdir”. Aynan XX asr jadidlari o’z faoliyatlari davomida ko’plab sohalar qatori tarix ilmini rivojlantirish va o’sib kelayotgan yosh avlodni o’z tarixdan faxrlanish hamda undan saboq chiqarish ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

O’z tarixini yaxshi bilib, u bilan qurolangan jadidlar XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Milliy uyg’onish davrini yuzaga keltiradi. Ular tarixiy o’tmishni xolisona va tarix ilmi xamda ta’limning millat taraqqiyotida tutgan o’rniga oid o’ziga xos katta madaniy-ma’rifiy yozma meros qoldirganlar. Jadidlar maktabi uchun yaratgan tarixga oid darsliklari, badiiy-adabiy, dramatik asarlari, shuningdek, o’zlari nashr etgan matbuot saxifalaridagi maqolalari milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik kurashlariga aylanishi uchun zamin yarata olgan. Bu davr Turkistonda ijtimoiy-siyosiy tafakkur rivojida yangi bosqich edi. Ana shu bosqichda yerli xalqning madaniy-ma’rifiy hayotida shu qadar ko’p o’zgarishlar yuz berdiki, uni hech mubolag’asiz yangi marifaat davri sifatida namoyon bo’la boshladi.

XX asrda ijtimoiy hodisalarning almashinish sur’ati aqlga sig’mas darajada tezlashdi. Jadid adabiyoti tamomila millatni uyg’otishga va harakatga keltirishga qaratilgan edi. Bu borada jadid ulamolari tomonidan millat tarixini anglashga va kelajak haqidagi tasavvurlarni shakllatirishga xizmat qiladigan tarixiy asarlarni yoritishga bel bog’ladilar.

Shulardan biri O’rta Osiyo jadidchilik harakatining yetakchisi, hamda o’z davrining dramaturg, noshir, din va jamoat arbobi Mahmudxo’ja Behbudiy ibn Behbudxo’jadir. Mahmudxo’ja Behbudiy tarix ilmi haqida o’z asarlarida quydagicha fkirlarni keltirib o’tadi. Ya’ni, “Tarix ko’p ahamiyatli va foydali bir narsadur. Tarixning foydalaridan ba’zisi ushbudirki, bir millatning na tariqada, qaysi yo’l ila taraqqiy etganini uqib ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan

tanazzul etib, oxiri munqariz (yo'q, barbod) bo'lib ketganini o'qib mundan ham istifoda etmak ham mumkindir" deya fikr bildiradi[24].

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z jadidchilik faoliyati davomida ko'plab ilmiy asarlar yarata olgan. Bulardan dastlab jadid maktablariga mo'ljallangan Risolayi asbobi savod (Savod chiqarish kitobi, 1904), Risolayi jug'rofiyai umroniy (Aholi geografiyasiga kirish, 1905), Muntahabi jug'rofiyayi umumiy (Qisqacha umumiy geografiya, 1906), Kitobat ul-atfol (Bolalar xati, 1908) yangi usul maktablarida foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan[25]. Shuningdek, o'zida o'tmishda bo'lgan voqea-hodisalarni aks ettirgan "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909), "Sayohat xotiralari", Padarkush (1911) tarixiy romani hamda tarix ilmiga oid "Turkiston", "Sherdor madrasasi", "Tarixi ixtiroyi bashar", "Turkiston tarixi kerak", "Ismoilbek hazratlari" nomli maqolalarida tarixiy ma'lumotlar, o'zi yashagan tarixiy davr voqealari, tarixiy obidalariga oid maqolalari muhim ahamiyatga ega bo'lgan[26].

Ushbu asarlar ichida "Sayohat xotiralari" asari o'z davri uchun ahamiyatlidir. Ushbu asarda yurtimiz tarixi, shuningdek, olim sayoxat kilgan boshka mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, tarixiy kiyofasini aks etgirishga xarakat kiladi. Unda Marv shahriga uyushtirgan sayhati haqida so'zlab. Marv shahrida bo'lib, bu joyning o'tmishiga tegishli qiziq ma'lumotlarni keltiradi. Marvning XX asr boshidagi ijtimoiy holatini sayyox-tarixchi shunday tasvirlaydi: "Marvda aholi aksariyat ila rus, arman va eron tab'alaridur. Atrof xalqi turkman bo'lib, shahariy bo'lganlari yo'q. Hanuz qora uy va chodirlariga tirikchilik qiladur" deya ma'lumot keltirgan bo'lsa, Bexbudiy Rossiya imperiyasining bir necha shaharlarida bo'lib ularning madaniy qiyofasini tasvirlaydi. Jeleznovodsk shahrida Buxoro amiri Abdulaxadxon qurdirgan qasr xahida ma'lumot beradi: "Gemursuyi shahri bog'ining tog' tarafida otash aroba uchun arab usulida va muazzinxonlik bino qilingan sutdek ok bir qasri oliyni uzoqdan ko'rib, minorasidan masjid gumon qilib edim. Bog'ga kirib eng yaqiniga bordimki, qasr atrofini alohida bir tog' ihota etib, muncha maxsus bog'ni temurpanjalar ila ihota qilinubdur". Undan tashqari ushbu asarda Behbudiy tomonidan Turkiya, Suriya, Livan va boshqa ko'plab dunyo

[24] https://mv-vatanparvar.uz/272/

[25] Холбоев С. Долимов У. Дусткораев Б. бошқалар, Туркистон жадидчилиги - миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари). –Наманган. 2012. –Б. 247.

[26] Fattoyev I.I. Jadidlarning tarixga bag'ishlangan asarlari / Eurasian journal of academic research. 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.7180296

davlatlariga sayohati anashu hududlar tarixiga bag’ishlangan qimmatli ma’lumotlarni keltirib o’tadi.

Behbudiyning 1908-yilda bosilgan “Kitobat-ul Atfol” asari ozbek filologiyasi tarixini o’rganishda muhim manbalardan sanaladi. Shuningdek, 1906-yilda yaratilgan “Kitobat muntaxabi jugrofiyai umumiy” (Umumiy jugrofiyadan saylanma kitob) asari tarixiy-ilmiy xususiyatga boyligi bilan ajralib turadi. Asar ayniqsa geografiya fani rivojida muhim ahamiyatga egadir. Behbudiy dunyo bo’yicha ilm-fan rivojlanishi tarixini jugrofiya ilmi bilan bog’lab, bu fanning vujudga kelish tarixini Misr fir’avnlariga olib borib taqaydi[27].

Antik dunyo madaniyatidagi sivilizatsiyalarga ham to’xtalgan muallif quyidagi qizikarli ma’lumotni keltirib o’tadi: Istrabun (Strabon), Batlimus (Ptolemey) degan yunoniy olimlar jugrofiya va xay’at ilmlari to’g’risig’a yaxshi kitoblar tasnif qilib, bu ilmlarni ko’p rivoj beribdurlar. Alarni kitobi yunon tiliga yozilgan emish. Istrabon miloddan o’ttuz, Batlimus sakson sana so’ngra vafot qilibdurlar”. Shuningdek, asardagi Aleksandr Makedonskiy hamda uning ustozi, antik davr allomalaridan Arastu va uning ilm-fan taraqqiyotiga qo’shgan xissalari xaqida ham ko’pgina ma’lumotlar berilgan.

Behbudiyning ”Sherdor madrasasi” nomli maqolasida ashtarxoniylar davrida barpo etilgan, bugungi kunda Samarqanddagi Registon maydoninining tarixiy bir bo’lagi bo’lgan Sherdor madrasasi haqida tarixiy ma’lumotlar beradi. Uning bunyod bo’lishi, naqshlari turlari, ustalari, qurilishi sabablari haqida kerakli ma’lumotlarni yozib qoldiradi. Bunyod bo’lganiga to’rt asr bo’lgan bo’lsa ham koshinlari oftob va oy nurini aks ettirib ko’zni qamashtiradigan bu inshootni Behbudiy shunday ta’riflaydi:” U muborak qubba, dahma, buq’alar boniy va sokinlarining moziyg’a madfun va mujassam tarixiy va diniy qahramonliklarini yod etib bahri taommiqig’a mahv va g’arq o’lmali”.

Behbudiy o’z zamonining mavjud xato va kamchiliklarni ko’rib, uni kelib chiqish sabablarini yaxshi tushungan. Mavjud muammolarni yechim topishga harakat qilgan. Mana shu yechimlardan biri o’z vatani tarixini millatdoshlariga haqqoniy yetkazib berish ekanini anglagan holda “Turkiston tarixi kerak” maqolasida bevosita tarixga to’xtalib o’tadi. Kishi vatani tarixini nima uchun o’rganishi kerakligini, o’z yurti tarixini bilish uning buguni va kelajagi uchun qanchalik muhim ekanligini tushuntiradi.

[27] Муминов О. Табиий география таълими методикаси. –Т.: Ўкитувчи, 1976. –Б. 14.

Bu asarni yaratishdan maqsad mamlakat tarixi chuqur va boy ildizga ega bo'lsa-da yetarlicha yoritilmagani, borlari ham mustamlakachilar tomonidan yo'q qilingani, natijada xalqimiz xurofotlik qissa, hikoyalar va oshiqona g'azal, turli afsonalarga chalg'ib asl tarix ilmidan bebahra qolayotganiga achinadi, va zamondoshlari va kelajak avlodlarga mavjud tarixni qayta tiklash vazifasini qo'yadi.

Toshkentlik jadidchilar yetakchilaridan Abdulla Avloniyning "Po'rtug'oliyo inqilobi", "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom", "Advokatlik osonmi?" asarlari, "Afg'on sayohati", "Zakot" kabi maqolalarida tarixiy ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Uning "Po'rtug'oliyo inqilobi" asari Portugaliyada sodir bo'lgan 1910-yil oktabr oyidagi inqilob voqealari tasvirlanadi. Inqilobning yuzaga kelishida mamlakatda hukm surayotgan monarxiya tuzumi zulmi va Portugaliya monarxiyasi qo'llab-quvvatlayotgan ingliz hukumati tazyiqi sabab bo'ladi. Inqilobchilar Respublika tuzumini o'rnatishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishadi. Ularni armiya qismlari va harbiy-dengiz floti kuchlari quvvatlab chiqishadi. Poytaxt Lissabonda butun xalq oyoqqa turgach qirol Manuel qochib ketadi. Shu tariqa Portugaliya inqilobi g'alaba bilan yakunlanadi, shohlik tugatilib, respublika tuzumu o'rnatiladi. "Portugaliya inqilobi" dramasi zamirida mana shu konkret tarixiy voqea yotadi.

Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom" asari ham bevosita tarixda sodir bo'lgan voqealarga bag'ishlanadi. Asar birma-bir Qur'onda nomi keltirilgan tarixda o'tgan yigirma besh payg'ambar haqidagi ma'lumotlardan boshlanadi. Milodning dastlabki davrlaridagi arablar, ularning hayot tarzi, so'nggi payg'ambar Muhammad alayhissalom davri tarixi, arab qabilalari taraqqiyoti va ularda davlatning vujudga kelishi, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v), ularning oila a'zolari haqida: "Avlodi rasuli akram salallohu alayhi vassallam" nomi bilan tarixiy ma'lumotlar keltiradi, payg'ambarimizning vafotlaridan keyingi davrda hukmronlik qilgan xalifalar davriga ham keng o'rin ajratadi.

Jadid milliy tarixiy ta'limi va uning paydo bulishiga katga xissa kushganlardan yana biri tarixchi olim va yozuvchi Abdurauf Fitratdir.

Abdurauf Fitrat faoliyati davomida tarix ilmiga oid "Najot yo'li", "Muxtasar islom tarixi", "Abulfayzxon", "Arslon", "Vose qo'zg'oloni", "Sayyohi hindi", "Munozara"[28], "Hindistonda bir farangi ila buxorolik

[28] Boltaboeva H. H. Fitratning xorijiy publisistikasida ijtimoiy-siyosiy masalalarining aks etishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. –B. 133. www.oriens.uz

mudarrisning munozarasi” kabi asarlari va bir qator maqolalari orqali ham vatandoshlarini uyg’otishga, ularga tarixda bo’lgan voqea va hodisalarni eslatib, ularni kelib chiqish sabablarni, hamda oqibatlarini namuna sifatida ko’rsatish orqali kerakli xulosa chiqarishni ko’zlaydi.

Abdurauf Fitratning “Muxtasar islom tarixi” nomli ilmiy tarixiy asari Abdulla Avloniyning ”Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari bilan shaklan, mazmunan tarixiy davrni yoritish jihatdan juda o’xshash hisoblanadi. Islom dini tarixiga bag’ishlangan bunday asarlarni yaratishdan maqsad ham Fitrat aytganidek: “uni bilish har bir musulmon uchun lozimdir”.

Fitrat XVII – XVIII asrlarda Buxoro xonligini idora qilgan so’nggi sulola – ashtarxoniylar sulolasining so’nggi vakili Abulfayzxon hukmronligi davriga bag’ishlanga “Abulfayzxon” tarixiy dramasini yaratadi. Asar janriga ko’ra tarixiy fojia. Mazmun-mundarijasiga ko’ra ko’hna Buxoro tarixidagi g’oyat mas’uliyatli va murakkab davrlardan biri - ashtarxoniylar sulolasining oradan ko’tarilib, o’rniga mang’itlar saltanatining kelishi va Buxoro amirligining tashkil topish davri yoritilgan asardir.

Asarni yaratishda Fitrat mavjud tarixiy manbalardan keng miqyosda foydalangan. “Abulfayzxon” ashtarxoniylar sulolasi barbod bo’lib, mang’itlar sulolasi boshlangan, ikki holatda ham mamlakat xonavayron ahvolga tushib, saroyda qon to’kishlar, fisq-u fujur va boshqa xil qabihliklar cheklanmagan bir davr tasviriga bag’ishlangan o’zbek adabiyotidagi birinchi tarixiy dramadir hisoblanadi. Fitrat tarixiy qarashlarida xonliklar davri tarixini shafqatsiz zulm davri, adolatsizlik, begunoh qonlar to’kilgan davr deyish ham mumkin.

Fitratning “Arslon” dramasi ham Buxoro xonligida yashagan dehqonlarning og’ir hayoti va qismatidan olingan tarixiy voqealarga boydir. Unda ba’zi mulkdor boylarning turli yo’llar bilan xalqni ayovsiz talaganini, o’z yeriga ega bo’lgan kamchilik dehqonlarni ham yeridan ayirishga uringanini, bu yo’lda yurt amaldorlari, mulla, eshon, oqsoqollari ham mulkdorlarga ko’makchi bo’lganini ko’rish mumkin. Bu davrda qashshoq boy, sudxo’r mulkdordan qarz olib vaqtida qaytara olmasa yeri bo’lsa yerini, yoki uy-joyini xatlab bergan. Ba’zi hollarda oila a’zolari, farzandlarini qullikka berishga majbur bo’lganligiga oid masalalarni so’zlab o’z davridagi ijtimoiy muammolarga e’tibor qaratadi.

Shuningdek, jamiyatdagi ijtmoiy muammolarga bag’ishlangan “Vose qo’zg’oloni” tarixiy dramasini yaratadi. Ushbu asarda Buxoro

amirligida yuz bergan qo’zg’alon va uning sabablarini yoritishga harakat qilgan.

Milodiy 1885-yilda Buxoro amirligida soliqlarning to’xtovsiz oshib borishi, davlat hokimiyati zo’ravonligidan aziyat chekkan aholi Balijuvon bekligida qo’zg’olon ko’targan. Bu qo’zg’olon to’g’risida Fitrat Buxoro amiri hukmronligi ostida yashagan tojiklar hayotidan tarixiy fojia bo’lgan “Vose qo’zg’oloni” tarixiy dramasini yaratadi. Bu davrda Buxorolik dehqonlarning ko’pchiligi kambag’alikda kun kechirishi, yer va ish hayvonlari hukmdor va uning amaldorlari qo’lida edi. Aholi yil bo’yi mehnat qilib, qiynalib orttirganini xilma-xil soliqlarni to’lashga sarflashga majbur etilganligi, undan tashqari majburiy mehnatlar xalqni tinkasini quritgan. Dehqonlar zulm bilan murosa qila olmay zolimlarga qarshi chiqdilar. Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida ijtimoiy zulm haddan oshdi, bu davrda soliqqa tortish, pul ko’rinishidagi yig’imlar yetakchilik qildi. Xiroj, zakot va juz’ya asosiy soliqlar bo’lib undan tashqari qo’shimcha soliqlarni turi ham ko’p bo’lgan. Kasodga uchrash, qashshoqlikning tuban darajasi, amaldorlarning hokimiyatdagi suiste’mollariga qarshi norozilik dehqonlarni qo’zg’olonlar ko’tarishga majbur qildi va dastlab Hovaling qishlog’ida, keyinroq Balijuvonda joriy etilgan “zakoti chakana” deb nomlangan g’ayriqonuniy soliq ustiga yana bir echki uchun “bir toqadan qarbos” undirish haqidagi farmon chiqqach bunday soliqni adolatsizlik va talonchilik deb bilgan dehqonlar uni to’lashdan bosh tortdilar hamda kambag’al Vose tevaragiga uyushdilar.

Ushbu davrni asar orqali taxlil qilsak, bu davrda mahalliy aholi anchagina nochor hayot kechirgan. Amirlik hukumati esa xazinani to’ldirishning yagona vositasi sifatida amaldagi soliqlar miqdorini oshirish yoki qo’shimcha soliqlar undirish yo’lini tutgan. Jamiyatdagi bu kabi adolatsizliklar natijasida XIX asr oxirida bunday qo’zg’olonlar tez-tez bo’lib turgan.

Fitrat “Munozara” asarida jadid maktablarining faoliyatini ochiq namoyon etish bilan birga Sharq mintakasidagi barcha taraqqiyotsizikning sabablari ilmsizlikda ekanligini ko’rsatib beradi. Shuning uchun ham Sharq xalqlari Yevropaning nufuzli davlatlari mustamlakasiga aylanib qolganligi ta’kidlangan. Mustamlaka balosidan esa ilm-ma’rifat yo’li bilangina halos bo’lish mumkinligini tarixiy misollar bilan isbotlaydi.

Fitratning Buxoro amirligi tarixini bayon etuvchi yana bir asari “Hind sayyoxi bayonoti” deb nomlanib, u dastlab 1912-yili Istanbulda

chop etilgan. Asar qahramoni Hindistonlik bir sayyoh, Fitrat uning nomidan Buxoroning umumiy qiyofasi va hol-ahvolini kursatib shunday deydi: “Buxoroda bo’lib, necha oylar davomida Buxoro shaxri va buxoroliklarning ahvoli ruhiyasini o’rgandim. Ularning qariyb barcha ishlaridan ogoh bo’ldim” deya ma’lumot keltiradi.

Fitratni insoniyat taqdirining eng to’g’ri yo’lga chorlovchi mashhur asarlaridan biri “Najot yo’li” deb nomlanadi. Ushbu asar olimni buyuk mutaffakkir sifatida namoyon etadi. “Najot yo’li” asari insoniyatni, hususan millatni eng to’g’ri hayot yo’liga chorlovchi tarbiyaviy ahamiyatga molik asar bo’lib, uning asosini ilm va barcha insoniy fazilatlar bilan komillik sari qadam tashlash g’oyasi tashkil etadi. Najot yo’lida yurmoq uchun ilmli, zukko bo’lish talab qilinib, buni muallif hayotiy misollar bilan yoritib beradi.

Olimning tarix va tarix fani hamda tarixiy ta’lim haqidagi qarashlari hozir ham juda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xulosa o’rnida aytish mumkinki Fitrat tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar Buxoro va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni emas balki, Rossiya mustamlakachiligi ta’sirida o’lkada amalga oshirilgan hunrezliklar, musulmonlar o’rtasidagi bo’linishlar haqida tarixiy ma’lumotlarga tayanib ko’plab asarlari yaratilgan hamda tarixiy asarlarning so’nggida barcha muammolarning yuzaga kelish sabablari sifatida o’lkada ilmsizlikning, diniy mutaassiblikning kuchayishi natijasida dunyo taraqqiyotida ancha ortda qolayotganligi takidlangan.

Jadidchilik harakatining faol vakillaridan yana biri bu Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Uning ”Xotiralarim” nomli asari yaqin o’tmishimiz XX asr boshlarida ro’y bergan voqealar tarixiga bag’ishlanadi. Asar o’zi ta’kidlaganidek uch qismdan iborat bo’lib, birinchi qismi jadidchilikning maydonga kelishidan 1917-yil fevral inqilobigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Unda, asosan, jadidchilikning sovet davridagi ta’lim va madaniyat taraqqiyotiga qo’shgan hissasi, mustaqillik uchun mustamlakachilik siyosatiga qarshi yashirin olib borgan kurashi yoritiladi. Ikkinchisi 1917-yil fevral-oktabr, uchinchisi esa sho’ro davrini (1917-1929-yillar) qamrab olgan. Asr boshlarida istiqlol va milliy ozodlik uchun kurash olib borgan ”Ittihodi taraqqiy”, ”Milliy ittihod” va ”Milliy istiqlol” kabi oshkora va yashirin tashkilotlar faoliyati tarixi ularning rivojlangan mamlakatlar bilan aloqa bog’lashga urinishlari tarixi: “Ittihodi taraqqiy” tashkiloti Turkiya bilan aloqa bog’lash uchun yuborgan komissiya Turkiyada hukumat to’ntarishi bo’lgan vaqtga to’g’ri keladi va uchrashib gaplashishi kerak

bo’lgan odamlarni topa olmay, muvaffaqiyatsizlik bilan qaytib keladi”14 ham yoritilgan. Undan tashqari asarda o’sha davr xotin-qizlariga, ularning jamiyatda faoliyat yuritishiga milliy ziyolilar, komunistlar va mahalliy mutassiblarning turlicha munosabati xususida, yana 20-yillar tarixida Buxoro inqilobi voqealari ham yoritib beriladi.

Jadidlar orasida o’zining zukkoli, yuksak bilimi, tadbirkorligi faoliyatida ko’p qirraliligi bilan ajralib turadigan shaxslardan biri, turkiy xalqlar ozodlik harakati yo’lboshchilaridan biri nomini olgan Ahmad Zakiy Validiy To’g’ondir. Yoshligidan o’zini ilm olishga bag’ishlagan ma’rifatparvar siyosiy faoliyatini ham erta boshlagan. Boshqirdiston o’lkasida rahbarlik lavozimida ishlagan va o’sha davr “dohiylari” Lenin va Stalinni o’zi bilan hisoblashib, maslahatlashishga majbur etgan shaxs edi. Sharif Xolmurod Validiy haqida fikr bildiradi: “Shunday tahlikali jangovar vaziyatlarda ham tariximizga, qadimiy boy madaniyatimizga oid uchragan har bir obidani, osori-atiqalarni yo’l-yo’lakay, hatto kechalari oy yorug’ida, gohida maxsus vaqt ajratib qunt bilan o’rganganligi, ularning boshqa yodgorliklar va voqealar bilan bog’liqligi xususida teran ilmiy xulolasalar chiqarib borganligi esa uning naqadar bag’ri keng, xalqimiz o’tmishini jon-dilidan sevadigan, uning porloq kelajagi to’g’risida qayg’urib bu yo’lda jonini ham ayamaydigan ulug’ alloma inson bo’lganligidan guvohlik beradi”. O’zini yagona Turkiston himoyachilaridan deb bilgan Validiy o’z yurti Boshqirdiston mustaqilligi yo’lida faol harakatlar olib boradi.

Ammo bu hududlar ozodligi uchun imkoniyat qolmagach ko’pchilik ilg’or kishilar qatori muhojirlikni bo’yniga olib Turkistonga keladi va bu yerda ma’rifatparlik faoliyatini davom ettiradi. Turkistonning tarixi, bu hududdagi tarixiy yodgorliklar, tarixiy shaxslar, turkiy xalqlar tarixiga oid bir qancha asarlar yaratadi. Turkiston tarixini yetarli darajada yoritilmagan deb hisoblagan Mahmudxo’ja Behbudiy “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Milliy tariximizni kim yozar?” degan savolni o’rtaga tashlaydi va “Bizning fikrimizcha, munday bir tarix yozmoqlik nihoyatda qiyin bir ish bo’lib, hozirda muning ifosi bizlarning qo’limizdan kelmayturg’onga o’xshaydir. Shuning uchun bu xizmatni Turkiston tarixi ila oshino bo’la boshlagan yosh muarriximiz muhtaram Ahmad Zaki Validiy afandining qalamidan umid etmakdamiz”, deya bu mas’uliyatni Validiyga topshiradi.

Uning “Turk xalqlari tarixiga kirish”, “O’rta Osiyo tarixining islom davri”, “Xudoyorxonning so’nggi kunlari”, “XVIII asr Farg’ona tarixiga doir”, “Buxoro xonligiga sayohat”, “Turkistonning madaniy-

ma’naviy boyliklari”, “Al-Beruniy shimol xalqlari xususida”, “Qadim Xorazmda til va madaniyat”, “Turkiylar shajarasi”, “Amir Temur maqbarasi”, “Termur va Boyazid Yildirim”, “Buyuk hukmdor Shohrux”, ”Temur avlodlari”, “Sharqda sho’ro siyosati”, “Temurning g’arbga yurishlari”, “Chingizxon” kabi asarlari va Bartold bilan birgalikda yozgan “Temurning Hindistonga safari” asari vatanimiz va turkiy xalqlar tarixiga bag’ishlanadi[29]. Begali Qosimov o’z asarida Validiyning turk xalqi haqidagi : “Minglarcha yillik tariximizda qizil ip bo’lib o’tgan xususiyatlarimizdan biri jonlilik va bitmas faollikdir… - yozadi Ahmad Zakiy Validiy va – Turk millatining tarixning biz bilgan davridan buyon askar bo’lib kelganligini, intizomsevarligini, hayotning eng og’ir mushkulotiga ham tayyor turishini, mashaqqatlarga uzoq muddat sabrli bo’la olishini” ma’lumotlarini keltirib o’tadi.

Tarixdagi turli davrlar va ko’pgina sulolalar, yaqin va uzoq o’tmishdagi tarixiy shaxslar Alpomish haqida, Chingizxon, Amir Temur, Shayboniyxon haqida: “Sirdaryo ila Ashtarxon orasida yetishgan bir sultondir”, Lenin haqida: “…u parlamentarizmga pisandsizlik bilan qaraydi… Lenin diktator edi, ammo tiran (mustabid) emas edi” qimmatli ma’lumotlar beradi. Vatanimiz tarixi uchun ulkan xizmatlaridan biri “O’zbek urug’lari” nomli asar yaratib, o’zbek xalqining paydo bo’lishini, o’zbek urug’larini chuqur o’rganadi va tariximiz uchun qimmali ma’lumotlar qoldiradi. O’zbeklarni 92 qabiladan tashkil topgani ma’lum Validiyning fikricha: “Zikr etilgan 92 qabiladan 45 qadari bugun o’zbek hayotiga oiddir”. Validiy ularning har birini sanab o’tadi va o’rnashgan hududlari haqida ma’lumotlar beradi.

Jadid namoyandalarining dastlabki vakillaridan biri tarixchi va tarix fani rivojida o’z o’rniga ega bo’lgan alloma Is’hoqxon Ibrat hisoblanadi. U tarix ilmi haqida shunday deydi: “O’z zamoni bilan o’tgan zamonni tarozu qilib, vaznini bilsun uchun va ham ilmi tarix bir ilmi ta’rifdur”. U o’tmishni o’rganish xalq taraqqiyotga erishuvida va farovon hayot kechirishida muhim ahamiyatga egaligini o’ta yuksak darajada ta’kidlaydi. Vatanimiz tarixini o’rganishdagi muhim manbalardan biri sanalgan “Farg’ona tarixi” asarini yozishdan maqsadi haqida gapirar ekan, “bani basharning tiriklik qilish, sanoat va ziroatlari, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga kursatmak, bizdan keyin keladurg’onlar o’tganlarning turmush va qilmish va bilmush ishlaridan o’rnak o’lsun”, deya fikr bildiradi.

[29] Беҳбудий М. Танланган асарлар. “Туркистон тарихи” керак. Тошкент: “Маънавият”, 1999. –Б. 178.

Is’hoqxon Ibrat “Turkiston viloyatining gazeti”da e’lon qilgan “Eski maktablar hususida”, “Millatni kim isloh etar?”, “Xaq so’z” kabi maqolalarida o’z yashagan davri jamiyat tarixini aks ettirgan. Taxminan 1918-1919-yillarda yozilgan “Mezon uz-zamon” asarida ham tarixiy tafakkur va ruh ufurib turadi. Ayniqsa, xalqimizning madaniy o’sish jarayonlariga oid tarixiy ma’lumotlar uquvchini befarq qoldirmaydi. Ibrat “Mezon uz-zamon” deganda tarixiy jarayonlar asrlar, zamonlar orasidagi tarozini nazarda tutib, vaqtning o’tishi va insoniyat dunyoqarashining o’zgarishlari, ya’ni madaniy yutuqlari, buning natijasida zamon tarozisining xalqlardan katta tamaddunlarni talab qilishligini yoritishga harakat kilgan.

Xulosa sifatida aytilganda jadid olimlari tomonidan o’z davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ko’plab ijtimoiy muammolar ilmiy yoki badiiy janrda xalqqa yetkazish a’lo darajada bo’lgan. Bu orqali o’lkadagi yoshlarni o’z tarixining kelib chiqish va unda bo’lib o’tgan voqea-xodisalardan xabardor bo’lish hamda tarixdan saboq chiqarish ruhida tarbiyalash masalasiga urg’u berilgan. Bu orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida kelajakka intilib yashash xissini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Nazorat savollari:

1. Jadidlarning tarix faniga oid qanday ilmiy asarlar yaratgan?
2. “Amaliyoti islom” asari haqida nimalar bilasiz?
3. Islom tarixiga oid qaysi jadidlar ilmiy asar yaratganlar?
4. Buxoro jadidlarining tarix faniga oid qanday asarlar yaratilib ularda qanday masalalar ko’tarilgan?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Jadidchilik harakati, milliy uyg’onish, jadid ulamolari, Risolayi jug‘rofiyai umroniy (Aholi geografiyasiga kirish, 1905), Muntahabi jug‘rofiyayi umumiy (Qisqacha umumiy geografiya, 1906), Kitobat ul-atfol, “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909), “Sayohat xotiralari”, Padarkush (1911) tarixiy romani hamda tarix ilmiga oid “Turkiston”, “Sherdor madrasasi”, “Tarixi ixtiroyi bashar”, “Turkiston tarixi kerak”, ”Ismoilbek hazratlari”

Mavzuga oid test savollari:

1. …….. takidlaganidek, “Tarix millatlarning o’tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o’rganaturg’on ilmdir”?

a) Cho’lpon
b) Abdurauf Fitrat
c) Abdulla Qodiriy
d) Nosirxonto’ra

2. Behbudiyning 1908-yilda bosilgan qaysi asari o’zbek filologiyasi tarixini o’rganishda muhim manbalardan sanaladi?

a) “Kitobat-ul Atfol”
b) “Turkiston tarixi kerak”
c) “Tarixi ixtiroyi bashar”,
d) “Turkiston”

3. “Po’rtug’oliyo inqilobi” asarining muallifi Abdulla Avloniy qaysi hudud jadidlaridan bo’lgan?

a) Farg’ona
b) Toshkent
c) Samarqand
d) Xorazm

4. “O’rta Osiyo tarixining islom davri” asari kim tomonidan yozilgan?

b) Abdurauf Fitrat
c) Cho’lpon
d) Munavvar qori
d) Ahmad Zaki Validiy

5. 1909-yilda Istambulda nashr etilgan “Munozara” asari muallifi to’g’ri keltirilgan qatorni toping?

a) Munavvar Qori
b) Abdurauf Fitrat
c) Mahmudxo’ja Behbudiy
d) Abdulla Avloniy

6-Mavzu: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH UCHUN KURASHI

REJA:

1. **1917-yil fevral inqilobi va uning Turkiston o'lkasiga ta'siri.**
2. **Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va unda jadidlarning ishtiroki.**
3. **Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi.**

Rossiyadagi fevral inqilobi, 300 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag'darilishi o'lkadagi taraqqiyparvar kuchlar tomonidan ham zo'r hursandchilik bilan qarshi olindi.

1917-yilda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi eng muhim masalalardan biri, bu Turkistonda yangi boshqaruv usulidagi davlatchilikni tashkil etish edi. O'sha tarixiy shart-sharoitlarda milliy davlatchilikka ega bo'lish g'oyasi turli tashkilot va partiyalarning o'zaro kurashida asosiy qurolga aylangan edi. Jadidlarning intilishlari Turkistonda federatsiya asosida milliy-demokratik davlatchilikni barpo etishga qaratilgan edi. Jadidlarning muxtoriyat (avtonomiya), davlatchilik to'g'risidagi g'oyalari o'sha paytdagi Rossiyada mavjud siyosiy-ijtimoiy va inqilobiy ahvol bilan bog'liq holda shakllanib keldi. Ular mustamlaka xalqlarning Rossiyadan butunlay mustaqil bo'lib chiqib ketishlarini hali kun tartibiga qo'yolmagan edilar. Chunki Rossiyadek qudratli imperiya changalidan asta-sekinlik bilan, oqilona nozik siyosat yurgizish orqali butunlay mustaqillikkka erishish mumkinligini jadidlar yaxshi anglaganlar. Mahalliy ilg'or ziyolilar zudlik bilan milliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar[30].

1917-yil mart oyining boshlarida o'lka musulmon ziyolilarining "Sho'roi Islomiya" jamiyati tuzildi. Bu tashkilotning vujudga kelishi tasodifiy bo'lmay, balki Turkiston xalqlari siyosiy fikrlari tadrijiy rivojlanishining qonuniy mahsuli edi. Uning tarkibini turli xil dunyoqarashdagi, biroq, milliy ozodlik g'oyalarini o'zlarining asosiy maqsadi deb bilgan o'lka ziyolilari tashkil qilar edi.

Ushbu tashkilotning yuzaga kelishida Turkiston jadidlari muhim rol o'ynadilar. Taniqli jadid Mirmulla Shermuhammad o'g'li dastlabki onlardanoq barchani "Sho'roi Islomiya"ni qo'llab-quvvatlashga va hamjihatlikka da'vat etgan edi: "...Aziz dindoshlar! Ushbu vaqt, g'oyat muhim. Hamda har minutdan bekor o'tkarmasdan ishga tutunarlik vaqt. Taassub, jaholat, nifoqlarni oramizdan ko'tarub, bir birimiz ila qo'l

[30] https://www.researchgate.net/publication/365029202_Istiqlol_yo'lida_jon_fido_qilgan_millatimiz_fidoyilari

ushlashub ittifoq uzra qusurlarimizni maydong'a qo'ymoq va uni choralarini so'ylamoqg'a tashabbus etmak kerak. Tafarruqalik balosi, ittifoqsizlik kasallari, bizlarni har bir taraqqiylarimiz sad chekkanlarin hayolimizdan chiqarmayluk. "Sho'roi Islomiya"g'a moddiy va ma'naviy jihatlardan yordam berub olarni quvvat topmog'ig'a bor himmatimizni sarf etmog'imiz kerak!..."[31].

Tez orada turli shaharlarda "Sho'roi Islomiya"ning sho'balari tashkil topdi. 1917-yil 25-mayda Qo'qonda Farg'ona viloyati musulmonlari syezdi bo'lib o'tdi. Viloyat "Sho'roi Islomiya" tashkiloti ushbu syezdning tashkilotchilaridan bo'ldi. S'ezdda 42 musulmon tashkilotidan 98 delegat ishtirok etdi. Prezidiumga: S. Akaev, K. Rahmonberdiev, T. Norbo'tabekov, O. Mahmudov, A. Ziyoev, YA. YAhyoxonov, A. Umarboevlar saylandilar. S'ezd o'lka "Sho'roi Islomiya"siga viloyatdan ikki kishi: Mirodil Mirzaahmedov va Olimxonto'rani vakil etib sayladi. T. Norbo'tabekov esa, Farg'ona viloyatidan Muvaqqat hukumat Turkiston komiteti huzuridagi majlisga a'zo sifatida saylandi[32].

1917-yilning mart oyida Qo'qonda I-musulmon madaniy-ma'rifiy jamiyati tuzildi. 1917-yilning 20-martida Qo'qonda bo'lib o'tgan musulmon fuqoralarining umumiy yig'ilishida "Musulmon madaniy-ma'rifiy jamiyati" tuzilganligi e'lon qilinadi va bu jamiyat aprel oyida Farg'ona viloyati harbiy gubernatorligi tamonidan rasman ro'yxatdan o'tkaziladi. 20-mart yig'ilishi qaydnomasida ko'rsatilganidek, jamiyatning asosiy maqsadi musulmon aholisi orasida maorif va madaniyatni yoyish hamda ularning yanada jipslashtirishdan iborat bo'lgan. Yig'ilishda jamiyat raisi, boshqaruv hay'ati saylangan. Tashkilot Nizomida ko'rsatilishicha, jamiyat a'zolari va ularning oilalari o'rtasida madaniy ishlarni olib borish, ularning ijtimoiy holatlarini yaxshilashga intilish asosiy maqsad va vazifalardandir. Jamiyat quyidagi huquqlarga ega bo'lgan: bolalar va kattalar uchun har xil turdagi o'quv muassasalari, ya'ni umumta'lim va hunar maktablari, kutubxona va klublar ochish; spektakllar va ma'ruzalar o'qishni tashkil qilish; o'z ko'chmas mulkiga ega bo'lish; har xil baxtsiz hodisalar oqibatida zarar ko'rgan a'zolarning oilalariga moddiy yordam ko'rsatish va boshqalar. Jamiyat haqiqiy va faxriy a'zolardan tashkil topgan. Haqiqiy a'zolikka jinsidan qat'iy nazar, a'zolik badalini to'lovchi fuqarolar qabul qilingan.

[31] Mirmulla Shermuhammadiy. Ittifoq zamoni // Najot. 1917 yil 31 mart.

[32] Usmanova G.S. Jadidlarining Turkiston muxtoriyatini tashkil etishdagi ishtiroki. "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy adqiqotlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2022. –B. 221.

Faxriy a’zolikka esa jamiyatning umumiy yig’ilishi qarori bilan qabul qilingan. Tashkilot jamg’armasi a’zolik badallari va hayriya mablag’lari hisobidan to’plangan[33].

Andijon shahrida avgust oyining boshlarida musulmon hunar ahlining “Sanoyi ul-islom” sho’rosi tuzildi. Unga 1500 kishi a’zo bo’lib kirdi. Shahar Dumasi uchun bo’ladigan saylovlarga barcha tashkilotlar tomonidan qizg’in tayyorgarliklar ko’rildi. 14-17-iyul kunlari Andijonda uezd-shahar musulmon tashkilotlari “Sho’roi Islomiya”, “Muftah ul-maorif”, “Havaskoroni maorif” va boshqalarning syezdi bo’lib o’tdi. S’ezdda 11 ta masala ko’rildi: ya’ni, Qozonda bo’ladigan Butunrossiya Musulmonlari syezdiga delegatlar yuborish; Ta’sis Majlisi uchun bo’ladigan saylovlarga mahalliy aholini tayyorlash uchun uezdlarga tashviqotchilar yuborish; aholi ro’yxati haqida, shahar Dumasi saylovlarida ayollarning ishtiroki va h.z[34].

Butun Turkistonda bo’lgani kabi, Farg’ona vodiysida ham jadidlar tomonidan barcha mahalliy jamiyatlarni yagona tashkilot qilib birlashtirish harakatlari davom etdi. 12-14-iyul kunlari Skobelev shahrida Farg’ona viloyat musulmon tashkilotlari vakillarining navbatdagi syezdi bo’lib o’tdi. Ushbu syezdda 137 delegat ishtirok etdi. Anjuman barcha musulmon tashkilotlarini siyosiy jihatdan birlashishga chaqirdi.

Ushbu syezdning muhim ahamiyati, “Turk Adami Markaziyati” firqasining tuzish haqida qaror qabul qilinishi bo’ldi. Delegatlar tuzilajak firqaning nizomnomasi va maromnomasi loyihasi bilan qisqacha tanishtirildilar. Ushbu qonuniy hujjatlarni ishlab chiqishda farg’onalik jadid va ulamolardan Kamoluddin qozi Rahmonberdi o’g’li, Mullo Muhiddin, Maxdum a’lam mullo Muhammad, Mullo Boqi Oxund domullo Odilboy o’g’li, Mullo Nuriddin A’lam Yo’ldoshxo’ja eshon o’g’li, Mullo Muhammadjon Kamoljonboef, Mirzo Abdulqodirbek Mirzoahmad Qushbegiev, Obidjon Mahmudov, Mirodil Mirzoahmad o’g’li ishtirok etdilar[35].

Turkistonning ko’plab shaharlarida yangi partiyaning tashkiliy yig’ilishlari bo’lib o’tdi. Jumladan, 23-avgust kuni Andijonda “Havaskoroni maorif”, “Turon”, “Talabalar jamiyati” tashkilotlari vakillari tomonidan “Turk Adami Markaziyati” firqasining Muvaqqat

[33] Norqulov N. Muxtoriyatning tugatilishi // Fan va Turmush. 1990. №8.

[34] Usmanova G.S. Jadidlarining Turkiston muxtoriyatini tashkil etishdagi ishtiroki. “Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy adqiqotlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2022. –B. 222.

[35] Turkistonda xalq jumhuriyati // Fan va Turmush. 1990 yil №7. B.8.

qo’mitasi tuzildi. Uning tarkibiga Xusan eshonxo’ja, Sohib afandi, Isroil Yusufzoda va boshqalar saylandilar.

20-avgustda Marg’ilon shahrida 2000 kishilik miting bo’lib o’tdi. Unda mahalliy “Sho’roi Islomiya” tashkiloti faollari yig’ilganlarni shaharda federalistlar firqasi sho’’basini tuzishga chaqirdilar. Taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan ishlab chiqilgan firqaning maromnomasini o’lkada demokratik ko’rinishdagi davlat qurishning nazariy asosi edi deyish mumkin. Bu fikrni Maromnomaning quyidagi bandlari bilan izohlash mumkin: “Firqaning maqsadi:

1) Rusiyada mahalliy va milliy adami markaziyat (federatsiya) asosi uzra Xalq Jumhuriyati tashkil etmakdur.

2) Firqa Turkiston, Qirg’iziston, Qofqoz va Boshqirdiston qit’alari (o’lkalari) uchun va boshqa milliy va mahalliy muxtoriyat, Idil bo’yi ila Qrim totorlari uchun va boshqa.

3) Rusiyada yashaydurgon turk qavmlari uchun milliy muxtoriyat talab qiladur...

4) Millatning yigirma yoshga etub, aqliyat paydo qilg’on har bir fardi: er bo’lsun, xotun bo’lsun- sinf, din va mazhab ayirmasig’a boqmasdan saylamak va saylanmak haqina molikdur.

5) Yuqorida mazkur barcha muxtoriyatli qit’alar markaziy hukumat ila Vatan mudofaasi, pul chiqarmak, boj va xorijiy hukumatlar ila munosabatda bo’lmoq xususlarida aloqa va irtibotini(bog’liqlikni) muhofaza qilur.

6) Muxtoriyatli qit’alar dohiliy mas’alalar (idoriy, moliy, shar’iy, madaniy, adliy va maorif ishlari)da mustaqildur...”.

Demak, demokratik Rossiya tarkibida muxtoriyat tashkil qilish uchun kurash 1917-yil davomida taraqqiyparvarlarning asosiy maqsad-intilishlari bo’ldi.

O’lkadagi demokratik jarayonlar rivojida vodiydagi qirg’iz milliy jamiyatlari ham faol qatnashdilar. 1917-yilning 17-iyunida Andijonda “Elatiya” jamiyati tuzilib, uning rahbar hay’atiga Kenja Ali Do’stov, Sulaymon Kelganboev, Botirxon Meirbekov va boshqalar a’zo bo’lib kirdilar. Jamiyat o’z oldiga quyidagi vazifalarni qo’ygan edi:

1) Ko’chmanchi aholini Rossiyadagi yangi davlat tuzumi g’oyalari bilan tanishtirish;

2) Ta’sis Majlisiga tayyorgarlik;

3) Yangi ijtimoiy-siyosiy jamiyat uchun tayanch bo’luvchi jamoatchi kuchlarni tashkil qilish;

4) Qirg’izlar orasida huquqiy-tartibotni joriy qilish;

5) qirg’iz, qipchoq va qozoqlarni o’z milliy va siyosiy-iqtisodiy manfaatlari himoyasi uchun yagona ittifoqqa birlashtirish g’oyalarini tashviq qilish;

6) Gazeta tashkil qilish va h.z.

Vodiyning Andijon, Namangan, Skobelev kabi shaharlarida oktyabr voqealari arafasida ham o’lkadagi milliy harakatlar rivojlanish jarayonini o’zida ifoda etgan ko’plab yig’inlar bo’lib o’tdi.

Biroq, 1917-yil oktyabr-noyabr oyiga kelganda o’lkadagi siyosiy vaziyat keskin o’zgardi. Petrogradda hokimiyatni bolsheviklar tomonidan zo’rlik bilan qo’lga olinishi Turkiston taraqqiyparvarlarini o’z rejalarini o’zgartirishga majbur etdi. Oradan ko’p o’tmay, Toshkentda 15-22-noyabr kunlari ishchi, soldat va krestyan deputatlari Sovetlarining III-o’lka syezdi bo’lib o’tdi. S’ezd so’l eser, bolshevik va maksimalistlardan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (raisi-F.I. Kolesov) tuzilganligini e’lon qiladi. Hukumat tarkibiga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti dastlabki kunlardanoq o’zining shovinistik, yangicha ko’rinishdagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Yangi hukumat mahalliy aholiga past nuqtai nazar bilan qarab, umumiy aholining 95% idan ortig’ini tashkil etuvchi erli millat vakillarini hukumatga yaqinlashtirmaslik, ularning diniy va milliy urf-odat va an’analarini mensimaslik kabi siyosatni olib bordi. Bundan norozi bo’lgan o’lka taraqqiyparvarlari kutilayotgan Ta’sis Majlisidan umidlarini uzdilar hamda faoliyatlarini sharoitga moslashtirgan holda davom ettirdilar.

“Sho’roi Islomiya” va boshqa mahalliy tashkilotlarning tashabbusi bilan 1917-yil 26-29-noyabr kunlari Qo’qonda o’lka musulmonlarining IV-favqulodda syezdi bo’lib o’tdi. S’ezd ishida Turkistonning barcha hududlaridan 300 dan, ortiq jumladan, rus tashkilotlari vakillaridan ham delegatlar ishtirok etdi.

27-noyabr kuni syezd Ta’sis Majlisining chaqirilishiga hech qanday umid qolmaganligi va yagona yo’l muxtoriyat e’lon qilish ekanligini e’tirof etgan holda, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e’lon qildi.

Sovetlarning III O’lka syezdi shovinistik qarorlariga qarama-qarshi o’laroq musulmon qurultoyi o’z ishining barcha bosqichlarida chinakam baynalmilalchilik tamoyili, o’lkaning ko’p millatli, shu jumladan evropalik qismi aholisi manfaatlarini hisobga olishdan kelib chiqdi. Bunday insonparvarlik yondashuvi IV musulmon qurultoyi ochilgan paytdanoq namoyon bo’ldi. Jumladan, Mahmudxo’ja Behbudiy

syezdning huquqiy asosga egaligi haqidagi nutqida shuni alohida ta’kidladiki, “S’ezdda Turkistonning evropalik aholisi vakillari ishtirok etayotgani uchun ham syezd qarorlari yanada obro’lidir”. Mahmudxoja Behbudiy syezd hay’atiga turli musulmon, rus, yahudiy va hokazo guruhlardan vakillar kiritilishini taklif etdi. Undan keyin so’zga chiqqan Qo’qon vakili Obidjon Mahmudov ham “Hay’atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo’yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarni tanlash asosida kirishish” zaruriyati haqida gapirdi.

Qurultoyda Turkiston Muvaqqat Kengashi a’zolaridan Turkiston muxtoriyati hukumati (8 kishidan iborat) tuzildi. Yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko‘rsatilishi uchun ularga ham yana 4 o‘rin ajratildi. Hukumat tarkibiga Muhammadjon Tinishboyev (Bosh vazir va ichki ishlar vaziri), Islom Shoahmedov (Bosh vazir o‘rinbosari), Mustafo Cho‘qay (tashqi ishlar vaziri), Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (harbiy vazir), Hidoyatbek Agayev (yer va suv boyliklari vaziri), Obidjon Maxmudov (oziq-ovqat vaziri), Abdurahmon O‘razayev (ichki ishlar vazirining o‘rinbosari), Solomon Gersfeld (moliya vaziri) kiritildi. Keyinchalik hukumat tarkibida ayrim o‘zgarishlar yuz berdi. M. Tinishboyev Alash o‘rda Muxtoriyati faoliyatida qatnashish uchun Orenburgga jo‘nab ketgach (1917-yil), Mustafo Cho‘qay Bosh vazir lavozimini bajarishga kirishdi. Shoahmedov moliya vaziri (S. Gersfeld o‘rniga), Potelyaxov oziq-ovqat vaziri (O. Mahmudov o‘rniga), O. Mahmudov adliya vaziri, Nosirxon To‘ra maorif vaziri, Saidnosir Mirjalilov hukumat xazinachisi lavozimlarini egallashdi. Savodsiz bolshevik komissarlardan farqli ravishda hukumat a’zolari chuqur ma’lumotli taraqqiyparvar ziyolilar bo‘lib, ulardan 5 nafari huquqshunos edi. Turkiston Millat Majlisi 54 nafar (36 musulmon, 18 yevropalik) a’zodan iborat bo‘lishi kerakligi belgilandi. Qurultoy jarayonida 32 kishidan iborat Millat Majlisi saylandi.

1918-yil 10-11-yanvar kunlari Andijonda “Muayyan ul-islom” jamiyati idorasida musulmon jamoat tashkilotlarining syezdi bo’lib o’tdi. Delegatlar tomonidan uezd ma’muriyatidagi barcha shaxslardan Turkiston Muxtoriyati Muavqqat Hukumatini tan olganligi haqidagi tilxatni olish uchun syezd prezidiumi a’zolaridan maxsus komissiya tuzish haqida taklif bildirildi. Bundan tashqari, Muxtoriyatni qo’llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun har bir volostdan vakillarni jalb etgan holda xalq militsiyasini tashkil qilish haqida qaror qilindi[36].

[36] Usmanova G.S. Jadidlarining Turkiston muxtoriyatini tashkil etishdagi ishtiroki. “Jadidlarning ma’rifiy faoliyati: g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va sohaga oid zamonaviy adqiqotlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2022. –B. 224.

Bolsheviklar har qanday yo’l bilan bo’lsa ham, Turkiston Muxtoriyatiga xalqni qarshi qo’ymoqchi bo’ldilar. Bunga javoban, Farg’ona viloyati musulmon mehnatkashlarining syezdi (1917-y. dekabr) musulmon mehnatkashlarini barcha vositalar bilan Muxtoriyatni qo’llab quvvatlashlarini bildirdi.

Turkiston Muxtoriyatini Farg’ona vodiysi aholisi tomonidan qo’llab-quvvatlanganligi to’g’risida arxiv hujjatlari va milliy matbuot sahifalarida ko’plab ma’lumotlar berilgan. Jadidlar ushbu miting va namoyishlarni asosiy tashkilotchilari bo’ldilar.

Jumladan, 1-dekabrda Namangan uezdida 100 mingga qadar kishi ishtirok etgan namoyish bo’lib o’tdi. Namoyishchilarning bayroqlariga “Yashasun muxtoriyatli Turkiston va uning hukumati!” so’zlari yozilgan edi.

6-dekabrda Jalolobod volostiga qarashli Xonobod qishlog’ida ham Muxtoriyat e’lon etilishi munosabati bilan namoyish o’tkazildi. Bir necha mingdan ortiq kishi Fozilxon mozoridan to bozorga qadar yig’ilib turdi. Namoyishda Abdulla eshon va Huseyn Validiy so’zga chiqib, xalqqa Muxtoriyatning tashkil etilishi, maqsadlarini tushuntirishdi.

7-dekabrda Qo’qon shahrining 42 jamoat tashkilotlari nomidan yig’ilgan vakillarning qo’shma majlisi bo’lib o’tdi. Unda qabul qilingan qarorda ko’p millionli Turkiston xalqiga tabriklar yo’llandi.

Muxtoriyat hukumati tomonidan madaniy ma’rifiy ishlarni yaxshi yo’lga qo’yish maqsadida maxsus “Musulmon xalq maorifi” bo’limi tashkil qilindi. Uning rahbari etib, Farg’ona “Sho’roi Islomiya”sining faollaridan Sayyid Nosirxonto’ra tayinlandi.

Biroq, hujjatli ma’lumotlarga ko’ra, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi va uning o’lka mahalliy aholisi manfaatlariga mos tushuvchi siyosati bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda kutib olindi. Voqealar rivoji Qo’qonda tuzilgan Muxtor Hukumatning 1918-yilning fevral oyida qonga botirilishi bilan xotima topdi. 18-fevraldan 19-fevralga o’tar kechasi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan yuborilgan 11 eshelon harbiy qismlar Qo’qonga etib keldi. Otliq askarlar, artilleriya va piyoda qismlari bilan birga harbiy komissar E. O. Perfil’ev ham keldi. Tish tirnog’i bilan qurollangan bolsheviklar qo’shini Turkiston Muxtoriyatini zo’rlik bilan tor-mor qildi.

O‘lka bolsheviklari Turkiston muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston o‘lkasi ishchi, soldat va krestyan deputatlarining favqulodda 4-syezdi (Toshkent shahri, 1918-yil 19-26 yanvar)da muxtoriyatga munosabat masalasi asosiy o‘rinda turdi. S’yezd

Turkiston muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari holda deb hisoblab, hatto vazirlarni qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. 1918-yil 30-yanvarda Turkiston o‘lkasi XKS Turkiston muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Toshkentdagi bolsheviklar buning uchun qizil gvardiyachilar otryadlari va arman dashnoqlari drujinalaridan (qarang Dashnaksutyun) keng foydalandi. Milliy matbuotning yozishicha, 31-yanvar (yangi hisob bilan 13-fevral)da janglar boshlandi. Turkiston o‘lkasi XKS 1918-yil 14-fevralda (yangi hisob bilan) Farg‘ona viloyatida harbiy holat e’lon qildi.

Dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo‘shinidan tashqari qo‘qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Asosan bolta, cho‘kich, tayoq ko‘targan xaloyiqning soni 10.000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo‘qon shahriga qilgan hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Shu orada muxtoriyatchilar safida parokandalik yuz berdi (18-fevralda ulamolarning tazyiqi bilan Mustafo Cho‘qay iste’foga chiqdi va ba’zi vazirlar singari Qo‘qonni tark etdi. Ayrim vazirlar (H.Agayev va boshqalar) jangda halok bo‘ldi. Hukumatning boshqa a’zolari (O.Mahmudov, Nosirxon to‘ra, S.Gersfeld, U.Asadullaxo‘jayev, I.Shoahmedov) esa keyinchalik bolsheviklar tomonidan qo‘lga olindi.

Qo‘qon shahar qo‘rboshi mirshablari boshlig‘i Kichik Ergash 18-fevraldan boshlab amalda Turkiston muxtoriyati hukumatining rahbariga aylandi. 19-fevralga o‘tar kechasi Toshkentdan Turkiston o‘lkasi harbiy komissari Ye. Perfilyev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon qo‘shin yetib keldi. 19-fevraldan boshlab 3 kun davomida qizil askarlar shahar ustiga to‘plardan yondiruvchi snaryadlar yog‘dirishdi. Shahar butunlay vayron bo‘ldi va o‘tolov ichida qoldi. Qo‘qonning o‘zida 3 kun davomida 10 mingdan ziyod kishi o‘ldirildi. Muxtoriyat qo‘shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash boshchiligida (200-300 yigit) Qo‘qon yaqinidagi Bachqir qishlog‘iga chekindi va mudofaa istehkomlarini qurib, dushman hujumini qaytardi. Qizil gvardiyachilar Qo‘qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o‘ldirishni avj oldirishdi. Sovet rejimi Turkiston muxtoriyati hukumatini 19 fevralda qurol kuchi bilan ag‘darib tashladi.

1918-yil 22-fevralda Qo‘qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan “tinchlik shartnomasi” imzolandi. Turkiston muxtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko‘rgan bo‘lsa ham, u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiklol uchun kurashga da’vat etdi. Bu hukumatning ag‘darilishi turkistonliklar tomonidan sovet

Rossiyasining Turkistonga nisbatan tajovuzkor rejalari mavjudligining yana bir dalili sifatida qabul qilindi. Turkistonliklar tinch yo‘l (parlament) bilan milliy davlatchilikni qayta tiklash mumkin emasligini tushunib, 1918-yil fevral oyining oxirida qo‘llariga qurol olgan holatda Turkistonda sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakatni boshlab yubordilar. Sovet tuzumi davrida Turkiston muxtoriyatining mohiyati soxtalashtirilib, u tor ma’nodagi Qo‘qon muxtoriyati bilan almashtirildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va shundan keyin mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj olishi, vodiyda istiqlolchilik harakatining kelib chiqishiga, Vatan va millatning, avvalo Farg’onaning asl farzandlarini erk va ozodlik uchun qo’llariga qurol olishga majbur etdi.

Nazorat savollari:

1. Turkiston Muxtoriyati qachon tashkil etilgan?
2. 1917-yil fevral inqilobida qanday voqealar yuz bergan?
3. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va unda jadidlarning ishtiroki qanday edi?
4. 1917-yil fevral inqilobi natijasida Rossiyada qaysu sulola faoliyati tugatilgan?
5. “Sho’roi Islomiya” va “Sho’roi ulamo” haqida nimalarni bilasiz?
6. Turkiston Muxtoriyatini saqlab qolish borasida jasorat ko’rsatgan qaysi qo’rboshilar haqida ma’lumotga egasiz?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Milliy davlatchilik, “Sho’roi Islomiya”, “Sho’roi ulamo”, fevral inqilobi, diniy xurofot, konstitutsion parlament, bol’sheviklar, qurultoy, “Muftah ul-maorif”, “Havaskoroni maorif”, “Turk Adami Markaziyati”, “Elatiya”, O’lka syezdi, Muvaqqat Kengashi, Turkiston Millat Majlisi.

Mavzuga oid test savollari:

1. Rossiyada Romanovlar sulolasi imperiya taxtini necha yil boshqargan?

a) 300
b) 250
c) 350
d) 320

2. 1917-yil mart oyining boshlarida o’lka musulmon ziyolilarining …….. jamiyati tuzildi?

a) “Sho’roi Islomiya”

b) “Sho’roi ulamo”

c) “Muftah ul-maorif”

d) “Elatiya”

3. Qo’qonda Farg’ona viloyati musulmonlari syezdi bo’lib qachon bo’lib o’tdi?

a) 1917-yil 25-mayda

b) 1917-yil 22-mayda

c) 1917-yil 25-noyabr

d) 1917-yil 25-iyun

4. 1917-yilning 20-martida Qo’qonda bo’lib o’tgan musulmon fuqoralarining umumiy yig’ilishida tuzilganligi e’lon qilinadi?

a) “Musulmon madaniy-ma’rifiy jamiyati”

b) “Sho’roi ulamo”

c) “Muftah ul-maorif”

d) “Elatiya”

5. Turkiston Millat Majlisi necha kishidan iborat bo’lgan?

a) 54

b) 56

c) 12

d) 36

7-Mavzu: BUXORO AMIRLIGI JADIDCHILIK HARAKATI

Reja:

1. Buxoro amirligidagi jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari

2. Buxorodagi taraqqiyparvarlik harakatining turli guruhlari va ular o'rtasidagi munosabatlar

3. Jadidlarning davlat boshqaruvi sohasidagi siyosiy islohotlari.

Sharq mamlakatlari singari Buxoro amirligida ham XIX asr boshlarida islohotchilik harakati rivojlana bordi. Bu harakatlar O'rta Osiyo xonliklariga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Buxoro amirligida ham bu davrda islom g'oyalari islohotchiligi, madrasa ta'lim tizimini o'zgartirish bilan bog'liq harakatlar yuzaga kela boshladi. Bu o'lkaga tashrif buyurgan qirim-tatar muallimlarning xizmatlari katta bo'lib, bular ichida Tataristonlik taniqli ulamolar Abu Nasr Kursaviy (1776-1812) va Shahobiddin Marjoniy (1818-1889) kabilarning xizmatlari alohida ahamiyatga bo'lgan. Ularning sa'y-harakati bilan Buxoro ijtimoiy-madaniy hayotida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi hamda mahalliy ziyolilarning faol harakatga kelishiga turtki bo'ldi.

Jadid Abu Nasr Kursaviy o'z asarlari orqali islom dinining asosiy tamoyillarini Qur'oni karim va hadislar orqali izohlab, dinga kirib qolgan xatoliklarni tuzatish hamda ulardan voz kechish zarurligini targ'ib qildi. Ammo uning bu g'oyalari johil ulamolarning noroziligiga sabab bo'ldi va Buxoro amirligida uzoq vaqt davomida asarlaridan foydalanish taqiqlab qo'yildi. Abu Nasr vafotidan keyin 30 yil o'tib, Shahobiddin Marjoniy Buxoroda maxfiy ravishda Kursaviy asarlari bilan tanishib chiqdi va uning maslakdoshiga aylandi. Shundan so'ng Shahobiddin Marjoniy, Ahmad Donish (1827-1897) bilan hamkorlikda Buxoroda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda jonbozlik ko'rsatdi. U domla Fozil, Mo'minxo'ja Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniylar bilan birgalikda islohotchilik g'oyalari aks etgan dasturni ishlab chiqdilar va madrasalarda diniy darslar bilan bir qatorda o'rta asr islom madaniyati davridagidek dunyoviy darslarni o'tishni shart qilib qo'ydilar. Har ikkala ma'rifatparvar ham Buxoroda o'z maqsadiga erisholmagan bo'lsada, ularning islohotchilik faoliyati XX asr boshlarida Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va rivojlanib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

XIX asr oxirida dunyo davlatlarining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotida vujudga kelgan o'zgarishlar, texnika taraqqiyotidagi yangiliklar

Buxoro amirligida barcha sohalarni modernizatsiya qilish zaruratini vujudga keltirdi. Buxoro amiri Said Abdulahadxon (1859-1910) hokimiyat tepasiga kelgach, islohotlar o'tkazishni boshlaydi. Bu paytda mamlakat ijtimoiy hayotida ham bir qancha kamchiliklar mavjud bo'lib, amaldorlar o'rtasida poraxo'rlik, ta'magirlik avj olgan, jamiyatda giyohvandlik, bachchabozlik, qimorbozlik keng tarqalgan edi. Bu illatlarga barham berish maqsadida Amir Abdulahadxon sud-huquq tizimini tartibga solishga kirishdi hamda ta'magirlik va poraxo'rlik qilgan amaldorlarni lavozimidan chetlashtirdi. Nasha chekish, ko'knor iste'mol qilish, bachchabozlik, qul savdosi, qatl qilish va tan jazolari amir buyrug'i bilan rasman ta'qiqlandi. 1886-yilda amirlikdagi zindonlarning bir qismini yopishga buyruq berdi. Buxoro shahridagi kanaxona ko'mib tashlandi. Shuningdek, u aholi sog'ligini saqlashga qaratilgan bir qator tadbirlarni ham amalga oshirdi.

Maktab va madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitishga e'tiborni kuchaytirish kabi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan ayrim hukumat amaldorlari, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarrislar va talabalar qo'shildi. Ular safida Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Xoja Rofe, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Mukammal Burhon va Atoxo'ja kabilar bo'lgan.

Jumladan, 1897-yili Mulla Jo‘raboy Buxoro shahrida yangi usul maktabi ochgan va Istanbuldan olib kelgan qo‘llanmalar, darsliklar, xaritalar, globuslardan foydalangan[37].

Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida Buxoro shahrida jadid maktablari vujudga kela boshlaydi. Dastlab Badriddin qozikalonning ruxsati bilan 1897-yilda Mulla Jo'raboy va 1907-yilda tatar ziyolisi Nizomiddin Sobitiy yangi usul maktablarini ochadilar. 1908-yilning oktyabrida esa Buxoro taraqqiyparvarlari Sadriddin Ayniy va Abduvohid Munzim tomonidan xuddi shunday maktablar tashkil etiladi.

Abduvohid Munzim o'z uyida tojik tilida dars beruvchi ilk usuli jadid maktabini ochadi. Bir yildan so'ng ushbu maktab o'quvchilari tantanali sur'atda imtihon topshiradi. O'quvchilarning bilimidan ta'sirlangan keksa ziyoli Bo'riboy afandi ko'ziga yosh olib, majlis ahliga bunday murojaat qiladi: "Men umidvormanki, o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqe' bo'lur, vatan avlodi bu kuni razolat va safolatdan qutulur, esizki, u kunni men ko'ra olmayman, siz yoshlar ko'rasiz.

[37] Mo'ydinova D.J. Turkiston va Sharq mamlakatlari taraqqiyparvarlarining o‘zaro aloqalari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragi). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023. -16.

Mulla Qamariddin boshchiligida ulamolar bu holatdan norozi bo'lib, jadidlar maktabiga qarshi fitna qo'zg'atishga kirishadilar. 1909-yil 26-sentyabrda Ostonaqul qo'shbegi, Baqoxo'ja qozikalon va Burhoniddin rais topshirig'iga binoan Abduvohid Munzim maktabi yopib qo'yiladi. Shu yili Buxoro jadidlaridan Abulqosim Sayfullazoda (1873-1923) yangi usul maktabi ochadi. 1909-1910-yillarda faoliyat yuritgan ushbu maktabda 100-150 nafar o'quvchi tahsil olgan. Abulqosim maktabining o'ziga xos jihati shuki, u iste'dodli o'quvchilar bilan alohida shug'ullanib, muallimlikka tayyorlar edi. Ammo bu maktab ham tez orada yopib qo'yiladi. Biroq Abulqosim kechalari yashirin suratda xususiy uylarda bolalarni to'plab, o'qitishda davom etadi. Ammo bu xayrli ish eski tartib tarafdori bo'lgan "qadimchilar" qarshiligiga uchradi. Mulla Qamar, Mulla Xolmurod, Mulla Abdurasul Zakun va Mulla Abdurauf mudarris, ulamolar vakili sifatida, qushbegidan maktabni yopishni qat'iy talab qildi.

O'z davrida Buxoro jadidlari o'z g'oyalarini ilm kishilari orasida emas hatto hukumat doirasida ham yoyishga erisha olgan. Hukumdor Amir Olimxonning islohot farmonlari, ulamolar va ularning jadidchilik harakatiga munosabati, taraqqiyparvarlarning g'oyaviy qarashlari, yangi usul maktablari haqida matbuotdagi tortishuvlar masalalari ko'rib chiqiladi.

Buxoro amirligining so'nggi hukmdori Said Olimxon (1881-1944) bo'lib, uning hukmronlik davri 1910-1920-yillarni o'z ichiga oladi. Amir Olimxon 1910-yil 29-dekabrda birinchi farmonni imzolaydi. Unda saroyning tortiq va peshkashlarini taqiqlash; farsax puli solig'ini tayinlash; yer solig'ini o'ndan bir hissaga kamaytirish; harbiylar oylik maoshini oshirish ko'zda tutilgan edi.

Amir Olimxon 1910-1911-yillarida ma'muriy boshqaruvda ham o'zgarishlar qilib, Qorategin, Hisor, Ko'lob, Sariosiyo, Sherobod, Chorjo'y, Boysun, Shahrisabz viloyatlarining beklarini lavozimidan bo'shatdi va o'rniga boshqa kishilarni tayinlaydi.

Amir Olimxon xalqni iqtisodiy falokat yoqasiga boshlayotgan isrofli to'ylar va oilaviy marosimlarni tugatishga alohida e'tibor qaratdi va 1911-yil mart oyida "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" farmon, 1916-yil 5-iyunda esa to'ylardagi isrofgarchiliklar, xususan, qand tarqatishni shariatga zid, deb fatvo chiqardi. Ushbu tadbirlar natijasida to'y kunlari qisqartirildi, bir xil ovqat pishirish belgilab qo'yildi, chopon kiydirishlar keskin kamaydi, qand tarqatish to'xtatildi hamda ko'pkarilar o'tkazilmaydigan bo'ldi.

Ushbu masalalarda hal etishda jadidlar amirga o’z maslahatlari berishga va bu maslahatlar amaliyotga joriy etilgan. Masalan, dastlabki vaqtlarda Buxoro amirligida maktab yopib qo’yilsa-da, jadidlarning g’ayrati zarracha susaymadi. 1909-yil dekabrda Sadriddin Ayniy, Abduvohid Munzim, Ahmadjon Hamdiy, Hamidxo’ja Mehriy, Hoji Rofe’, Mukammal Burhonovlar “Tarbiyai atfol” jamiyatini tuzadi. Ma’rifatparvarlar yashirin ish olib borib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro va G’ijduvonda jamiyatning 28 ta shaxobchasini ochdilar.

Jamiyat o’z faoliyati davomida:

1) ilmga tashna yoshlarga iqtisodiy va ma’naviy yordam ko’rsatib, ularni Rossiya hamda Turkiyada o’qitishga alohida e’tibor qaratdi;

2) Rossiyaning musulmon shaharlarida, Turkiya va Eronda chiquvchi matbuot nashrlari bilan buxoroliklarni tanishtirishga harakat qildi;

3) o’rinsiz sarf-xarajatlar, to’y va ma’rakalardagi isrofgarchiliklarga qarshi kurashdi;

4) amaldorlar, ulamolarning zolimligi, yulg’ichligini xalqqa tushuntirib, bu ishlar shariatga tamoman zidligini aqliy va naqliy dalillar bilan isbotlab bordi

Ushbu jamiyat Buxoroda ilk bor usuli jadid maktablarini darslik va o’quv qo’llanmalari bilan ta’minlovchi “Ma’rifat” shirkatini ochdi. Jamiyat qisqa fursat bo’lsa-da, o’zbek tilida “Turon”, “Buxoroi sharif” gazetalarini chiqarishga muvaffaq bo’ldi, bu nashrlar butun Turkiston o’lkasida e’tibor qozondi.

Bundan tashqari Amir Olimxon 1911-yil mart oyida “Ta’lim to’g’risida”gi farmonni imzoladi. Unga ko’ra, madrasa talabalariga turli hoshiyalar o’qitilmasligi, tafsir va hadis rasmiy dars sifatida o’qitilishi; davlat xazinasiga olingan vaqflardan yig’ilgan pullarga shaharning turli yerlarida maktablar qurish hamda ularga muallimlar tayinlash; ularga maktablarning vaqflaridan tashqari davlat xazinasidan yillik 120 so’m maosh tayinlash; tahsil uchun bolalardan pul olmaslik; maktablarga bir nozir tayinlash va u har oy maktabni taftish qilib amirga hisobot berishi belgilab qo’yildi.

Amir Olimxon sog’liqni saqlash sohasiga, ayniqsa, ayollar va bolalar salomatligiga alohida e’tibor qaratdi. Uning tashabbusi bilan 1911-yil iyul oyida Buxoro shahrida ayollar shifoxonasi ochilib, 1912-yilda uning yonida tug’ruqxona ham o’z faoliyatini boshlaydi. Shuningdek, 1913-1916-yillar davomida Eski Buxoro, Karki, Chorjo’y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda erkaklar va ayollar uchun

ambulatoriya punktlari va kasalxonalar qurdiradi. Amir Olimxon o’z hukmronligining 1910-1916-yillarida mamlakatning barcha sohalarini isloh qilishga qaratilgan farmonlar chiqarib, ularni amalga tadbiq etishga harakat qilgan.

Barcha musulmon davlatlarida bo’lganidek, Buxoro amirligi ham islomiy davlat bo’lib, jamiyatda ulamolarning mavqe yuqori edi. Ular davlatni boshqarishda Qur’oni karim va shariat qonunlariga so’zsiz bo’ysunganlar. Ulamolar amir tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi usul maktablari masalasida ikki guruhga bo’lingan edi. Birinchi guruh Muhammad Ikrom ibn Abdussalom Buxoriy (Ikrom Domla, 1847-1925) boshchiligidagi taraqqiyparvar ulamolar, ikkinchi guruh har bir yangilikka bid’at deb baho beruvchi, Yevropa fan va texnikasi yutuqlarini o’lkaga kiritilishiga mutlaqo qarshi bo’lgan mufti Abdurazzoq (1914 yil vafot etgan) boshchiligidagi qadimchi ulamolar edi. Ikrom Domla boshchiligidagi ulamolar Buxoro madrasalaridagi ta’lim dasturlarini tanqid qilib, ularni isloh qilish zarurligini ta’kidlab, jadid maktablarini qo’llab-quvvatlaganlar.

Mufti Abdurazzoq uning vafotidan so’ng mulla Qamariddin boshchiligidagi qadimchi ulamolar esa shariat me’yorlarini xalq turmush tarzida qat’iy ravishda saqlab qolishni rus ma’muriyatining shovinistik siyosatiga va provoslav missionerlik harakatiga qarshi muhim to’siq deb bilganlar. Mulla Qamariddin tomonidan tashkil etilgan musulmonlarning “Ittihod” jamiyati nafaqat Buxoroda, butun Turkiston hududida *“Kim musulmonlarga yordamlashsa, u Ollohni anglagandir”* shiori ostida siyosiy-diniy tashviqot olib borgan.

Buxoroda XIX asr ikkinchi yarmiga kelib, maktab va madrasalar tubdan isloh qilishga muhtoj bo’lib qolgan edi. Ma’rifatparvarlarning sa’y-harakati bilan yangi usul maktablari ochildi, ammo ular konservativ guruh qarshiligiga uchraydi. Ulamolar bunday maktablarni shariatga xilof deb hisoblashgan. Natijada yangi usul maktabdari jadidlar va qadimchilar o’rtasidagi tortishuvga sabab bo’lgan.

Jadid maktablarining tarafdorlari eski usulning kamchiliklarini, yangi usulning ahamiyatini ko’rsatish, maktablarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o’qitishga keng o’rin ajratishni yo’lga qo’yish maqsadida matbuotdan foydalanishdi. Chunki o’sha vaqtda gazeta va jurnallar xalq orasida targ’ibot vazifasini o’tovchi yagona vosita edi.

Jadid-qadim nizosi va ularni bartaraf etishga oid maqolalar Turkiston va Buxoro matbuot sahifalarida ham berib borildi. “Turon”, “Sadoi Turkiston” gazetalari hamda “Al-Isloh” va “Oyna” jurnallarida

e’lon qilingan maqolalarda mamlakat taraqqiyoti uchun ilm-fanga alohida e’tibor qaratish lozimligi, eskicha usulda dars berishdan voz kechib, zamon talabiga javob beradigan ta’lim muassasalarida dunyoviy fanlarga keng o’rin ajratish kerakligi targ’ib qilindi.

Aholi orasida yuqori nufuzga ega bo’lgan konservativ ulamolar o’z g’oyalarini targ’ib qilishlari uchun matbuotga ehtiyojlari yo’q edi. Ular har juma kuni peshin namoziga yig’ilgan xalqqa amri ma’ruf o’qib, yangi maktablarning jamiyat uchun zararli ekanini uqtirib, g’ayridinlarga qarshi norozilik kayfiyatini uyg’otar edilar.

Buxoro amirligida islohotchilik harakatining vujudga kelishida asl kasbi savdogar, tabib bo’lgan Mirzo Sirojiddin hakim buxoriyning ham alohida o’rni bor. Mirzo Sirojiddin 1877-yil 23-oktabrda Ismoilxo’ja otaliq mahallasida (hozirgi Mehtar Anbar ko’chasi) Hoji Abdurauf Mirzoxurdboy savdogar oilasida dunyoga kelgan. Hoji Abdurauf 12 yoshli o’g’li Mirzo Sirojiddinga savdo ishini va rus tilini o’rgatadi hamda 1890-1891-yillarda Yangi Buxoro shahrida ochilgan rus-tuzem maktabida ta’lim olishini ta’minlaydi. Mirzo Sirojiddin bu maktabda geografiya, ingliz tili va buxgalterlik ishini o’rganadi. 1891-yilda Hoji Abdurauf Mirzoxurd Parijda o’qib kelgan o’zbek o’qituvchisini 14 yoshli o’g’liga fransuz tilini o’rgatishi uchun yollaydi va Mirzo Sirojiddin 6 oy davomida fransuz tilini o’rganadi.

Mirzo Sirojiddin sayohatlari davomida Boku, Botumi, Istanbul, Vena, Sofiya, Sarayevo, Budapesht, Berlin, Belgrad, Parij, London, Bern, Syurix, Marsel, Varshava, Sankt-Peterburg va Moskva shaharlarida bo’lib, sanoat korxonalari, universitet, muzey, kutubxona va kasalxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog’liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta’lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak”, – deb o’z fikr-mulohazalarini taqdim etadi.

1905-yil 16-iyunda Buxoroga qaytib kelgan Mirzo Sirojiddin 1906-yil yana Eronga qaytgan va Tehron shahridagi amerikacha tibbiyot kollejiga o’qishga kirgan. O’qishni tamomlagach, kollejda o’qituvchilik qiladi, birozdan so’ng Mozandaron shahar kasalxonalarining birida shifokorlik faoliyatini boshlaydi va tez orada “doktor Mirxon” nomi bilan mashhur bo’ladi. 1909-yilda o’z yurtiga qaytgan Mirzo Sirojiddin Buxoro shahrida zamonaviy tibbiy xizmat ko’rsatuvchi xususiy shifoxona ochgan va umrining oxiriga qadar, tabiblik qilgan. Shifoxonasi haqida “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarida (Homiy bo’lgan) reklama e’loni berib, tibbiy maslahat va davolashni boylar

uchun 3 tanga, o’rta hollar uchun 2 tanga va kambag’allar uchun 1 tanga etib belgilab qo’yganini qayd qilgan. 1914-yil 17-yanvarda taraqqiyparvarlik harakatining yetakchisi va homiysi bo’lgan Mirzo Sirojiddin 37 yoshida Buxoro shahrida sil kasaliga chalinib vafot etgan.

XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada kechgan inqilobiy harakatlar, amirlikdagi ma’rifatparvarlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan.

1917-yil martda Yosh buxoroliklarning Markaziy qo’mitasi tashkil qilindi. Abduvohid Burhonov qo’mita raisi, Abdurauf Fitrat kotib, Usmon Xo’jayev xazinachi, Muhiddin Raf’at, Muso Saidjonov, Ota Xo’jayev, Ahmadjon Abdusaidov, Fayzulla Xo’jayev va Homidxo’jalar qo’mita a’zolari etib saylanadi. Ular Muvaqqat hukumat va Petrograddagi ishchi, askar deputatlari hukumatini Rossiya ozodligi bilan tabriklab, Buxoroda islohotlar uchun amirga bosim o’tkazishini so’raydi. Ammo bu harakatlar zoye ketadi.

Shundan so’ng F.Xo’jayev Abdurauf Fitrat va Usmon Xo’jayevni Muvaqqat hukumatni Buxorodagi ahvoldan xabardor qilish uchun Petrogradga jo’natadi. Nihoyat, amir islohot o’tkazishga qaror qiladi. Biroq qadimchi yetakchilardan Nizomiddin Urganjiy va qozikalon Burhoniddinlar qarshi chiqadi. Amir Olimxon va Nasrullo qushbegi ushbu masalada Yoshlar firqasi vakillari Mirza Muhiddin va eski taraqqiyparvar Hoji Mustafoqul bilan maslahatlashganida har ikkisi ham demokratik islohotlarni amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi.

1917-yil 7-aprel kuni Amir Olimxon islohotlar xususidagi farmonni imzoladi. Farmonda

1.xiroj, zakot va boshqa soliqlarni adolat asosida tartibga solish;

2. Rossiya bilan savdoga alohida e’tibor berish;

3. amaldorlar ustidan nazorat o’rnatish;

4. foydali ilmlarning taraqqiy etishi uchun shariatga muvofiq chora-tadbirlar ko’rish;

5. majlis saylash;

6. davlat xazinasini ta’sis qilish va amirlik byudjetini belgilash;

7. bosmaxona ochish;

8. qamoqda saqlanayotganlarni ozod qilish ko’zda tutilgan edi[38].

Farmonni qutlab, Yosh buxoroliklarning Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va O‘smon Xo‘ja noshchiligida shahar ko’chalarida jadidlar tinch namoyishlar o’tkaziladi. Ayni choqda, 1918-yil mart oyida Turkiston

[38] JAMOLOVA D. Buxoro jadidlari: islohot va tanazzul . “Tafakkur” jurnali, 2016-yil 2-son.

o‘lkasi XKS raisi Fyodor Kolesov qo‘mondonligidagi qizil askarlar mamlakat poytaxti Buxoro shahriga hujum uyushtirdilar.

Buning natijasida Fayzulla Xo‘jayevning ta’kidlashicha, Kolesov voqeasidan keyin amir mamlakatda 3000 kishini qatl qilgan. Buxorolik adib Sadriddin Ayniyning yozishicha, faqat poytaxt-eski Buxoro emas, balki G‘ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako‘l, Chorjo‘y, Xatirchi, Karmana, Qarshi, Shahrisabz bekliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayblanib nohaq o‘ldirildi. Qushbegi Nasrullobek buyrug’i bilan shoir Sadriddin Ayniy, yosh buxoroliklar Mirbobo, Mirzo Nazrullo 75-150 kaltak urib jazolandilar. Natijada amirning buyrug’i bilan jadidlar qamoqqa olina boshlaydi. Aksar jadidlar Yangi Buxoroga (Kogon)qochib, jon saqlaydi. Kogonda ular safiga Buxorodan avval chiqib ketgan yirik savdogar Muhiddin Mansurov o‘g‘illari (Abduqodir, Amin, Isom) va boshqalar bilan kelib qo‘shildi[39].

1918-yili Buxoro jadidlari ikkinchi marta qirg’inga uchradi. Amir 1500 jadidni o’ldirib, qolganlarini ta’qib etadi. Ma’rifatparvarlar bu safar Samarqand va Toshkentga borib o’rnashadi. Jadidlar o‘sha paytda o‘z tashkilotlapini by hapakatning boshqa bip yirik namoyandaci S. Ayniyning guvohlik berishicha, “yoshlar”, “islohotchilar”, “taraqqiychilar”, shuningdek, “Yosh buxoroliklar” deb atagan. 1920-yil 2-sentabrda Mixail Furunze qo‘shinlari amirlik hokimiyatini ag‘darib tashladi. 1920-yilda Buxoro amiri Kobulga qochib ketgach, jadidchilar 1-sentabrda Buxoro xalq sho’rolar jumhuriyati degan davlat tuzdi.

Buxoro xalq sho’rolar jumhuriyati tuzilganda, uni 5 ta davlat tan oldi. Birinchisi Rossiya sotsialistik sovet respublikasi, keyin Eron, Afg’oniston, Anqara hukumati (Turkiya tuzilgani yo’q edi), Angliya davlatlari bo’lgan. 1920-yil 14-sentabrda bo‘lgan Xalq Nozirlar Sho‘rosi, Revkom va BKP MKning umumiy yig‘ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo‘mitasi (raisi Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho‘rosi (raisi Fayzulla Xo‘jayev) tuzildi. Buxoro inqilobiy qo‘mitasining a’zolari qilib Muinjon Aminov, Olimjon Akchurin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Hoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo‘jayev, Qulmuhamedov tayinlandi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho‘rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy tashqi ishlar (nozir-Fayzulla Xo‘jayev), maorif (Qori Yo‘ldosh Po‘latov), ichki (doxiliya) ishlar (Muso Saidjonov), moliya (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev), davlat nazorati (N. Husainov), favqulodda komissiya

[39] https://uzpedia.uz/pedia/buxoro_xalq_shoro_jumhuriyati

(raisi-Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy (Shihobuddinov), savdo va sanoat (M. Mansurov) nozirliklari. Bu paytga kelib inqilobchi yosh buxoroliklar firqasi a'zolari Buxoro Kompartiyasi safiga kirishga majbur bo'lgan edilar. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha paytda ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Nozirlar Buxoro, Istanbul, Moskva va boshqa shaharlarda ta'lim olishgan edi. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

1920-yil 6-8-oktabr kunlarida amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Ushbu qurultoyda Isidor Lyubimov Rossiya SFSR hukumati Buxoro Respublikasining mustaqilligini tan olganligini aytishga shoshildi. 1920-yil oktabr-noyabr oylarida Buxoro XSR bilan Rossiya SFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o'rtasida "Ittifoq shartnomasi" imzolandi.

1921-yil 18-23-sentabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining 2-qurultoyida demokratik ruhdagi Buxoro XSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1922-yil avgustda bo'lgan 3-qurultoyda bu lavozimni Payzulla Xo'jayev egalladi. Buxorodagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923-yil 3-iyunda Buxoroga Sovet Ittifoqi Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondoni Sergey Kamenev, Turkfront Inqilobiy Harbiy Kengash raisi Avgust Kork, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o'zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidlashdi[40]. RKP(b) MK kotibi Yan Rudzutakni Buxoroga jo'natdi. 23-iyunda RKP(b) MK yopiq plenumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat'iy talablarni qo'ydi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning "kommunistcha sabog'i"ni olgan "tajribali sovet xodimlari" bilan to'ldirildi.

1924-yil 18-20-sentabrida Butun Buxoro xalq vakillarining 5-qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy 19-sentabrda Buxori XSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga (Buxoro SSR) aylantirish to'g'risida qaror qabul qildi.

[40] https://uzpedia.uz/pedia/buxoro_xalq_shoro_jumhuriyati

Har qanday qiyin vaziyatlarda ham jadidlar ijobiy ishlarni amalga oshirganlar. 1921-yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. Buxoro MIKning umumiy afv to‘g‘risidagi 1922-yil 25-may dekretida vaqflarni tugatishni to‘xtatish, qozixonalar ishini, shariat ko‘rsatmalarini tiklash va boshqalarni e’lon qildi. O‘sha yilning noyabrida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o‘tish e’lon etildi. Buxoro davlat banki tuzilib, pul islohoti amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Bu qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923-yil sug‘oriladigan yerlar maydoni 1913-yildagi darajaga yaqinlashib qoldi (92,3%). Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tiklanib, zavod va fabrikalar qaytadan ishga tushdi. Bu paytga kelib Buxoro respublikasida 19 ta korxona, 500 dan ortiq bozor ishlab turdi, xususiy sarmoya 12 000 savdogarlar mablag‘idan iborat bo‘ldi. 1923-yil 4 ta aralash aksionerlik jamiyati, 30 ta yirik savdo firmalari faoliyat ko‘rsatayotgan edi. Davlat savdosi va kooperatsiyasiga berilgan yordam o‘z samarasini ko‘rsatdi.

1924-yilga kelib BXSRda 14 ta kutubxona, drama teatri, muzey va ko’plab klublar aholiga xizmat ko’rsatdi. O’zbek va rus tilarida yangi gazeta va jurnallar hamda boshqa adabiyotlar chop etish ham yo’lga qo’yildi. Shuningdek,“Yosh buxoroliklar” ning siyosiy-huquqiy masalalarni hal qilishdagi rolini yanada kuchaytirdi. Jumladan, mahalliy soliqlar 10 foizgacha qisqartirilgan, harbiylar oylik haqi oshirilgan (piyoda xizmatchilarga oyida 3-9 rublgacha, otliq qo’shinlarga 6-20 rublgacha), harbiy xizmatdan ozod etilgan yoshi ulug’ kishilarga oyida 3 rublgacha nafaqa tayinlangan[41].

Nazorat savollari:

1. Buxoro amirligida jadidchilik harakatining yuzaga kelishida qaysi taniqli ulamolar nomi bilan bog’liq?
2. Qaysi Buxoro amiri ta’lim sohasiga oid keng qamroli ishlarni amalga oshirgan?
3. Abduvohid Munzim o’z uyida tashki etgan ilk usuli jadid maktabi qaysi tilda dars berilgan?
4. 1917-yil 7-aprel kuni Amir Olimxon islohotlar hususidagi farmonida qanday masalalar yoritilgan?
5. Buxoro jadidlari ikkinchi marta qirg’inga nechanchi yilda uchragan?
6. Buxoro xalq sho’rolar jumhuriyatini qaysi davlatlar tan olgan?

[41] https://uzpedia.uz/pedia/buxoro_xalq_shoro_jumhuriyati

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Milliy davlatchilik, Abdulahadxon, Ahmadjon Hamdiy, Abduvohid Munzim, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Xoja Rofe, Mukammal Burhon, Usmonxo'ja Po'latxo'ja **,** "Turon", "Buxoroi sharif", "Ma'rifat", "Turon", "Sadoi Turkiston", "Al-Isloh" va "Oyna", "Ittifoq shartnomasi".

Mavzuga oid test savollari:

1. Buxoro amirligida "Yangi usul" maktablari nechanchi yilda tashkil etilgan?

a) 1897-yilda
b) 1907-yilda
c) 1898-yilda
d) 1908-yilda

2. Buxoro amirligida tojik tilida dars beruvchi ilk maktab kim tomonidan ochilgan?

a) Abduvohid Munzim
b) Nizomiddin Sobitiy
c) Sadriddin Ayniy
d) Xoja Rofe

3. Mulla Qamariddin tomonidan qanday jamiyatga asos solingan?

a) "Ittihod"
b) "Turon"
c) "Ma'rifat"
d) "Buxoroi sharif"

4. …….. Buxoroda va Turkiston hududida "Kim musulmonlarga yordamlashsa, u Ollohni anglagandir" shiori ostida siyosiy-diniy tashviqot olib borgan.?

a) Mulla Qamariddin
b) Nizomiddin Sobitiy
c) Sadriddin Ayniy
d) Xoja Rofe

5. Qaysi voqeadan so'ng amir mamlakatda 3000 kishini qatl qilgan?

a) Kolesov voqeasi
b) amir farmoni
c) "Turon" jamiyati
d) demokratik chiqish

8-Mavzu: XIVA XONLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATI

Reja:

1. **Xiva xonligida jadidchilik harakati yuzaga kelishi tarixi.**
2. **Xiva jadidlarining ijtimoiy-siyosiy harakatlari.**
3. **Milly davlat tashkil etish borasida Xiva jadidlarining harakatlari.**

XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ng oqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi.

Bobooxun Salimov maktablar ochish va darsliklar yaratish borasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Boboxun Salimov maslakdosh do'sti tajribali ziyokor, turkiyada ta'lim olib kelgan Bekchon Rahmonov hamkorlikda "Alifbe", "O'qish kitobi" darsligini yaratdi. Bu darsliklar mutaxasislar tomonidan yuqori baxolangan. Bobooxun Salimov oliy diniy ulamo qozikalon bo'la turib, yangicha o'qitish uslubi, yangiliklarga hayrihoxlik bilan qarab, ularni shariyat aqidalaridan himoya qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan istiqlol va taraqqiyot uchun kurashchilar ishiga zimdan raxbarlik qilgan. Hamda Bobooxun Salimov jadid maktabi haqida "Maktab" nomli she'r ham yozgan bo'lib u she'rda Xorazm elini obod va munavvar etguvchi yangi usuldagi jadid maktabining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini yuksak darajada ta'riflaydi[42].

Xiva jadidchiligi Buxoro va Turkiston jadidlaridan farqli o'laroq, ularning katta qismi qishloq xo'jaligi, irrigatsiya sohasining yetuk namoyondalari tashkil qilgan. Aynan mana shu sohalarni chet ellarga borib, o'qib o'rganib qaytishgan edi. Bu harakat qatnashchilari yosh

[42] Murotova S. Islom tarixini o'rganishda jadidlar ilmiy merosining ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish –T.: 2018. – B. 16-17.

xivaliklar partiyasi raxbarlari va a’zolarining ko’plab xotira kitoblari bizgacha saqlanib qolgan.

Xiva jadidlar harakatining so’l oqimi avval boshdanoq o’zlaring Turkistonlik fikrdoshlari qatori Xiva xonligida yangi uslubdagi jadid maktablari ochish orqali xalq ommasining siyosiy aktivligini o’stirishni o’z oldlariga maqsad qilib qo’ygan edilar. Progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari jadidlarning so’l oqimini quvvatlab, 1904-yili “Jamiyati xayriya”ni tuzdilar. Bu jamiyatning maqsadi jadidlarga yangi uslubdagi maktablar ochishda yordam uyushtirishdan iborat edi. “Jamiyati xayriya”ning moddiy yordami tufayli Xiva shahrida Qozondagi yangi usul “Muhammadiya” madrasasini bitkazgan Xusayn Qo’shaqov boshchiligida 1904-yil 10-noyabrda yangi uslubdagi jaded maktabi ochildi. Dastlab bu maktabda 12 ta keyinroq esa, 55 ta bola ta’lim oldi. Shulardan 15 nafari o’zbek bolalari edi. Jadidlar yordamida 1906-1911-yillarda Xo’jayli, Qo’ng’irot, To’rtko’l, Gurlan va Shovotda ham yangi usul maktabilari ochishga erishildi. Bu maktabda Xusayn Qo’shaqov bilan birgalikda Komila Qo’shaqova, Yusuf Ahmadov, Muhammad Sharif Xudayberganov va boshqalar o’qituvchilik qildilar.

Xivadagi maktab tamomila zamonaviy ko’rinishda bunyod etilgan. Keyinchalik ushbu maktablarda yaxshi o’qigan yoshlar Orenburg, Toshkent, Peterburg, hatto Turkiya, Fransiyaga ta’lim olish maqsadida yuborilgan.

Bular orasidan Maryam Sultonmurodova va Olimjon Qodiriy Buxoro jadidlari boshchiligida Germaniyaga tahsil olish maqsadida yuborilgan yoshlar ichida bo’lishgan.

Shuningdek, yosh xon va uning maslakdoshi tomonidan yo’llar qurilishi, ta’limni rivojlantirish, adabiyot, san’at sohalarini qo’llab-quvvatlash, arxitektura sohasi uchun mablag’lar ajratilgan. Bunday ishlarni sanasak salmog’i ko’p. Islomxo’ja “Taraqqiy”, “Najot”, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Vaqt”, “Tarjimon”, “Ma’lumot” kabi qator nashrlar bilan muntazam tanishib borgan. Biroq Xiva xonligida birorta nashriyot tomonidan chiqarilgan gazeta va jurnallar haqida ilmiy tadqiqotlar qilinmagan, bunday gazetalar bor-yo’qligi haqida aniq manbalarni yo’q.

Shu bilan birga, jadidchilik Xiva xonligida asosan yuqori va o’rta tabaqa vakillari orasida kengroq yoyilgan. Xiva xonligida muholifat darajasida bo’lib, eski tartib tarafdorlariga qarshi yangilik, islohot tarafdorlari harakati edi. Yosh xivaliklar partiya sifatida o’sib chiqdi va siyosiy harakat darajasiga ko’tarila bordi.

Xorazm jadidlarining bir qancha qurultoylarda, chet mamlakatlaridagi anjumanlarda qatnashganligi haqida ma’lumotlar bor. Shunday ekan, ularda gazetchilik sohasiga alohida e’tibor berilgan bo’lishi kerak. Biroq bu fikrimiz hali o’z tasdig’ini topmagan. Afsuski, Islomxo’ja dushmanlar tomonidan o’ldirildi, XX asrning 30-yillarida avj olgan qatag’onlik siyosati Xorazm jadidlarini ham o’z domiga tortdi. Mulla Safo Oxun, Ortiq oqsoqol, Rahmat Majidiy, Maryam Sultonmurodova, Mulla Bekjon Rahmon, Ismoilov Avazmat, Otajonov Bobojon, Abdullaboy Isoyev, Xudoybergan Devonov, Matyoqub Devonov, Vois Rahimiy, Qurbon Ollobergan o’g’li, Olimjon Qodiriy, Komil Devoniy va yana bir qancha Xorazm hududidan yetishib chiqqan, turli sohalarda faoliyat yuritgan jadidlarimiz bo’lib, ularning ro’yxatini yana ancha davom ettirishimiz mumkin.

Bularning ichida diqqatimizni tortgan jadidlarimizdan biri Komil Devoniy bo’lib, o’z davrida o’tli nafasga ega bo’lgan, she’rlari bilan xalqni o’ziga rom qilgan ijodkordir. “Muhammad Komil mullo Ismoil o’g’li 1887-yili Xivaning Sangar qishlog’ida tug’ilgan. Shoir, musiqashunos, mohir ijrochi, musiqiy sozlar yasaydigan usta, shuningdek yetuk naqqosh, zargar, qurolsoz sifatida elga tanilgan.” Komil Devoniy o’zining yorqin iste’dodi bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz nazariga tushgan. Bir qancha yuqori lavozimlarda faoliyat yuritgan. Ijodkor 1937-yilda bolsheviklar tomonidan ko’plab xorazmliklarga qo’yilgan ayb - “eskilik tarafdori” sifatida qamoqqa olinadi. Eslab o’tishimiz lozimki, Turkistonlik jadidlarga, asosan, “millatchi”, deya ayblov qo’yishgan. Xorazm jadidlariga nisbatan esa, ko’proq “eskilik tarafdori” tamg’asi bosilgan. Komil Devoniy 1938-yil 10-fevralda turli qiynoqlar, so’roqlardan keyin o’lim jazosiga hukm qilingan. Ammo hukm bajarilmasidan oldin ijodkor yurak xurujidan vafot etgan.

Komil Devoniyning she’rlari saroyda ham, xalq orasida ham mashhur bo’lib, 18 yoshiga yetganda xonning ijozati bilan “Devoni Devoniy” nomli she’rlar to’plami toshbosmada nashr etilgan. Bizgacha ijodiy merosi tarqoq holda yetib kelgan. Qo’lyozma shaklidagi va saqlanib qolgan she’rlari hozirda Urganch shahrida joylashgan “Qatag’on qurbonlari xotira muzeyi” xodimlari tomonidan to’planib, yaxlit kitob holiga keltirish harakatidalar. Komil Devoniyga zamondosh ijodkorlar uni “ikkinchi Navoiy” deya ulug’lashgan. Komil Devoniyning she’rlari hajviy hamda ishqiy ohanglarga yo’g’rilgan, ijtmoiy xarakterga ega misralardan tashkil topgan.

Milly davlat tashkil etish borasidagi harakatlar Xiva xonligida asosan yuqori va o’rta tabaqa vakillari orasida kengroq yoyilgan. Xiva xonligida muholifat darajasida bo’lib, eski tartib tarafdorlariga qarshi yangilik, islohot tarafdorlari harakati edi. Yosh xivaliklar partiya sifatida o’sib chiqdi va siyosiy harakat darajasiga ko’tarila bordi.

1904-1905-yillarda hamfikrlar, 1910-yil boshlarida manfaatlar guruxi sifatida shakllangan bolsa, 1917-yilda amaldorlar, marifatli boylar, milliy burjuaziya va ziyolilarning Xiva xonligiga muholifat bo’lgan siyosiy kuchi, 1918-yilda esa rasmiy siyosiy partiya sifatida namoyon bo’lgan. Ular dunyoqarashining shakllanishi va tadrijiy rivojlanisida xonlikdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, Turkiya, Eron, Rossiya Turkistondagi siyosiy o’zgarishlar ob’ektiv sharoit sifatida katta ta’sir qilgan, rus inqilobchilari, soldat shorolari va Turkistondagi mahalliy inqilobchilar ta’siri sub’ektiv omil sifatida katta rol o’ynagan.

Yosh xivaliklar partiyasi esa 1914-yil avgust oyida Polvonniyoz Hoji Yusupov asos solgan edi. Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Shoshkorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Husainbek devonbegi Matmurodov, Muhammadyorxo’ja Abdullaev partiyaning faollari edi. Yosh xivaliklar partiyasining e’lon qilingan dasturida xon hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o’tkazish, mamalakatda konstitutsion monarxiya o’rnatish, xalqni ma’rifatni qilish mo’ljallangan[43].

Aynan jadidchilik harakatining Xiva xonligi hududida rivojlanishiga bir qancha manbalardagi ma’lumotlardan bilib olsak bo‘ladi. Masalan “Rossiyaning Birinchi jahon urushiga kirishi bilan unga qaram bo‘lgan Xiva xonligidagi aholi ahvoli yanada og‘irlashdi, soliqlar miqdori ko‘paytirildi, xalqning norozilik harakati kuchaya bordi. Chunki oq podsho armiyasiga yordam bahonasida majburiy yig‘imlar suiste’molchilik bilan amalga oshirilar edi. Zulm va zo‘ravonlikning ortishi Asfandiyorxon olib borgan siyosati oqibati bo‘lib, uning barcha bekliklarda yosh va go‘zal qizlarni xon haramiga keltirish to‘g‘risidagi farmoni natijasida bu jarayon o‘zining yuqori cho‘qqisiga yetdi. Bu davrda endigina uyushib kelayotgan ilg‘or fikrli kishilar urush va xon olib borayotgan siyosatni qoralab, unga qarshi mehnatkashlar orasida tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib bordilar.

Bu ishlarni amalga oshirishda Bobooxun Salimov rahnamolik qildi. U xalq orasida va saroyda Asfandiyorxon olib borayotgan siyosatning xatoligini oshkora aytib, xonning kamchiliklarini ko‘rsatib

[43] XX asr boshida Turkiston... haqida ma'lumotlar — UZTEXT.COM

bera oldi. Bu xalq orasida Bobooxun Salimovning mavqei oshishiga, uni qo‘llovchi kishilarning ko‘payishiga olib keldi. Uning tarafdorlari ko‘p bo‘lgani uchun xon uni mahfiy o‘ldirtirib yuborish yoki jazolashdan qo‘rqardi”. Bu yerda aytilgan oxirgi fikrni qanday izohlash mumkin? Asfandiyor oldingi bosh vazir, kuchli siyosatchi, Bobooxun Salimovdan bir qadar mavqeyi baland bo‘lgan Islomxo‘jani o‘ldirtirganligini bir qancha manbalardan bilishimiz mumkin. Qolaversa Islomxo‘ja xonning qaynotasi ham edi. Nima uchun kuchli davlat arbobi Islomxo‘jani o‘ldirtirishdan qo‘rqmagan xon Bobooxun Salimovni o‘ldirtirishdan qo‘rqishi mumkin? Takidlash kerakki, Asfandiyor muholifatchilar aniq kimlar ekanligini bilib olish, siyosatchi sifatida Bobooxun Salimovning “zaif” tomonlarini aniqlab olish maqsadida uni o‘ldirtirishga shoshilmagandir balki. Xon o‘zidan norozi kayfiyatdagi xalqni tinchlantirish maqsadida vaziyatni o‘z foydasiga o‘zgarishini kutib, Bobooxun Salimovni o‘ldirtirish noo‘rin deb hisoblagan bo‘lsa ham ajab emas. Shu davrdagi siyosiy jarayonlar o‘zgartirilgan holda talqin qilingan bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, u davrda yashamagan, voqealarni guvohi bo‘lmagan kishi sifatida yuqoridagi tarixiy jarayonlarga aniq baho berish qiyin bo’lgan.

Bobooxun Salimov davlat arbobi, ma’rifatparvar, taraqqiyparvar siyosatchi sifatida “siyosiy yurish”larini davom ettiradi. 1917-yil 5-aprelda “Yosh xivaliklar” tashkiloti tomonidan islohotlar manifesti ishlab chiqilgan va xon manifestni imzolagan edi. Mazkur manifestda Majlis va Nozirlar kengashini tuzish belgilangan bo‘lib, uning faoliyatini tashkil qilish, xujjatlarning islom shariati asosida bo‘lishini ta’minlashda ulamo sifatida Bobooxun Salimov boshchilik qildi.

Bu haqda Polvonniyoz hoji Yusupov o‘z “Xotiralari”da shunday yozadi: “Ondin so‘ng Bobooxun eshon birlan maslahat qilib, tamomi Xorazm qal’alariga ham Turkmaniston, qozoq, qoraqalpoq istansalariga vakil saylab kelmak uchun xatlar yuborildi”. Joylarga yuborilgan kishilar xalq vakillarini saylab olib kelgach, Bobooxun Salimov Majlis raisligiga saylandi.

Majlis tomonidan amalga oshirilgan: xonlikdagi kirim-chiqim daftarini nazorat qilish, xon va amaldorlarga maosh belgilash, maorif, sog‘likni saqlash, qishloq xo‘jaligidagi ahvolni yaxshilash uchun Rossiyadan mutaxassislar taklif qilish, miltiq so‘rab Toshkentga hay’at jo‘natish, turkmanlar bilan milliy munosabatlarni yaxshilash kabilarni majlisda ko‘rib chiqish, tegishli qarorlar qabul qilishda Bobooxun Salimov va Yosh xivaliklarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu ishlar

Asfandiyorxon bilan Bobooxun qozikalon o‘rtasidagi nizoni yanada kuchaytirdi. Natijada Toshkentdan yuborilgan vakillar polkovnik Tarezna boshliq guruh bilan Xivaga kelayotgani haqidagi xabarni eshitsa ham, Bobooxun Salimov Majlis raisligidan iste’foga chiqishga majbur bo‘lgan.

1917-yil fevral inqilobi huddi Yosh buxoroliklar singari Yosh xivaliklar faoliyatiga ham kuchli ta’sir ko’rsatdi, ular ochiq kurash yo’liga o’tdi. 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfondiyorxon Yosh xivaliklar taqdim etgan manifestni imzolashga majbur bo’ldi. Manifest mazmunini quyida to’laligicha keltiramiz:

Hijriy 1335-yil 25-jumai-us-sana yoki Iso tug’ilganidan 1917-yil 5-aprelda, men-Xiva xoni Said Asfandiyor Baxodirxon quyidagi xohishimni e’lon qilaman:

1. Men o’z fuqarolarimga konstitutsiyaviy boshqaruvni shuning uchun berdimki, ular o’z xohishlari muqaddas shariat qonunlari va zamon talabi bilan umuxalq kengashi orqali saylangan va davlat ishlarini boshqarishga tayinlangan adolatparvar va loyiq kishilar bilan davlatni boshqarsinlar.

2. Mening fuqarolarim davlatni boshqarish ishida muqaddas shariat bilan kelishilgan holda adolatli harakat qilishlari shart.

3. Men fuqarolarimga birlik, tinchlik va ozodlikni shuning uchun berdimki, ular bir-birlari bilan aka-uka bo’lib, tinch yashasinlar.

4. Xiva davlatida vazirlik va amaldorlik vazifalarini aholi tomonidan saylangan va tayinlangan vijdonli va adolatparvar kishilar bajarsinlar. Xalq xohlamagan vazir, amaldor va hokimlar ishdan olinib, jinoyati isbotlansa muqaddas shariat qonulari asosida jazoga tortilsin.

5. Barcha amaldor va vazirlarga, davlat xizmatchilariga vazifalariga yarasha davlat xazinasidan maosh ajratilsin.

6. Xiva davlatining moliya ishlari uchun xazinachi joriy qilib, kirim-chiqimlarni nazorat qilish topshirilsin.

7. Vazirlar va amaldorlarni nazorat qilish hamda mening yuqorida buyrug’imni bajarish uchun aholi o’z vakillarini saylagunga qadar 30 kishidan iborat vaqtli qo’mita tayinlansin. Xiva fuqarolari tinchlikni saqlab, o’z ishlarini amalga oshirsinlar va boshqa madaniyatli xalqlar qatoridan o’rin olish uchun bor kuchlarini sarflasinlar[44].

Bu manifest qilib qaralsa, manifest asosi Islomxo’ja islohot rejasining bir qismidek bo’lib ko’rinadi. Ko’pchilik tadqiqotchilar bu hujjatlarni Yosh xivaliklar dasturi sifatida talqin qilishadi.

[44] https://ziyoratga.uz/uz/blog/hivinskoe-hanstvo-asfandiyor-han-tridcat-devyatyj-pravitel

1918-yil iyul oyida Yosh Xivaliklar yangi dasturlarini ishlab chiqdilar. Bunda ular o’zlarini Xiva inqilobiy partiya deb ataganlar. Unda quyidagi talablar bo’lgan:

1. Xon va uning hukumati tomonidan mamlakat yakka boshqaruvini butunlay tugatish;
2. Xiva hududini Turkistonga qo’shib, RSFSR tarkibiga kiritish;
3. Xiva xoni, to’ralar, beklar va vazirlarining pullari, har xil ko’rinishdagi mulklarini xalq boyligi deb e’lon qilish;
4. Yirik yer egalari mulklaridan kambag’allar hayotini yaxshilashda foydalanish;
5. Shariat hukmi bilan vaqflarning barcha daromadini faqat xalq maorifi uchun sarflash;
6. Xivadagi yangi erlarni o’zlashtirish uchun Amudaryodan ariqlar chiqarish;
7. Bolalarni bepul o’qitish uchun Xivada maktablar ochish;
8. Xivadagi shahar va qishloqlarda bepul davolovchi kasalxona va davolash muassasalarini ochish;
9. Xiva xoni tomonidan qambag’al aholining majburan tortib olingan er va boshqa boyliklarni o’z egalariga qaytarish;
10. Asfandiyorxon hukmronligi davridagi xazinaga tushgan xalq boyligining nimaga sarflanganligini aniqlashtirish;
11. Ko’priklar va aloqa yo’llarini yaxshilashga kirishish;
12. Beklar tomonidan kambag’al aholining majburan tortib olingan er va mulklarini o’z egalariga qaytarish;
13. Bepul, majburiy mehnat (begar)ni butunlay tugatish;
14. Xon va uning hukumatini tugatish, xalq hokimiyatini tuzish va yuqoridagi dasturni amalga oshirishga tezda kirishish, xalq hokimiyatiga qarshi bo’lgan xon tarafdorlari, burujuaziya va aksilinqilobchilarga qarshi ayovsiz kurash olib borish[45].

Ushbu dasturning aniqlashtirilgan va RSFSRga qo’shilish to’g’risidagi moddasi olib tashlangan 12 bandlik varianti Xiva inqilobchilar partiyasining yaqin vazifalari nomi bilan 1920-yil 8-yanvarda “Izvestiya” (Toshkent) gazetasida bosib chiqarilgan.

1918-1920-yillarda bol’sheviklar muxolifatda turgan Yosh buxoriklar va Yosh xivaliklarni qo’llab-quvvatlandi. Jadidlar demokratik islohotlarni qaror toptirish uchun mavjud tuzumni qurol kuchi bilan ag’darishni zarur deb topdilar. Shuning uchun ham ular taktik

[45] Yusupova D, Xushmatova S. Xorazmda jadidchilik harakati va yosh xivaliklar partiyasi faoliyati. “O’tmishga nazar”, –T.: 2019. –B. 37.

maqsadlarni ko’zlagan holda bol’sheviklar bilan yaqinlashdilar. 1920-yilda qizil armiya Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududida bostirib kirdi. Buxoro xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilib, jadidlar hokimiyat tepasiga qolishdi. Demak, 1920-yildan jadidchilik harakati o’z taraqqiyotining yangi bosqichiga, ya’ni sovetlar bilan murosa yo’liga qadam qo’ydi.

Turkiston jadidlari faoliyati butun o’lkani qamraydigan, inglizlarning skautning maktab dusturiga yaqin dastur asosida ishlaydigan “Turon Kuchi”, “Turk kuchi”, “Temur”, “Izchilar, “Lochin” kabi guruhlarni tuzdilar. Bu guruhlar o’rta maktab ta’limi, hunar, san’atdan tashqari, harbiy mashqlar bilan shug’ullanib, sovetlarga asosiy zarba beruvchi kuch sifatida ko’rina boshladi. 1920-yilda sovet rejimi bu guruhlar faoliyatini tugatdi.

Nazorat savollari:

1. Xivada shakllangan jadidchilik harakati o’ng oqimga kim rahbarlik qilgan?
2. Qaysi Buxoro amiri ta’lim sohasiga oid keng qamroli ishlarni amalga oshirgan?
3. Komil Devoniyga zamondosh ijodkorlar qanday nom bilan ulug’lashgan?
4. Yosh xivaliklar partiyasi qachon tashkil etilgan va faoliyati haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
5. Xiva xoni Asfondiyorxon jadidlar ta’sirida qachon o’z manifestni imzolashga majbur bo’ldi?

Mavzuga oid tayanch iboralar va atamalar: Milliy davlatchilik, “Jamiyati xayriya”, “Muhammadiya”, Xo’jayli, Qo’ng’irot, To’rtko’l, Gurlan, “Taraqqiy”, “Najot”, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Vaqt”, “Tarjimon”, “Ma’lumot”, “Devoni Devoniy”.

Mavzuga oid test savollari:

1. Boboxun Salimov kim biln birgalikda “Alifbe”, “O’qish kitobi” darsligini yaratdi?

a) Bekchon Rahmonov
b) Xusayn Qo’shaqov
c) Komila Qo’shaqova
d) Yusuf Ahmadov

2. Komil Devoniy nechanchi yilda “eskilik tarafdori” sifatida o’ldiriladi?

a) 1938-yil 10-fevralda

b) 1938-yil 18-fevralda

c) 1937-yil 10-fevralda

d) 1940-yil 10-fevralda

3. 1904-1905 yillarda Xiva jadidlari qanday jamiyatga asos solingan?

a) hamfikrlar

b) manfaatlar

c) amaldorlar

d) marifatli boylar

4. Yosh xivaliklar partiyasi esa 1914-yil avgust oyida ……. asos solgan edi.

a) Polvonniyoz Hoji Yusupov

b) Nazir Shoshkorov

c) Xudoybergan Devonov

d) Muhammadyorxo’ja Abdullaev

5. 1910-yilda Xiva jadidlari qanday jamiyatga asos solingan?

a) Kolesov voqeasi

b) amir farmoni

c) “Turon” jamiyati

d) demokratik chiqish

GLOSSARIY

1. Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadīd — yangi) – XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[1]. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi.

2. Yangi usul maktablari — musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o‘rgatgan va yangilik g‘oyalarini ilgari surgan o‘quv yurtlari. Dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma’rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo‘lgan. 19-asr oxiri - 20-asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Ko‘p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko‘nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta’lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O‘zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablarim. 1898-yil Qo‘qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no‘g‘oy maktab" deb atagan). 1900-yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablarim. ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. 1908-yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko‘p o‘tmay yopib qo‘yilgan. Yangi usul maktablarim.da maktabxonadagi yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda geogr. xaritalari, globus va boshqalar ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Yangi usul maktablarim.da xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli - usuli savtiyaaa o‘rgatilgan. Maktablar asosan 1-4 sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913-1914-o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2 bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna

maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevttt Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5-6 sinf) ham ish boshlagan.

3. **Rus-tuzem maktablari** (rus. tuzemets - mahalliy aholi) - Turkistonda Oktyabr to‘ntarishiga qadar mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlang‘ich rus maktablari. Uni ochishdan asosiy maqsad o‘lkani ruslashtirish edi. Turkiston generalgubernatori K.P. fon Kaufman "musulmon va rus maktablarining ajralib turishi"ni iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisobladi. Bu g‘oyani Kaufmanning izdoshi generalleytenant N.O. Rozenbax davom ettirib, ibtidoiy turdagi yangi maktablar - Rus-tuzem maktablarim. tarmog‘ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Birinchi rustuzem maktabi 1884-yil 19-dekabrda Toshkentda ochilgan. Unda 41 bola o‘qigan. 1891-yil Xivada, 1894-yil Buxoroda ham ochilgan. Ularning soni 19-asr oxirida 100 dan oshgan. Rus-tuzem maktablarim.da ta’lim muddati 4 yil bo‘lgan. Rus-tuzem maktablarim. ruscha va mahalliy sinflarga bo‘lingan. Rus tili, o‘qish, yozish, hisob, geom., tarix, boshlang‘ich o‘zbek tili, arab tili va islom dini asoslari o‘qitilgan. Rus tili, hisob, yozuv, geom., tarix darslarini rus o‘qituvchisi, o‘zbek tili, arab tili, islom dini asoslarini o‘zbek muallimi o‘qitgan. Saidrasul Saidazizovning “Us todi avval” (1902), Aliasqar Kalininning “Muallimi soniy” (1903), S.M.Gramenitskiyning 3 qismdan iborat o‘qish kitoblari Rus-tuzem maktablarim. o‘quvchilarining asosiy darsliklari bo‘lgan. Ayrim Rus-tuzem maktablarim. qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil kilingan. Keyinchalik 2 y.lik va ayollar uchun ham Rus-tuzem maktablarim. ochilgan. Rus-tuzem maktablarim. mahalliy aholining bir qismiga o‘sha davr uchun ilg‘or bo‘lgan madaniyat yutuqlaridan baxramand bo‘lish imkonini yaratgan.

4. **Yosh xivaliklar** - Xiva xonligida jadidlar tashkil qilgan partiya (firqa) (1914-21). O‘z safida milliy ziyolilar, hunarmand, dehqon, savdogarlar, islom ulamolari va ayrim davlat amaldorlarini birlashtirgan. 1914-yil avgustda Yo. x. partiyasiga Polvonniyoz hoji Yusupov asos soldi. Jumaniyoz Boboniyozov, Bobojon Yoqubov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Nazir Sholikorov, Sultonqori Jumaniyozov, Xudoybergan Devonov, Husaynbek devonbegi Matmurodov, Muhammadyorxo‘ja Abdullayev partiyaning faollari edi. Partiyaning e’lon qilingan dasturida xon hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o‘tkazish, mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish, xalqni ma’rifatli qilish mo‘ljallangan.

5. **Yosh buxoroliklar** - Buxoro amirligidagi jadidlar partiyasi (firqasi). Dastlab “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyati shaklida tuzilgan. 1910-1920-yillarda „Yosh buxoroliklar“ partiyasi deb atalgan. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag‘allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo‘yish tarafdori bo‘lgan. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmonxo‘ja), Otaulla Xo‘jayev, Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Homidxo‘ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o‘ynashdi. Yosh buxoroliklar iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroyga o‘qishga jo‘natdi. Ular partiyaning moddiy mablag‘i hisobidan ta’lim olishgan. Fayzulla Xo‘jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag‘ ajratgan. Istanbulda “Buxoro ta’limi maorif jamiyati” tashkil qilinib, jamiyat a’zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko‘magi bilan Abdurauf Fitrat va boshqalar taraqqiyparvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi. Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o‘stirish, maktab, Madrasa, o‘quv tizimini isloh qilish edi. Buxoroda boshlangan harakat tezda Shaxrisabz va Karkigacha tarqaldi. 1912-yil Buxoroda dastlabki gazetalar - tojik tilida “Buxoroyi sharif” va o‘zbek tilida “Turon” chiqa boshladi. Gazetalarni moddiy jihatdan ta’minlash va nashr ishlarini yo‘lga qo‘yishda Muhiddin Mansurov va Mirzo Siroj Hakim muhimrolo‘ynashdi. Biroq 1913-yil yanvarda bu gazetalarning faoliyati rus ma’murlari tomonidan taqiqlab qo‘yildi. Istanbulda ta’lim olgan ko‘plab buxoroliklarning yurtiga qaytishi bilan maorif ishlari yana jonlandi. 1914-yildan boshlab Yosh buxoroliklar ma’rifatchilikdan siyosat sohasiga o‘tdilar. Yosh buxoroliklar amirlik tuzumini isloh qilish to‘g‘risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma’rifatparvarlik faoliyati partiya mazmunida endilikda yangicha maqsad va yo‘nalish kasb etdi. Buxoroda “Ma’rifat” kutubxonasi va “Barakat shirkati” tuzilib, ular kitoblar nashr qilish va xorijda chiqarilgan turli adabiyotlar, gazeta va jurnallarni Buxoroda tarqatish bilan shug‘ullanadilar. Bu ishlarda Abdulvohid Burhonov, Ahmadjon Hamdiy, Mirzo Siroj Hakim faollik ko‘rsatishdi.

6. Tarbiyai atfol (Bolalar tarbiyasi) – Buxoro jadidlari tashkil etgan ma’rifiy jamiyat (1908-14). Abduvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Hamidxo‘ja Meqriy, Ahmadjon Abdusaidov va boshqa asos solishgan. Jamiyat faoliyatida S. Ayniy, Usmon Xo‘ja, M. Saidjonov va boshqa muxim rol o‘ynagan. Jamiyat a’zolari soni 100 ga yaqin bo‘lib, ularni Muhiddin Mansurov, Sadr Ziyo moddiy jihatdan qo‘llabquvvatlagan. “Tarbiyai atfol” iste’dodli yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborish, usuli jadid maktablarini har tomonlama qo‘llabquvvatlash, bu maktablar uchun o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratish, xorijdagi talabalarga moddiy yordam ko‘rsatish ishlari bilan shug‘ullangan. Jamiyatning sa’yharakati bilan, mas., 1908-yilda Istanbulda buxorolik va turkistonlik yoshlardan 14 kishi tahsil olgan. Jamiyat ko‘magi bilan Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonoti” va “Sayha” asarlari, shuningdek, S. Ayniy, A. Burhonov, Ikrom domla va boshqalarning kitoblari Turkiyada nashr etilib, Turkistonda tarqatilgan. Jamiyat ma’rifatparvarlik ishlari bilan birga ijtimoiy masalalarga ham e’tiborni qaratdi. Jamiyat a’zolari Buxoroda ma’rifatni yoyish, Fitratning Turkiston jadidchiligining dasturi hisoblangan asarlarini targ‘ib etish bilan birga Buxoro amirligida xukm surgan diniy fanatizm va bid’atga qarshi targ‘ibottashviqot ishlarini olib bordi, shuningdek, amirlikdagi har qanday yangilikni bo‘g‘ishga qaratilgan tadbirlarga qarshi norozilik kayfiyatini izhor etib turdi.

7. “Turon”– teatr truppasi. Jadidlarning 1913-yil Toshkent shahrida ochilgan birinchi teatr truppasi. Truppaning badiiy rahbari - Abdulla Avloniy, ma’naviy va moddiy homiysi Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa Toshkentning mo‘tabar kishilari bo‘lgan. Nizomiddin Xo‘jayev, Badriddin A’lamov, Shokirjon Rahimiy, Muhammadjonqori Poshshaxo‘jayev, Fuzail Jonboyev, Hasanqori, Same’qori Ziyoboyev, Qudratilla Yunusiy va boshqa, 1916-yildan Mannon Uyg‘ur, G‘ulom Zafariy, Sulaymon Xo‘jayev kabilar truppaning asosiy kuchlari hisoblangan. Truppa o‘z faoliyatini 1914-yil 27 fevralda Toshkentdagi “Kolizey” teatri binosi (2000 tomoshabinli)da “Padarkush” (M. Behbudiy) spektakli bilan boshlagan. Bosh rollarni Abdulla Avloniy, S. Ziyoboyev, M. Poshshaxo‘jayev, B. Alamovlar ijro etganlar. Spektaklni ozarbayjonlik aktyor va rejissyor Aliasqar Asqarov qo‘ygan. 1915-yil shu spektakl N. Xo‘jayev tomonidan qayta sahnalashtirilgan. Ketma-ket N. Qudratillaning “To‘y”, A. Krdiriyning “Baxtsiz kuyov”, A. Avloniyning “Advokatlik osonmi?” kabi asarlari sahnalashtirilgan. Ozarbayjon aktyori va rejissyori Ruhillo Sidki 1914-

1916-yillar Toshkentga ijodiy safari davomida “Turon” teatri a’zolari o‘rtasida musiqali drama janriga qiziqish uygotgan. Ozarbayjonlarning “Layli va Majnun” spektaklida “Turon” truppasi a’zolari ham birga rol uynaganlar.Teatr muhim mavzu va janr doirasi asosida keng repertuar yaratish imkoniyatiga, Toshkentning eski va yangi shahar qismida o‘zining qishlik va yozlik binosiga ega teatr jamoasi darajasiga ko‘tarilgan. “Pinak” (A. Avloniy), "Mazluma xotin" (X. Muin), “O‘liklar” (M. Qulizoda) kabi spektakllar bilan o‘z repertuarini boyitgan. 1917-yil Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng “Turon” teatri hukumat ixtiyoriga olinib, unga davlat teatri maqomi berilgan. Turli davrda turli nomlar bilan yuritilgan. Mannon Uyg‘ur teatrning yetakchisi, badiiy rahbari bo‘lgan (qarang O‘zbek milliy akademik drama teatri).

8. **Turkiston viloyatining gazeti** - Turkistonda 1870-yilda rus istilochilari tomonidan nashr etilgan mahalliy tildagi ilk bosma gazeta. Turkiston general-gubernatorligining nashri. “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining o‘zbekcha varianti. Dastlab shu gazetaga ilova tariqasida chiqarilgan. 1883-yildan mustaqil gazeta. Turkiston viloyatining gazeti. birmuncha vaqt (1872-yil iyulidan 1873-yilning fevraligа qadar) Peterburgda nashr etilgan. 1885-yildan gazetining bir tomoni “Turkestanskaya tuzemnaya gazeta” nomida rus tilida chiqqan. Faoliyati 1917-yilda to‘xtatilgan. Turkiston viloyatining gazeti 1871-1883-yillarda general gubernator tarjimoni Shohimardon Ibrohimov, 1883-yil boshlarida Muhammadhasan Chanishev, 1883-yil o‘rtalaridan 1917-yilga qadar N.P.Ostroumov muharrirlik qilgan. Sahifalarida podsho Rossiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati targ‘ib qilingan, mahalliy aholini “oq podsho” va uning Turkistondagi amaldorlari amrfarmonlarini so‘zsiz bajarishga undalgan. Get.dada rasmiy materiallardan tashqari, paxtachilik, ipakchilik haqida, fan, texnika, adabiyot va san’atga doyr materiallar ham e’lon qilingan. Get.dada Sattorxon Abdug‘afforovning siyosiy publitsistik makrlalari, Furqat va Muqimiing t ma’rifatga undovchi she’rlari va hajviy asarlari chop etilgan. Shuningdek, rus yozuvchilari I.A.Krilov, A.S.Pushkin, N.V. Gogol, I.S. Turgenev, L. N.Tolstoy asarlaridan ilk tarjimalar bosilgan.

“Turkiston viloyatining gazeti” 500-700 nusxada nashr etilgan. “Turkiston viloyatining gazeti” nusxalari Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasida va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanadi. Gazetasidagi materiallar 19-asr oxiri

va 20-asr boshlarida Turkiston xalklari hayoti, madaniyatini o‘rganishda muhim manba sanaladi.

8. **Tarjimon** - Boqchasaroyda Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chop etilgan gazeta. 1-soni 1883-yil 10-aprelda chiqqan va shartnomaga ko‘ra ikki - mahalliy va rus tilida bo‘lib, biri ikkinchisining aynan tarjimasidan iborat bo‘lgan. Keyinchalik I. Gasprinskiy mavzular doirasidan tarjimalar nisbati va ko‘lamigacha o‘zgartirib borishga va gazetani turk islom dunyosining, ayniqsa Rossiya musulmonlarining chinakam milliy gazetasiga aylantirishga erishgan. Gazeta 1914-yil 11-sentabr - Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga qadar uning noshirligi va muharrirligida chiqqan. So‘ng bu ishni o‘g‘li Rifat va safdoshi Hasan Sabriy davom ettirganlar. Tarjimon dastlabki yillarda haftada 1, 1903-yildan - 2, 1905-yildan - 3 marta chiqqan. 1912-yildan kundalik gazetaga aylangan. Jami 2826 soni chiqqan. Gazetaga 1905-yilda “Olami nisvon” (Ayollar olami), 1910-yildan “Olami sibyon” (Bolalar olami) gazetalari ilova sifatida chiqarilgan. Obunachilari 5000 tagacha yetgan. Tarjimonning mushtariylari Turkistonda ham ko‘pchilikni tashkil qilgan.

9. **“TARAQQIY”** - jadidlar gazetasi. 1906-yil 14-(27) iyundan Toshkentda chop etilgan. Noshiri va muharriri - Ismoil Obiliy. “Taraqqiy” tom ma’nodagi ilk milliy nashr hisoblanadi. Uning saxifalarida chor Rossiyasining Turkistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini dadillik bilan fosh qilishga bag‘ishlangan maqolalar, xabarlar va ma’lumotlar bosilgan.

“Taraqqiy” da bosilgan felyeton va boshqa materiallarda tanqidiy yo‘nalish, fosh qilish ruhi kuchli bo‘lgani uchun u o‘sha davrning eng ommaviy nashriga aylangan va jamoatchilik fikriga katta ta’sir ko‘rsatgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, So‘fizoda, Nozimaxonim, Bahrombek Davlatbekov, Shokir Muxtoriy, Zarif Xoliqiy va boshqalarning ommaga milliy ozodlik, taraqqiyot g‘oyalarini targ‘ib va tashviq qiluvchi asarlari “Taraqqiy” saxifalarida chop etib turilgan. “Taraqqiy” tutgan yo‘l, gazetaning maslagi va maqsadi, unda chop etilgan asarlardagi o‘tkir tanqidiy ruh mustamlakachi ma’murlarga ma’qul kelmagan. 19 soni chiqqanidan so‘ng “Taraqqiy” yopib qo‘yilgan. Muharriri qamoqqa olinib, gazetasining molmulki musodara qilingan.

10. **“XURSHID”** (Quyosh) - ilk o‘zbek gazetalaridan biri. “Ilmiy, adabiy, siyosiy, madaniy, turkcha jaridai islomiyadur”. 1906-yil 7-sentabrdan haftada 1 marta Toshkent shahrida nashr etila boshlagan. Ilin

bosmaxonasida dastlab toshbosma (kotibi O‘tab Rasulov), so‘ng mixbosmada bosilgan. Noshir va muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov.

Gazeta “hech partiyaga mansub emasmiz, milliy betaraf, to‘g‘ri haqqoniyatchimiz” degan fikrga amal qilgan. “Felyeton”, “Axbori doxiliya”, “Axbori xorijiya” ruknlari ostida kundalik muammolar, siyosiy ahvol, xalqaro vaziyat, milliy turmush masalalari haqida ma’lumot berib borgan. “Tarjimon”, “Vaqt”, “Ulfat” gaz. laridan siyosat, xalqaro vaziyat va milliy masalalarga oid maqola va xabarlarni ko‘chirib bosgan. Matbuotning milliy madaniyatdagi o‘rni va rolini to‘g‘ri tushuntirib bergan. So‘l yo‘nalishdagi asarlarni bosgani uchun chor Rossiyasining Turkiston senzurasi tomonidan to‘xtatib qo‘yilgan.

11. **Shuhrat** - milliy, adabiy, ilmiy, siyosiy gazeta. 1907-yil 1-dekabrdan haftada 2 marta chiqa boshlagan. Sahifalarida xurofotga qarshi maqolalar chop etilgan. Zamona talabiga javob beradigan kadrlar tayyorlash kerakligini targ‘ib qilgan. Gaz.da rasmiy muharrir Abdulla Avloniy deb yozilsada, ammo amalda unga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Tursunxo‘ja Homidxo‘ja o‘g‘li va Shoir Miskin Toshkandiylar gaz.ning asosiy mualliflari sanalgan.

12. **Is’hoqxon Ibrat** (1862-1937) – ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbuotchilaridan bo‘lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlabki ma’lumotni eski maktabda, so‘ngra onasining qo‘lida oladi. Keyinroq Qo‘qonga borib madrasaga o‘qishga kiradi.

Is’hoqxon Ibrat 1886-yilda madrasani tugatib, To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi. U o‘z faoliyatini pedagog sifatida qishloqda ma’rifat tarqatish bilan boshladi. O’sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi. Qo‘qondagi Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o‘qigan. O‘z she’rlari (“Tarixi choyxona”, “Madaniyat haqida masnaviy”, “Gazeta xususida”, “Qalam”)da mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan (“Ilmi Ibrat”, she’riy to‘plam, 1909). Ibrat arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus so‘zlaridan tarkib topgan “Lug‘at sitta as-sina” (“Olti tilli lug‘at”, T., 1901) tuzgan, bu asar o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid “Jome’ ul-hutut” (“Xatlar majmui”, 1912) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma’lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari (“Tarixi Farg‘ona”, 1916; “Tarixi madaniyat”, 1925; “Mezon uz-

zamon”, 1926) esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishidan to xx-asr 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Ibrat “Turkiston viloyati gazeti”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib etgan. 1937 yilda qatag‘on qurboni bo‘lgan. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 14-o‘rta maktab va Toshkentdagi bir ko‘chaga Ibrat nomi berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: Ўзбекистон, 2016.

2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.

3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг куналик қоидаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

5. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

6. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 507 б.

7. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.

8. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – 400 б.

9. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

10. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. / ҳттпс://www.лех.уз/астс/3107036.

11. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 22-dekabrdagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida nutqidan. https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/

12. Abdulxay, G.U. Yusupova L.U. Jadidchilik harakati tarixi (o’quv qo’llanma). “Ziyo-nashr-matbaa”. – Guliston. 2024. –B 192.

13. Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борба за независимост. –Т.: Узбекистан, 2000.

14. Абдурасҳидхонов М. Хотираларимдан. (Жадидилик тарихидан лавҳалар). – Т.: Сҳарқ. 2001.

15. Абдурасҳидхонов М. Танланган асарлар. –Т.: «Маънавият», 2003.

16. A’zamxo’jaev S. Turkiston muxtoriyati. Milliy – demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. –T.: Ma’naviyat, 2000.

17. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тоълдирилган 2 насҳри. –Т.: Маънавият. 1999.

18. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: “Университет”, 2006.

19. Do’stqoroev B. O’zbekiston jurnalistikasi tarixi (1-қism. 1870 – 1917 noyabr). Darslik.-T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2009.**2**

20. Mo’ydinova D.J. Turkiston va Sҳarқ mamlakatlari taraққiyparvarlarining o‘zaro aloқalari (XIX asr oxiri – XX asrning birincҳi cҳoragi). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023. –B. 64.

21. Murotova S. Islom tarixini o‘rganishda jadidlar ilmiy merosining ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish. –T.: 2018. –B. 57.

22. Nosirova N. Jadid matbuotining milliy matbuot sifatida shakllanishi. “Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari”, 2021. –B. 219-225.

23. Gasprinskiy (Gasprali). Hayot va mamot qissasi. Tanlangan asarlar – T., “Ma’naviyat”, 2006.

24. Rizaev Sh. Jadid dramasi. –T.: «Sharq», 1997.

25. Ro’zimova F.M. XIX asr oxiri va XX asr bos’hlarida Jadidchilik harakati hamda “Yosh Xivaliklar” ning ma’naviy va ma’rifiy qarashlari. – Urganch. 2023. –B. 144.

26. Samandarov Q.D. Bobooxun Salimovning jadidchilik faoliyati tahlili // Multidisciplinary Scientific Journal. 2023. –B. 80-85. https://t.me/openscholar

27. Jabborov N. Islam Jemeney. Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi / Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi (Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari). – Qarshi. 2023. – B. 6-9.

28. Jamolova D. Buxoro jadidlari: islohot va tanazzul. “Tafakkur” jurnali, 2016-yil 2-son.

29. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to’plam. №1. –T.: Universitet. -1999.

30. Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. –Т.: Маънавият. 2000.

31. Фитрат А. Танланган асарлар. 2-жилд. Илмий асарлар. -Т.: Маънавият. 2000.

32. O’zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000

33. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. –T.: Sharq, 2000.

34. Qosimov B. Milliy uyg‘onis’h: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. –T.: Ma’naviyat, 2002.

35. Fattoyev I.I. Jadidlarning tarixga bag‘ishlangan asarlari / Eurasian journal of academic research/ 2022. https://doi.org/10.5281/zenodo.7180296

36. Xolboev S. Milliy universitetning tarixiy ildizlari va tasҳkil topisҳi Jadidlarning milliy universitetga asos solganligi ҳaқida monografiya –T.: «Sharq», 2003.

37. Xolboev S. Yegamov B. Turkiston jadidcҳiligi - milliy uyg‘onis’ҳ davrida geografiya fani va ta’limi. – T.: A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

38. Yusupova D, Xushmatova S. Xorazmda jadidchilik harakati va yosh xivaliklar partiyasi faoliyati. “O’tmishga nazar”, –T.: 2019. –B. 32-41.

39. www.Ziyo-net.uz

40. www.FvaT.uz

MUNDARIJA

SO’Z BOSHI 3
1-mavzu: JADIDCHILIK HARAKATINING YUZAGA KELISHI 6
2-Mavzu: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIK TO’G’RISIDAGI QARASHLARI 17
3-Mavzu: JADID MILLIY XALQ MAORIFI 21
4-Mavzu: JADID MILLIY MATBUOTI 37
5-Mavzu: JADIDCHILIK HARAKATIDA TARIX, TARIX TA‘LIMI VA FALSAFASI MASALASI 51
6-Mavzu: JADIDLARNING MILLIY DAVLATCHILIKNI TIKLASH UCHUN KURASHI 62
7-Mavzu: BUXORO AMIRLIGI JADIDCHILIK HARAKATI 72
8-Mavzu: XIVA XONLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATI 83
GLOSSARIY 92
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI 100

Ilmiy nashr

MAMASAIDOV LUTFILLO

JADIDLAR TARIXI

O’quv qo’llanma

Muharrir: Ibrohim Mahkamov

Texnik muharrir: Qodir Mamadaliyev

Dizayner: Mirkomil Usmonov

«Iste’dod ziyo press» nashriyoti,

Namangan shahri, 3-kichik tuman, 2-uy.

Terishga 2025-yil 3-fevralda berildi. Bosishga 2025-yil 11-fevralda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. « Times New Roman» garniturasida ofset bosma usulida oq qog‘ozga bosildi. Hajmi 13,5 bosma taboq. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

"ZORRO PRINT" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Namangan shahar, Marg‘ilon ko‘chasi, 8-uy.